- reporni tog' jinslari bilan mustahkam bog'lash, chunki reporni siljishi tog' jinslarini siljishi bilan aynan mos kelishi kerak;
- reperlarni doimiy xizmat qilish muddatida, ularni holatini saqlanishi va o'zgarishligi;

- reper kallagi (yarim sfera) bo‘ylab belgilangan markazni ochiqqligi;
- tog‘ jinslarining muzlashi va erishi hamda jinslarni namligi va haroratini mavsumiy o‘zgarishi sharoitlarida reperning turg‘unligi.

Reperni uzoq muddatga davomiy xizmat qilib berishi uchun ularni o‘rnatish quyidagi tarzda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: diametri 160-300 mm o‘lchamda burg‘ilangan skvajinaga muzlash zonasini pastki chuqurligigacha 0,5 metrga metall shtir yoki diametri 30-50 mm bo‘lgan truba betonlanadi. Sementli aralashmani skvajinalarni faqat 0,4-0,5 metrga quyi qismiga quyiladi (1–rasm).

markaz hosil qilinadi. Metall shtirni yer tuproq bilan bir birini tortishishini kamaytirish uchun unga texnik yog‘ surkaladi va polietilen plyonka bilan o‘raladi. Skvajina devori va shtir orasidagi bo‘shliq betonli yostiqcha yuqorisi qum yoki shlak bilan to‘ldiriladi hamda mustahkamlab mahkamlab qotiriladi.

Reper tagida muzlashdan yaxlagan yostiqchani hosil bo‘lishini oldini olish uchun kapillyar xususiyatga ega bo‘lgan (shlak, yirik donador qum va boshqalar) materialdan tayyorlangan g‘ovakli asos to‘shalishi tavsiya etiladi. Ayoqli shishib ketishni ta’sirini kamaytirish va reper shtirini oxirgi uchini saqlanishini oshirish



a – betonli langar bilan chuqurlashtirilgan; *b* – qoqilgan chuqurlashtirilgan; *v* – betonlashtirilgan kallak bilan qoqilgan; 1 qum; 2 – temirli shtir; 3 – beton; 4 – izolyatsiyali material

1-rasm. Kuzatuv stansiyalaridagi reperlarni turlari

Reperni metall sterjenining yuqorigi uchini yarimsfera holiga keltiriladi, ya’ni unga diametri 2 mm va chuqurligi 4-5 mm dan katta bo‘lmagan teshik ko‘rinishdagi

uchun yer yuzasini pastki qismini 20-30 sm ga chuqurlashtirish lozim bo‘ladi.

Gruntning deformatsiyalanishi uni namligi o‘zgarishidan yuzaga kelishi evaziga

reperni vertikal siljishidan qochish uchun, reperlarni o'rnatish chuqurligi 1,5 metrdan kam bo'lmashligi shart.

Quvvati 1,5-2 metrdan katta bo'lgan bir joyda to'plangan to'rtlamchi cho'kindi qatlam bo'lganligi uchun xizmat qilish muddati 3-5 yilgacha bo'lishiga qoqilgan reperlarni qo'llash tavsiya etiladi (1 b,v-rasm). Ularni uzunligini yer tuproqni quvvatiga muvofiq holda 1,2-1,5 metrdan 2 metrgacha va undan katta bo'lganda tanlab olinadi.

Sochma bo'sh yer tuproqda qoqilgan reperlarni uzunligini mustahkamlashni mahkamligini oshirish uchun uni 2-2,5 metrgacha oshiriladi. Alohida holatlarda yuqori qismini betonlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1 v-rasm). Shishib ketishini oldini olish uchun reper betondan himoya qilinadi. Ushbu maqsadda unga texnik yog' surkaladi va polietilen plyonka yoki qora qog'oz bilan o'rab quyiladi.

Qoyali jinslarga reperlarni qoqish uchun chuqurlik burg'ilab quyiladi, ya'ni unga diametri 20-30 mm va uzunligi 30-50 mm bo'lgan metall shtir betonlashtiriladi.

Karyer bortlarini deformatsiyalanishini poligonometriya va kertma belgi usullar yordamida kuzatuv olib borishda, tayanch punktlarni o'rnatishda reper konstruksiyasini qo'llash maqbul hisoblanadi (1, a-rasm), bu punktlarni uzoq muddatga saqlanishini ta'minlaydi. Punktning langar bilan quyi qismini muzlagan chuqurdan pasti betonlashtiriladi. Reperni shishib ketishini oldini olish uchun yer tuproqdan himoya qilinadi.

Karyer perimetri bo'ylab ishchi punktlarni joylashtirishda ularni ostida piramida ko'rinishidagi tashqi belgilar o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

Qaytadan o'rnatilgan stansiyalarda dastlabki kuzatuvlar yer tuproqqa reperlarni qoqishdan keyin bir muncha vaqt o'tgandan so'ng bajariladi. Reperlarni barqarorlashtirish uchun quyidagi vaqt davomiyligi tavsiya etiladi: qoqilgani 10 sutka, skvajinalarda betonlashtirilgani 25-30 sutka.

Xatolikni haqiqiy qiymatlaridan kuzatish metodikasini kelajakda qo'llash yoki uni o'zgarishi haqidagi masalalar o'z yechimini topadi.

Tadqiqot natijalari. Davomiy stansiyalarda navbatdagi kuzatuvlarni davriyligi karyerlarda kon ishlarini pasayishining tezligi va bortlarni turg'unlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Qalmoqir karyeri sharoiti uchun davriylik yiliga 1 marta qabul qilinadi. Reperlar siljishining tezligini belgilashda 0,1 mm/sut katta bo'lgan defor-

1-jadval

Siljish tezligi, mm/sut.	Kuzatuvni bitta seriyasini davomiyligi, soat	Kuzatuv davriyligi, sut.
0,1	120	730
0,5	144	150
1,0	72	75
2,0	36	40
5,0	15	15
10,0	7	8
20,0	2	4

matsiyalanish uchastkasida vaqtinchalik kuzatuv stansiyalari o'rnatiladi, bunda kuzatuvlar 1-jadvalga mos ravishda belgilanadi.

Ishchi reperlarni aniqlashning xatoliklarini hisoblashni uzunlikni svetodalnomer yordamida o'lchashdagi xatolik hisobiga bajaramiz.

Hisoblash shartlari:

- svetodalnomer yordamida uzunlikni o'lchash to'ri va teskari tartibda amalga oshiriladi;
- bitta o'lchashni o'rtacha kvadratli xatoligi $m=\pm 8$ mm;
- siljishda tomonlar soni $n_x=4$.

O'rtacha kvadratli xatolikni o'rta arifmetikligi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$M = \frac{m}{\sqrt{n}} = \frac{8}{\sqrt{2}} = 5,6 \text{ мм}, \quad (1)$$

bu yerda n – o'lchashlar soni.

Teng aniqlikda o'lchashda tomonlar yig'indisining o'rtacha kvadratli xatoligi quyidagiga teng

Qanchalik poligonometrik siljish karyer bortiga deyarli parallel quyilgan bo'lsa, unda m_δ vektor proeksiyasi yuz berishi mumkin bo'lgan siljish yo'nalishiga $0,25 \cdot m_s$ ko'p bo'lmagan o'lchamda bo'ladi.

U holda siljishni m_{AS} maksimal talab etilgan qiymati burchaklarni o'lchashdagi xatolikda quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$m_{AS} = m_\delta - 0,25 \cdot m_s = 15 - 2,7 = 12,3 \text{ мм.}$$


Burchaklarni o'lchashdagi xatolik m_β xatolikni talab etilgan qiymatida yuz berishi mumkin bo'lgan siljish m_{AS} yo'nalishida reperlarni aniqlash quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$m_\beta = m_{AS} \cdot \rho \text{ K/L}, \quad (3)$$

bu yerda L – siljish uzunligi, m ;

K – siljishda tayanch punktdan repergacha tomonlar sonini hisobga oluvchi koeffitsient, (2-rasmga muvofiq aniqlanadi).

Siljish uzunligi $L = 4500$ metr va siljish



2-rasm. Tutash siljishda tomonlar soniga (n) bog'liq bo'lgan koeffitsientni (K) aniqlash uchun grafik

$$m_s = M \sqrt{n_x} = 5,6 \cdot \sqrt{4} = 11,2 \text{ мм}, \quad (2)$$

bu yerda M – siljishni bitta tomonini aniqlashning o'rtacha kvadratli xatoligi;
 n_x – siljishda tomonlar soni.

tomonlarining soni $n=4$ da yuz berishi mumkin bo'lgan siljish yo'nalishida reperlar holatini aniqlashdagi ruxsat etilgan xatolik 12,3 mm ga teng, burchaklarni o'lchashdagi xatolik esa quyidagiga teng

$$m_{\beta} = \frac{12,3 \cdot 206265 \cdot 3,35}{4500000} \approx 2''.$$

Shu tariqa, poligonometriyalik siljish punktlarida gorizontal burchaklarni o'lashni yuqori aniqlikdagi va haqiqiy teodolitlar yordamida bajarish lozim bo'ladi.

Xulosa. Ushbu kuzatuv punktlari karyerlarning ya'ni kon tarmog'i hududida

o'rnatilgan kuzatuv stansiyalari, kuzatuv vaqtlari davomida reperlarni saqlanishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida karyer bortining va pog'onalarining xavfsiz va barqaror ishlashini taminlaydi va shu bilan birga karyer borti cho'kishi, nurashi, ko'chishini va siljishlarini oldindan baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Силкин А.А., Кольцов В.Н., Шеметов П.А., Жиянов Ю.А., Иноземцев С.Б. Управление долговременной устойчивостью откосов на карьерах Узбекистана. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 93-97.
2. Исследовать устойчивость уступов и бортов карьеров и разработать мероприятия по повышению их устойчивости (Заказы 18; 2203; 127-Н; 127-У; 123-02): Отчет / ВНИМИ; рук. Ю.С. Козлов; № 022111. Л.: 1980. - С. 21-87.
3. Исследования устойчивости уступов, бортов и отвалов на карьерах и разработка мероприятий по обеспечению их устойчивости (объекты заказов 127-У; 123-02; 123-13): Отчет /ВНИМИ; рук. Э.Л. Галустьян. Л.:1982. - С. 5-7.
4. Leica GeoMoS 8 Руководство пользователя. Александр Дианов. - С. 2-30.
5. Несмеянов Б.В. Теоретические основы, методы и средства обеспечения устойчивости карьерных откосов // Дисс. ... докт. техн. наук. – Москва, 2000. – С. 102-114.

UO‘K: 622.47

 10.5281/zenodo.10721763

CHUQUR KARYERLARDA DAVRIY OQIMLI TEXNOLOGIYA KOMPLEKSI QO‘LLANISHNING LOYIHAVIY KO‘RSATKICHLARI



**Shodiyev Abbas Ne'mat
o'g'li**

*Texnika fanlari doktori, prof.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti konchilik kafedrasini,
O'zbekiston, Qarshi*



**Nomdorov Rustam
Uralovich**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti "Konchilik ishi" kafedrasini,
t.f.f.d(PhD) dotsenti, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail: rustannomdorov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0000-6987-8995*



**Ruzibayeva Dildora
Akramovna**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
institute magistranti, Qarshi,
O'zbekiston*

Annotatsiya. Maqolada chuqur karyerlarda davriy oqimli texnologiyani rivojlanish istiqbollari uning samaradorligini, raqobatbardoshligini, shuningdek qo'llanish doirasini kengaytirishni ta'minlaydigan, ilg'or texnik va texnologik yechimlarga asoslanadi. Portlatib maydalangan qoyasimon kon massalarini qazib yuklash ishlarida uzluksiz ishlaydigan transport vositalari va ekskavatorlar, shuningdek o'ziyurar saralab-maydalab qayta yuklovchi uskunalardan tashkil topgan davriy oqimli texnologiyani qo'llanishning istiqboli juda yuqoridir. Chunki bunday kompleksdan foydalanish butunlay potok texnologiyasiga o'tishga imkon yaratadi va karyerlarda katta hajmga ega bo'lgan kon massasining kavjoydan to'yukni tushirish punktlarigacha tashish potoklarini yaratishni ta'minlaydi. Ko'pchilik karyerlar chuqur gorizontlarini qazib olishda davriy oqimli texnologiyani qo'llash ochiq usulda kon qazish samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishi hisoblanadi va shu bilan birga Karyerlarda davriy oqimli texnologiya kompleksi qo'llanishining loyihaviy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: maydalash qayta yuklash qurilmasi, muddat ekspluatatsiya, karyerlarda turg'un maydalash korpuslari, avtoag'dargichlar, maydalash-konveyer kompleksi.

ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЛЕКСА СПТ В ГЛУБОКИХ КАРЬЕРАХ ПРОЕКТНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ

**Шодиев Аббос Неъмат
угли**

*Доктор технических наук, проф.
кафедра «Горное дело»
Каршинского инженерно-
экономического института,
Узбекистан, Карши*

**Номдоров Рустам
Уралович**

*Кафедра "Горное дело"
Каршинского инженерно-
экономического института, т.ф.д
(PhD) доцент, Карши, Узбекистан*

**Рузибаева Дилдора
Акромовна**

*Магистр Каршинского
инженерно-экономического
института, Карши, Узбекистан*

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы развития СПТ в глубокой карьере на основе передовых технических и технологических решений, обеспечивающих его эффективность, конкурентоспособность, а также расширение сферы применения. Перспектива применения СПТ, состоящей из бесперебойно работающих транспортных средств и экскаваторов, а также самоходного сортировочно-дробильного оборудования, при погрузочно-разгрузочных работах по добыче взрывоопасных горных масс, очень высока. Т. к. использование такого комплекса позволяет полностью перейти на потоковую технологию и предусматривает создание транспортных потоков от забой до пунктов разгрузки горной массы, имеющих большой объем в карьерах. Применение СПТ при добыче глубоких горизонтов большинства карьеров является основным направлением обеспечения эффективности добычи открытым способом, наряду с этим приводятся проектные показатели применения комплекса СПТ в карьерах.

Ключевые слова: Дробильный перегрузочный агрегат, срок эксплуатации, стационарные дробильные корпуса в карьерах, автопогрузчики, дробильно-конвейерный комплекс.

USING THE SPT COMPLEX IN DEEP QUARRIES DESIGN

INDICATORS

Shodiev Abbas

DSc, prof. dept. of "Mining" Karshi
engineering-economics institute,
Uzbekistan, Karshi

Nomdorov Rustam

Karshi Engineering-Economics
Institute, Department of "Mining",
Associate Professor of Ph.D.,
Karshi, Uzbekistan

Ruzibaeva Dildora

Master of Karshi Engineering-
Economics Institute, Karshi,
Uzbekistan

Abstract. In the article, the prospects for the development of SPT in deep quarries are based on advanced technical and technological solutions that ensure its effectiveness, competitiveness, as well as the expansion of the scope of application. The prospect of using SPT, which consists of continuously working vehicles and excavators, as well as self-propelled sorting and crushing and reloading equipment, in the excavation and loading of blast-crushed rock mass is very high. Because the use of such a complex makes it possible to completely switch to stream technology and provides the creation of streams for the transportation of large-sized ore mass in quarries from the pit to the unloading points. The use of SPT in mining the deep horizons of most quarries is an open-pit mine. the main direction of ensuring the efficiency of excavation is calculated, and at the same time, the design indicators of the use of the SPT complex in quarries are presented.

Keywords: Crushing reloading device, period of operation, stationary crushing bodies in quarries, auto-turners, crushing-conveyor complex.

Kirish. Kon qazish ishlarini tobora chuqurlashib borishi, karyerlarda tashish ishlarini takomillashtirish masalasini dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rsat-

moqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning birinchi yirik karyerlarining chuqurligi 400-700 va undan ko'p metrlarni tashkil etmoqda. "Muruntau" karyeri (chuqurligi

650 m), “Qalmaqir” karyeri (chuqurligi 500 m ga yaqin), “Angren” razrezi (chuqurligi 400 m ga yaqin) shular jumlasiga kiradi. Shu sababli ushbu karyerlarda texnologik transportni takomillashtirish va samaradorligini oshirish DOT kompleksidan keng foydalanishni taqazo etadi. Konlarni ochiq usulda qazib olish samaradorligi karyer chuqur gorizontlarida kon qazish ishlarini olib borish uchun tanlab olinadigan texnika vositalariga bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ko‘pchilik karyerlar chuqur gorizontlarini qazib olishda DOT ni qo‘llash ochiq usulda kon qazish samaradorligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu esa Rossiya, Ukraina, O‘zbekiston va boshqa chet el korxonalarida olib borilgan ilmiy-tadqiqot, loyihalash ishlari hamda tajribalar bilan isbotlangan.

Hozirgi vaqtda DOT Olingor va Kovdor kon-boyitish kombinatlarida (Rossiya), Poltavsk, Yujniy, Ilguletsk, Sentral’ny, Novokrivorojsk va Severny kon-boyitish kombinatlari (Ukraina), Navoiy kon-metallurgiya kombinati (O‘zbekiston) va qator chet el karyerlarida qo‘llanmoqda. MDH mamlakatlari karyerlarida DOT ni qo‘llashning loyihaviy ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

MDH mamlakatlari karyerlarida DOT dan foydalanib kon massasini tashish va qayta yuklash hajmi umumiy bajarilgan kon ishlarining atigi 10% ni tashkil qiladi. AQSh, Kanada, Avstraliya, Chili va boshqa chet el korxonalarida bu ko‘rsatkich 50% dan ham ko‘proqdir.

Chet el korxonalarida DOT ni qo‘llash dastlab yarim turg‘un maydalash uskunalaridan foydalanib keyinchalik esa, suriluvchi (o‘ziyurar) maydalash uskunalariga o‘tishni ko‘zda tutilgan holda amalga

oshirilgan.

Bunga qarama-qarshi o‘laroq MDH mamlakatlari korxonalarida DOT komplekslaridan foydalanish karyerlarda turg‘un maydalash korpuslarini qurish asosida amalga oshirilgan. DOTdan foydalanishning bu yo‘li, birinchidan, avtomobil transportidan butunlay foydalanmaslikka imkon bermaydi, ikkinchidan, uzoq muddat ekspluatatsiya qilinishi sababli karyerni rivojlantirishga sezilarli darajada moniylik ko‘rsatadi. Bunga 2000 yili Steylensk KBK karyerda yirik maydalash korpusi va butunlay DOTdan foydalanish tugatilganligi yaqqol misol bo‘la oladi. Aksincha Ukrainaning Poltavsk KBK karyerida turg‘un va yarim turg‘un maydalash uskunalari o‘rniga o‘ziyurar mobil maydalash uskunalardan foydalanish hisobiga (“Krupp Fordertech” firmasi) DOT samaradorligini oshirishga erishilgan, avtotransport balandligini 107 metrgacha va avtoag‘dargichlar sonini 9 tagacha qisqartirishga erishilgan. Shunday qilib hozirgi vaqtda DOTdan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy tadbiri - DOT kompleksida mobil, o‘ziyurar maydalash uskunalaridan foydalanishdir.

DOT qo‘llanilgan qariyb barcha karyerlarda ularning chuqur gorizontlarini ochish (KBK karyeri, Annovsk karyeri va Muruntau karyerlari bundan mustasno) karyer ichi qayta yuklash punkti (QYuP) da joylashtirilgan qiya stvollar va shtolnyalar orqali amalga oshirilgan. Ushbu ochish sxemasi qator kamchiliklarga ega, ulardan eng asosiylari: aksariyat hollarda QYuP to‘la quvvatda ishlamaydi; QYuP ni karyer ishlamaydigan yonbag‘riga joylashtirish avtotransport yo‘lini uzaytiradi; vaqtincha ishchi yonbag‘riga joylashtirish esa, ma‘lum miqdordagi foydali qazilma zaxirasini kon-

servatsiya qilishga olib keladi.

Chuqur karyerlar ishchi zonasini shakllantirish va qoyasimon kon massalari hajmini makon bo‘ylab vaqtincha joylashganligi DOT komplekslarida maydalash-

qaytayuklash qurilmalari (MQYuP) dan foydalanishni taqazo etadi. Blok-modul ko‘rinishida bajarilgan harakatlanuvchi yarimturg‘un MQYuP DOT tizimi moslanuvchanligini sezilarli darajada oshiradi.

1-jadval

Karyerlarda SPT kompleksi qo‘llanishining loyihaviy ko‘rsatkichlari

Korxonalar (karyerlar)	Kon massasi ko‘rinishi	Loyiha unumdorligi mln.t/yil	SPT da qo‘llangan texnologik jarayon uskunalari			
			Burg‘ulash stanoklari	Ekskavator cho‘michi xajmi m ³	Karyer ichi transporti	Maydalagich (tegirmon)
Navoiy KMK Muruntau karyeri	Kon jinsi+ruda	65,5	SBSh-250	8; 12,5; 15; 26	CAT- 785V CAT- 789S R-170	KVD- 1200/200
Inguletsk GOK (kon-boyitish kombinati) karyerlari	Ruda	18	SBSh-250 SBSh-320	5; 8	BelAZ- 7519 BelAZ- 548 BelAZ- 549	KKD- 1500/180
Severny GOK, Annovsk karyeri	Ruda+kon jinsi	18	SBSh-250 SBSh-320	5; 8	BelAZ- 548 BelAZ- 549 ND- 1200	KKD- 1500/180 KVDK- 1200/200
Yujny GOK karyeri	Ruda	20	SBSh-250	5; 8	Tortish agregati PE-2	KKD- 1500/180
Sentral’ny GOK karyeri №1	Ruda+kon jinsi	16	SBSh-250	5; 8	BelAZ- 548 ND- 1200	KKD- 1500/180
Novokrivorajsk GOK, karyer №3	Ruda	16	SBSh-250 SBSh-320	5; 8	BelAZ- 548 BelAZ- 549	KKD- 1500/180
Poltavsk GOK karyeri	Ruda	12	SBSh	5; 8	BelAZ- 549 ND-1200	KKD- 1500/180
Olgorsk GOK karyeri	Ruda	12,1	SBSh	5; 8	BelAZ- 548 BelAZ- 549	SHKD- 1500*2100
Stoylensk GOK karyeri	Ruda	20,7	SBSh	8	BelAZ- 549	KKD- 1500/180

2-jadval

Korxonalar (karyerlar)	Kon massasi ko‘rinishi	Konveyer transporti parametrlari			
		Ko‘tarish balandligi, m	Konveyer uzunligi, m	Lenta kengligi, m	Konveyer soni (liniya bo‘yicha)
Navoiy KMK Muruntau karyeri	Kon jinsi+ ruda	200	7500	2000	4
Inguletsk GOK (kon-boyitish kombinati) karyerlari	Ruda	180	1700	2000; 1600	3
Severny GOK, Annovsk karyeri	Ruda+kon jinsi	163,5	2400	2000	5(kon jinsi) 3 (ruda)
Yujny GOK karyeri	Ruda	172,5	2715	2000; 1600	4
Sentral’ny GOK karyeri №1	Ruda+kon jinsi	257	1828	1000; 2000	5
Novokrivorojsk GOK, karyer №3	Ruda	199,3	1200	2000	4
Poltavsk GOK karyeri	Ruda	120	-	2000	2
Olengorsk GOK karyeri	Ruda	155,7	1013	1600/2000	4
Stoylensk GOK karyeri	Ruda	200	1300	200	2

Kovdorsk KBK karyerlarida 1999 yildan boshlab maydalash-konveyer kompleksi ishlab turibdi. MQYuP ShDP-500*2100 rusumli jag‘simon tegirmonli yarim turg‘un maydalash-qayta yuklash uskunalaridan tashkil topgan. Karyerda 3 ta yarim turg‘un maydalash-qayta yuklash qurilmasi ishga tushirilgan bo‘lib, ular karyer chuqurlashib borishi moboynida yirik bloklar (modullar) bilan yangi konsentratsion gorizontlarga ko‘chiriladi. Kompleksning konveyer ko‘targichi karyer yonbag‘riga 160 burchak ostida o‘rnatilgan.

Muhokama. Poltavsk KBK temir ruda karyerida qazish ishlari 280 m chuqurlikda olib borilmoqda (loyiha chuqurligi 600 m), 1996 yilda 2500 t/soat unumdorlikka ega bo‘lgan yarim turg‘un blok-modul ko‘ri-

nishida bajarilgan maydalash-konveyer kompleksi ishga tushirilgan. Kompleksda “Krupp Fordertechnik” nemis firmasi tayyorlagan uskunalaridan foydalanilgan. Ana shu DOT kompleksini ishga tushirishga sarflangan kapital mablag‘ miqdori baza variantidagi kapital mablag‘ miqdoriga teng bo‘lib, kompleksni ekspluatatsiya qilish mobaynida joriy xarajatlarni kamaytirish hisobiga kon massasini tashish tannarxini baza variantiga nisbatan 2 barobar kamaytirishga erishilgan. Aynan shu konstruksiyadagi DOT kompleksini Poltavsk KBK karyerlarida qo‘llash rejalashtirilgan.

Maydalash qayta yuklash qurilmasi DOT tizimining texnologik imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishda o‘ta qiya konveyerlardan foydalanish katta ahami-

yatga egadir. Hozirgi vaqtda jahonning 50 dan ortiq mamlakatlari karyerlarida o'ta qiya lentali konveyerlardan foydalanilmoqda. Karyerlarda yopqich lentali, ikki konturli lentali konveyerlar keng qo'llanilmoqda. O'ta qiya konveyerlar to'kma kon jinslarini 50-60⁰ burchak ostida yuqoriga ko'tarib berish qobiliyatiga ega bo'lganligi tufayli ananaviy konveyerlar qo'llanilganga nisbatan karyer yonbag'rida yo'l trassasini tayyorlashda kon-kapital ishlar hajmini minimumga keltirishga imkon yaratadi.

Koshtomushsk karyerida maydalash-qayta yuklash uskunalari va o'ta qiya konveyer bilan jihozlangan DOT kompleksini qo'llanishi natijalarini texnik iqtisodiy tahlili, bu kompleksning yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotlab berdi. Masalan, DOT ni qo'llanishning birinchi bosqichi joriy ochish ishlari hajmini 5 mln.m³ ga qisqartirishga imkon yaratgan bo'lsa, DOT kompleksini karyer janubiy yon-bag'riga doimiy o'rnatish (2 bosqich) karyer chegaralarida bajariladigan ochish ishlarini baza variantiga (avtomobil-temir yo'l) nisbatan 17-18 mln.m³ ga kamaytirishga olib keladi.

Poltavsk KBK karyerida "Krupp Fordertechnik" firmasi maydalash-konveyer kompleksi qayta yuklash punkti modeli sifatida qo'llaniladi.

Kompleks mobil yirik maydalash qurilmasi (unumdorligi yiliga 12 mln.t), uzunligi 508 m lentali konveyer, uzunligi 38 m lentali ag'darma hosil qiluvchi va uzunligi 273 m omborxonada konveyeridan tashkil topgan. Maydalash qurilmasi gusenitsali transportyor yoki ko'p g'ildirakli platforma yordamida yurishi mumkin. Qabul qilish bunkerini ikki tushirish joyi va plastinkali ta'minlagich bilan jihozlangan.

Tadqiqot natijalari. Karyer ichi mobil

qayta yuklash punkti sifatida uzliksiz ishlaydigan ekskavator va saralab-maydalab qayta yuklovchi qurilmalardan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Portlatib maydalangan qoyasimon kon jinslari uchun IGTMNAN (Ukraina) yaratgan, ERGS-5000 va maydalab yuklovchi PGS-2250 qurilmalaridan tashkil topgan kompleksdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Karyer ishchi zonasida gravitatsion transport asosida ishlaydigan DOT ni qo'llanishi ham katta istiqbolga egadir. Bunda kon massasini gorizontlar bo'yicha rudatushurgichgacha tashib keltiriladi va u orqali karyerning yer ostida vertikal joylashgan omboriga tushiriladi. Ombordagi ruda konveyer transportiga qayta yuklanadi.

Ukraina IGTMNAN da konveyer poyezdlari va ularni qo'llash texnologiyalari ishlab chiqarilgan. Konveyer poyezdli tashish kompleksi yirik bo'lakli (1200 mm) kon massasini tashishga mo'ljallangan bo'lib, yuqoritezlikka egadir.

Bu yangi ko'rinishdagi karyer transporti o'zida temir yo'l va konveyer transportlarining afzalliklarini mujassamlagan bo'lib, eng maqbul tezligi 10-15 m/sek va ko'tarilish burchagi 20⁰ ni, solishtirma yuk ko'tarish qobiliyati 1,5-2,5 t/m ni tashkil qiladi.

Portlatib maydalangan qoyasimon kon massalarini qazib yuklash ishlarida uzluksiz ishlaydigan transport vositalari va ekskavatorlar, shuningdek o'ziyurar saralab-maydalab qayta yuklovchi uskunalardan tashkil topgan DOT ni qo'llanishning istiqboli juda yuqoridir. Chunki bunday kompleksdan foydalanish butunlay potok texnologiyasiga o'tishga imkon yaratadi va karyerlarda katta hajmga ega bo'lgan kon massasining kavjoydan to yukni tushirish punktlarigacha tashish potoklarini yaratishni ta'minlaydi

(ruda boyitish fabrikasiga, kon jinlari ag'darmalariga). Qoyasimon qoplama jins va qattiq rudalarni qazib oladigan karyerlarda potok texnologiyasi (PT) ni qo'llash quyidagilarni ta'minlaydi: kon ishlarini markazlashtirish hisobiga kon qazish ishlari jadalligini, karyer yonbag'ri bo'yicha yuk ko'tarish qiyalik burchagini katta bo'lishi hisobiga tashish masofasini qisqartirishni; kon qazish, tashish ishlarida uzluksiz ishlaydigan kon-transport vositalarini qo'llanishi tufayli karyer unumdorligini oshirish; resurs va energiya tejamkorligini; mahsulot tannarxini kamayishini; ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni; karyerda ishlaydigan avtoag'dargichlar sonini kamayishi hisobiga zaharli gazlarni atmosferaga ajralib chiqishini kamaytirish.

Rossiya va Ukraina loyiha institutlari tomonidan bajarilgan texnik-iqtisodiy tadqiqot hamda loyihaviy ishlanmalar asosida chuqur karyerlarda portlatib maydalangan qoyasimon kon jinlarni DOT orqali qazib olish yuqori samaradorlikka ega bo'lishi aniqlangan. Yillik unumdorligi 5 mln.t dan ko'p bo'lgan, faqat birgina

karyerda DOT kompleksini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi qariyb 2 mln. AQSh doll.ni tashkil qilishi aniqlangan.

Xulosa. Shunday qilib, chuqur karyerlarda DOT ni rivojlanish istiqbollari uning samaradorligini, raqobatbardoshligini, shuningdek qo'llanish doirasini kengaytirishni ta'minlaydigan, ilg'or texnik va texnologik yechimlarga asoslanadi. Chuqur karyerlarda qazish chuqurligi oshib borgan sari kon ishlarini olib borish quyidagi sabablarga ko'ra sezilarli darajada murakkablashib boradi:

- qazish ishlari 300-400 m va undan ham chuqur gorizontlarda olib borilishi tufayli qoplama jinlarni qazib olish hajmi oshib boradi;

- gorizont va balandlikka ko'tarilish bo'yicha kon massasini tashish masofasi uzayib boradi;

- transport kommunikatsiyasi sxemasi murakkablashib kon-transport uskunalari-dan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada karyerning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini pasayib ketishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Номдоров Рустам Уралович. Научное обоснование повышения устойчивости бортов карьера путем формирования вогнутого профиля откоса высокого уступа // Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам. Навои, - 2022. – стр.44.
2. Mansurova S.A., Urinov S.R., Nomdorov R.U., Nurxonov H.A., Karimov Y.L., Boymurodov N.A., Nematullayev S., Abduvahobova Z., Sanakulov H., Mukhtorova M,Sh. Investigation of the degree of uniformity of the edge array during contour blasting // Intersections of Faith and Culture: AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies. Volume 01, Issue 03, 2023 ISSN (E): 2993-2599, pp.39-59.
3. Заиров Ш.Ш., Уринов Ш.Р., Равшанова М.Х., Номдоров Р.У. Физико-техническая оценка устойчивости бортов карьеров с учетом технологии ведения буровзрывных работ. Бухоро, изд-во «Бухоро», 2020. – 175 с.

4. Zairov S.S., Urinov S.R., Nomdorov R.U. Ensuring Wall Stability in the Course of Blasting at Open Pits of Kyzyl Kum Region. *Gornye nauki i tekhnologii = Mining Science and Technology (Russia)*. 2020; 5(3): 235-252. <https://doi.org/10.17073/2500-0632-2020-3-235-252>
<https://mst.misis.ru/jour/article/view/243/211>
5. Urinov Sherali Raufovich, Zairov Sherzod Sharipovich, Ravshanova Muhabbat Husniddinovna, Nomdorov Rustam Uralovich. (2020). Theoretical and experimental evaluation of a static method of rock destruction using non-explosive destructive mixture from local raw materials. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology*, 17(6), 14295-14303. Retrieved from <https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4186>
6. Уринов Ш.Р., Номдоров Р.У., Джуманиязов Д.Д. Исследование факторов, влияющих на устойчивость бортов карьера *Journal of advances in engineering technology* ISSN:2181-1431, 2020, No.1, pp.10-15. DOI 10.24411/2181-1431-2020-1-10-15.

UO‘K: 669.01/.09

 10.5281/zenodo.10726243

O‘ZBEKISTONDA VOLFRAM MINERAL XOM ASHYO BAZASI VA UNING ASOSIY MUAMMOLARI



Xo'jakulov Amirjon Murodovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, "Konchilik ishi" kafedrası
dotsenti, Qarshi, O'zbekiston
ORCID ID: 0009-0008-5701-0011



Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, "Konchilik ishi" kafedrası
assistenti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: najmiddinboy-94@mail.ru
ORCID ID: 0009-0007-7820-7799

Annotatsiya. Bu maqola O'zbekiston hududida joylashgan va hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan volfram konlarining geologik joylashuvi, relyefi, mineralogik umumlashtirilgan tarkibi haqida asosiy ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolada volframning eruvchan shakllari va sheelit va volframitning kristallanish sharoitlari, shuningdek ularni ishlab chiqarishning asosiy jihatlari tabiatda uchraydigan volfram rudasi turlari va uni boyitish jarayoni texnologiyasiga ilmiy yondashuvi tahlil qilingan va o'rganilgan. Volframitni boyitish jarayonida odatda flotatsiya va gravitatsion boyitishning kombinatsiyalangan texnologiyasi yoki kombinatsiyalangan flotatsiya texnologiyasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Ingichka, Sautbay, Volfram, Sheelit, Tungstenit, profillovchi metallar, kvars-greyzen, Skarn tipi, Lyangar, Stratigrafiya, Ko'kpatas svitasi, Adamelit-granit, fleksuralar, quyi perm dioritlari.

БАЗА ВОЛЬФРАМОВОГО МИНЕРАЛЬНОГО СЫРЬЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Хужакулов Амиржон Муродович

Доц. кафедры «Горное дело», Каршинский инженерно-экономический институт,
Узбекистан, Карши

Боймуродов Нажмиддин Абдукодирович

Асс. кафедры «Горное дело», Каршинский инженерно-экономический институт,
Узбекистан, Карши

Аннотация. В данной статье представлены основные сведения о геологическом положении, рельефе, минералогическом общем составе вольфрамовых месторождений, расположенных на территории Узбекистана и действующих в настоящее время. В данной статье проанализированы растворимые формы вольфрама и условия кристаллизации шеелита и вольфрамита, а также основные аспекты их производства, типы вольфрамовой руды, встречающиеся в природе, и научный подход к технологии процесса ее обогащения. изучал. В процессе обогащения вольфрамита обычно применяют комбинированную технологию фло-

тации и гравитационного обогащения или комбинированную технологию флотации.

Ключевые слова: Ингичка, Саутбей, Вольфрам, Шеелит, Вольфстенит, металлы профилирования, кварц-грейзен, скарнский тип, Лянгар, Стратиграфия, Кокпатасская свита, Адамелит-гранит, флексуры, нижнепермские диориты.

BASE OF TUNGSTEN MINERAL RAW MATERIALS IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN PROBLEMS

Khujakulov Amirjon

Assoc. Department of Mining, Karshi Engineering-Economic
Institute, Uzbekistan, Karshi

Boymurodov Najmiddin

Ass. dept. of "Mining" Karshi engineering-economics institute,
Uzbekistan, Karshi

Abstract. This article provides basic information about the geological location, relief, mineralogical general composition of tungsten deposits located in the territory of Uzbekistan and currently operating. In this article, the soluble forms of tungsten and the crystallization conditions of scheelite and wolframite, as well as the main aspects of their production, the types of tungsten ore found in nature and the scientific approach to the technology of its beneficiation process are analyzed and studied. In the beneficiation process of wolframite, the combined technology of flotation and gravity beneficiation or combined flotation technology is usually reported.

Keywords: Ingichka, Southbay, Tungsten, Scheelite, Wolfstenite, profiling metals, quartz-greisen, skarn type, Lyangar, Stratigraphy, Kokpatas Formation, Adamelite-granite, flexures, Lower Permian diorites.

Kirish. Volfram (W)-oltinchi guruh metali, odatda olti valentli bo'ladi. Atom og'irligi 183,85. Tartib raqami 74. Klarki $7 \cdot 10^{-3}$. Solishtirma og'irligi 19,1-21,4. Suyuqlanish harorati 3388°C . Volfram Sheele tomonidan 1781-yili kashf etilgan. Volframning eng yuqori oksidi WO_3 . Uning tuzlari volframning asosiy minerallari hisoblanadi. Sanoatda volfram po'latning maxsus navlarini, qattiqligi juda yuqori bo'lgan qotishmalar va bronza olishda ishlatiladi. Volfram kislotasining tuzlari badiiy bo'yoqlar tayyorlashda, to'qimachilikda, fotografiyada va boshqa sohalarda foydalaniladi. Nurash zonasida volfram molibden bilan o'rin almashadi. Volfram minerallari asosan, pegmatitlarda, pnevmatolitlarda, gidrotermal tomirlarda va kontakt-metasomatik jinslarda uchraydi.

Adabiyot tahlili va usullari. Volfram O'zbekistonda asosiy profillovchi metallardan biridir. Respublika 50 yildan ortiq vaqt mobaynida, dunyoga mashhur volframdan provinsiyasi bo'lib kelgan. Ulardan biri deyarli to'liq ishlab chiqilgan (Lyangar), yana uchta yaqin vaqtgacha (Ingichka, Qo'yto'sh, Ugat) ishlagan, Muruntov oltin konida volfram qazib olinadi. Respublikada volfram iste'molchisi, O'zbekiston o'tga chidamli va qattiq qotishmalar korxonasi (O'CH va QQK) hisoblanadi.

Volfram ma'danli obyektlari respublikaning uchta kon-iqtisodiy maydonlarida jamlangan:

1-**Toshkent atrofi** (Sargardon, Barkrak va Chavata-daykali kvars-greyzen tipidagi konlari bilan, Chotqol ma'danli maydoni);

2-**Samarqand** (Ingichka koniga ega

1-jadval

Tarkibida volfram ishtirok etuvchi minerallar

t.r	Mineral nomi	Formulasi	t.r	Mineral nomi	Formulasi
1	Tungstenit	WS ₂	5	Sheelit	CaWO ₄
2	Tungstit	WO ₂ (OH) ₂	6	Molibdosheelit	Ca(Mo,W)O ₄
3	Volframit	(Fe,Mn)WO ₄	7	Kuprotungstit	CuWO ₄
4	Ferberit	FeWO ₄	8	Shtolsit	PbWO ₄

Zirabuloq ma'danli maydoni, Chaqilkalondagi Yaxton, Karatyubedagi Karatyube, Shimoliy Nurotadagi Qo'ytosh, Janubiy Nurotadagi Lyangar); skarn tipidagi bu konlar Janubiy Tyan-Shanning Zarafshon-Oloy va Zarafshon-Turkiston metallogen zonalaridagi C₃-P₁ granitoidlari bilan chegaralangan;

3-Qizilqum (Janubiy Tyan-Shanning Janubiy Bukantau zonasidagi Saritau va Sautbay konlari bilan, Turbay ma'danli maydoni).

Qizilqum hududi bo'yicha ma'lum bo'lgan tasniflar va yangi ma'lumotlarning tahlili to'rtta geologik va sanoat tipni ajratib ko'rsatadigan, umumiy tasnifni taklif qilish imkonini beradi: skarn va aposkarn-skarnoid plastlari, dala shpati-kvars va kvars-greyzen tomirsimon-shtokverk.

Skarn tipi – Ingichka, Qo'ytosh, Lyangar, Yaxton yotqiziqlarining asosiy sheelitli konlari bo'lib, C₃-P₁ granodiorit-adamelit qatlamining kontaktlar va yaqin ekzokontaktlar (50-100 m. gacha) intruziyalari bilan chegaralangan.

Dala shpati-kvars (gumbeit) tipidagi O'zbekistonda Saritau volframli shtokverki bu turga to'g'ri keladi, garchi biz maydonlashtirishning yagona gidrotermik ustunida Saritauning yuqori bo'g'ini deb

hisoblaydigan, Muruntov oltin-noyob metall shtokverkini ham, kam bo'lmagan tipik analog deb hisoblash mumkin.

Muhokama. Sharqiy O'zbekistonda volfram minerallashuvining **kvars-greyzen** tipi keng tarqalgan. Bular mayda konlar (Sargardon, Barkrak va boshqalar) va leykokratik va subalkalin granitlarning endokontaktlari bilan chegaralangan, boy ma'danlarga ega.

1. Sautbay volfram koni va ma'danli maydoni

Kon haqida umumiy ma'lumotlar.

Sautbay koni janubiy Bukantau-Turbay tog'larining g'arbiy qismida joylashgan. Navoiy viloyatining Uchquduq tumaniga qarashli. Uni oltin ma'danli Ko'kpatas koni bilan grunt yo'l (20 km) bog'laydi, u yerdan temir yo'l va shosse yo'llari boshlanib, Uchquduq tumani markazi bilan (35 km) bog'laydi. O'sha yerdan EUT-ZX va Amudaryodan vodoprovod o'tadi. Oltin va uran uchun tog' boyitish kombinatlari Ko'kpatas va Uchquduqda joylashgan, tog'-metallurgiya zavodi-kondan 40 km masofada. Relyef cho'lniki, yarim sahro, tekislangan (nisbiy o'zgarishlar 10-30 m).

Foydali qazilmalar. Ma'danli tanalarni mineral tarkibi ko'p komponentli. Magnezial skarnlar asosan diopsiddan

iborat, ba'zan forsteritdan iborat. Unga, flogopit, tremolit, serpentin, ohakli skarnlar-solit, ba'zan granat, kvarts, kalsit, plagioklaz qo'shilgan. Gipogen ma'danli minerallardan sheelit, molibdenit, pirrotin, pirit, xalkopirit, arsenopirit, sfalerit, galenit, vismutin, antimonit, sof oltin, kumush, vismut mavjud.

Ma'danli tanalarni geokimyoviy tarkibi volframdan tashqari, yuqori konsentratsiyalarga ega: mis-0.1%, rux-0.03%, vismut-0.04%, oltin-0.25-1.5 g/t, kumush-1-5 g/t, molibden-0.01%. Ma'danlardagi asosiy yo'ldosh komponentlar-oltin, vismut, mis, ular texnologik tadqiqotlar bo'yicha sulfidli konsentratdan ajratib olinishi mumkin. Geokimyoviy zonaviylik, ma'danli minerallarni taqsimoti xususiyatlariga mos keladi, u quyidagicha ketma-ketlikdadir: (pastdan-yuqoriga): molibden-volfram, mis, rux, qo'rg'oshin, surma, mishyak, kumush.

Oltin konsentratsiyalarini keskin ortishi skarn tanalarda va ma'dan atrofi metasomatitlarda (5-9 g/t gacha) belgilangan, ma'dan maydonini janubiy-sharqiy qanotida (Burgut uchastkasi). Ma'danlashuvni vertikal oralig'i 500 m. dan ortiq (kon kam nuragan).

Gidrogeologik sharoitlar-oddiy, doimiy suv oqimlari yo'q va minimal suvlilikka ega.

2. Yaxton volfram koni va ma'danli maydoni

Kon haqida umumiy ma'lumotlar.

Yaxton koni Chaqil-Kalon tog'larining suv ayirg'ichi yaqin qismida, Urgutsoy havzasida joylashgan. Ma'muriy jihatdan Samarqand viloyatining, Urgut tumaniga qarashli. Tuman markazi bilan grunt yo'li (10 km) orqali bog'langan, keyin viloyat markazi va temir yo'l stansiyasi bilan shosse yo'li orqali bog'langan (25 km). Relyefi keskin o'zgaruvchan, absolyut balandligi 1400-1900 m, nisbiy o'zgarishlar 150-300

m. Iqtisodiy jihatdan (elektr ta'minoti, EUT, mehnat resurslari) Urgut tumani yuqori darajada o'zlashtirilgan. Volfram ma'danlarini namunaviy qazib olishni Qo'ytosh boyitish fabrikalarida o'tkazgan, ammo tashib olishni samarasizligi tufayli (150 km) to'xtatilgan.

Foydali qazilmalar. Skarn ma'danli tanalarni mineral tarkibi asosan, gedenbergitli-grossulyar, gedenbergitli-vollostonitlardan iborat. Boshqa minerallardan eng ko'p uchraydiganlari kvarts, andezit, amfibol, kalsit, pirrotin, pirit, xalkopirit, arsenopirit, vismutin va galenitlardan tashkil topgan.

Har-xil tadqiqotchilar mineral hosil bo'lishini 10 tagacha guruhga ajratadi. Asosiylari, skarnlar (piroksen, granat, andezin) va uchta gidrotermal: 1) amfibol, albit, kvarts, sheelit. 2) kvarts, albit, molibdenit va sheelit. 3) kvarts, serisit, jilbertit, kalsit va pirit, markazit, xalkopirit, galenit. Vaqt bo'yicha birinchi va ikkinchi bosqichlar granodiorit-pofirlarning daykalari kirib kelishi bilan ajralgan. Ikkinchi va uchinchi esa dioritoid daykalar guruhi bilan ajratiladi.

Ma'danli tanalarni geokimyoviy xususiyati volfram va molibdenni yuqori konsentratsiyalari bilan tavsiflanadi. Volframning miqdori har-xil bloklarda 0,25% dan, 0,4% gacha o'zgaradi. O'rtacha 0,35%, molibden 0,023%, mis 0,077%, sulfidlarda yig'ildiganlar vismut (0,5-1%), talliy (1,25 g/t), selen va tellur.

Volframni yo'ldosh elementlari molibden, mis, vismut, qalay, ular shu tartibda vertikal geokimyoviy zonaviylik qatorini hosil qiladi. Lokal namoyon bo'lgan berezitlar bilan, submeridional bo'yilgan qo'rg'oshin, kumush, oltin, mishyakni geokimyoviy tarkiblari bir-biriga bog'liq. Ma'danlashish-

ning tarqalish qalinligi 400 m dan ortiq.

Tog'-texnik sharoitlar murakkab, buning sababi ma'danlashuvni notekis tarqalganligi, foydalanishdagi tog' lahmlaridan uzoqdaligidir. Grunt suvlari oqimi norma atrofida. Boyitishning texnologik sxemasi murakkab. Bundagi sheelit konsentrati 73%, ajratib olishda 85% ga yana yo'ldosh komponent sifatida mis va molibden bilan qazib olinadi. Yassi surilmalar va sinformalarni yirik paleo-geologik tuzilmasida, yer osti suvlarini harakatini qo'shimcha qilish mumkin.

Migratsiya omilining asosiy komponenti intruzivni ildizi, uning eng tik yotuvchi qismiga to'g'ri keladi. Minerallashgan zona Qo'ytosh-Ugat kamari ma'danlashuvi, maksimal darajada moprotsenti bilan tavsiflanadi. Chekka qismlarda u kamayadi, uzoqlashganda esa sanoatga loyiq bo'lmay qoladi. Tashkil bo'lish sharoitlari bo'yicha Qo'ytosh koni kam chuqurlik sharoitlariga, katta bo'lmagan nurash kesimi bilan bog'liq. Sistema ochiq intruziv yuqori darajali deformatsiyasi bilan, komponentlarning qisman yoyilishiga imkon beradi.

3. Ingichka volfram koni va ma'danli maydoni

Ingichka konining o'rganilish tarixi.

Ingichka koni Zirabuloq tog'ining janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Ma'muriy jihatdan Samarqand viloyati Nurobot tumaniga to'g'ri keladi. Relief 50 m gacha balandlikda bo'lgan tepaliklardan iborat. Kattaqo'rg'on temir yo'l stansiyasidan 28 km masofada joylashgan, ya'ni Ingichka GOK magistral yo'l bilan bog'langan.

Foydali qazilmalari. Minerologik

assotsiyasi bo'yicha uchta temperaturali fatsiyat ajratilgan: piroksen, amfibol va muskovit-rogovikli. So'ngi ikkisi granit massivining barcha qismi bo'yicha tarqalgan, lekin piroksen-rogovikli fatsiya faqat kon chegaralarini qamrab oladi. Intruzivning chuqurlikdagi yuzasi va morfologik shartlanganligi, qamrab olgan metamorfizmining gorizontalligini aks ettiradi. Piroksen-rogovikli fatsiyalar intruzivdan 50-100 m, amfibol-rogovikli – 450-500 m, muskovit-rogovikli fatsiya esa 1100 m dan ko'proq masofada tarqalgan.

Xulosa. O'zbekiston volfram mineralxom ashyo bazasini kengaytirish va joriy etishning asosiy muammolari:

1. Qizilqumda, birinchi navbatda, Turbay, Oltintov, Auminza-Beltau ma'danli maydonlarida, aposkarn-skarnoid tipidagi yangi obyektlarni maqsadli prognozlash va izlash;

2. Faol kon boyitish fabrikalarga ega ma'lum konlarning yon bag'irlari va pastki qavatlarini maksimal darajada realizatsiya qilish;

3. Muruntov karyeri va uning eng yaqin yo'ldoshlaridan, volfram qazib olishning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish;

4. O'zbekistonning kichik, lekin nisbatan boy ko'rinishlaridan (To'rangi, Xo'jadiq, Sargardon va boshqalar) metall qazib olishning maqsadga muvofiqligini geologik-iqtisodiy baholash;


5. Murakkab oltin-volfram obyektlarini aniqlash maqsadida, Sautbay va Saritau ma'dan konlari yonbag'irlarini qayta ko'rib chiqish va baholash ishlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shodiyev , A. ., Boymurodov , N. ., Xujaqulov , A. ., & Isroilov , S. . (2024). O'ZBEKISTON VOLFRAM KONLARI HAQIDA UMUMIY TAVSIFINI

- O'RGANISH. Наука и инновация, 2(1), 154–159. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/25843>
2. Пирматов, Э. А., Шодиев, А. Н. У., & Боймуродов, Н. А. (2023). ИЗУЧЕНИЕ РАСТВОРИМЫХ ФОРМ ВОЛЬФРАМА И УСЛОВИЙ КРИСТАЛЛИЗАЦИИ ШЕЕЛИТА И ВОЛЬФРАМИТА. *Universum: технические науки*, (11-2 (116)), 15-19.
 3. Shodiev, A., Boymurodov, N., & Ravshanov, A. (2023). STUDY OF THE TECHNOLOGY FOR EXTRACTING TUNGSTEN IN THE FORM OF A SEMI-FINISHED PRODUCT AND METALLIC FORM FROM INDUSTRIAL WASTE. *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности*, 1(2), 87-91.
 4. Шодиев, А., Боймуродов, Н., Хужакулов, А., Равшанов, А., & Нарзуллаев, М. (2024). ИССЛЕДОВАНИЕ И ОБОСНОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ПОЛУФАБРИКАТОВ И ВОЛЬФРАМА В МЕТАЛЛИЧЕСКОМ ВИДЕ ИЗ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТХОДОВ. *Молодые ученые*, 2(1), 107-112.
 5. Шодиев, А. Н. У., Туробов, Ш. Н., Саидахмедов, А. А., Хакимов, К. Ж., & Эшонкулов, У. Х. У. (2020). Исследование технологии извлечения редких и благородных металлов из сбросных растворов шламового поля. *Universum: технические науки*, (5-1 (74)), 37-40.
 6. Шодиев, А. Н. У., Хужакулов, А. М., Олимов, Ф. М. У., Ахмедова, Д. А., & Туробов, Ш. Н. (2020). Исследование возможности извлечения редких металлов из отходов металлургического производства Узбекистана. *Вестник науки и образования*, (13-1 (91)), 26-31.
 7. Duncan J.F., Kepert D.L. Polyanion equilibria in aqueous solution. Part. II. A thermodynamic study of the paratungstate anion. *Journ. Chem. Soc.*, 1962, № 1.
 8. Schwarzenbach G., Meier J. Formation and investigation of unstable protonation and deprotonation products of complexes in aqueous solution. – “*J. Inorg. Nucl. Chem.*”, 1958, v. 8, p. 302-312.
 9. Temirjon Otatso‘ziyev. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

УДК: 622.235 (043.3)

 10.5281/zenodo.10784767

ПРОГНОЗНАЯ ОЦЕНКА ИЗМЕНЕНИЯ ИНЖЕНЕРНО-ГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЯ МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАЛЬМАКЫР



**Хасанов Абдирашид
Салиевич**

*д-р техн. наук, профессор, зам.
глав. инженера по науке
АО «Алматыский ГМК»,
Алматы, Узбекистан*



**Каримов Ёқуб
Латипович**

*Доц. кафедры “Горное дело”,
Каршинский инженерно-
экономический институт,
Карши, Узбекистан
E-mail: karimov_6613@mail.ru*



**Латипов Зухриддин
Ёқуб угли**

*Доц. кафедры “Горное дело”,
Каршинский инженерно-
экономический институт,
Карши, Узбекистан
E-mail:
zuhriddin.latipov7@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6540-6672*



**Эгамбердиев Бахтиёр
Барат угли**

*Магистрант Каршинский
инженерно-экономический
институт, Карши, Узбекистан*

Аннотация. В статье рассмотрены основные сведения об объектах исследований в виде краткой горно-геологической характеристики месторождений, сделана классификация месторождений с учетом геологических комплексов горных пород по условию устойчивости, а также классификация горных пород по их прочности в бортах карьеров. Увеличение глубины и объемов ведения открытых горных работ, ухудшение геологических и горно-технических условий разработки месторождений определяют качественно новый подход к обеспечению устойчивости карьерных откосов. Для расчетов использовались имеющиеся показатели физико-механических свойств. Следует признать, что достоверные значения расчетных показателей физико-механических свойств пород четвертичных отложений возможно получить только обратными расчетами или полевыми методами.

Ключевые слова: горных пород, прочность, карьер, трещиноватость, устойчивость бортов, рудное поле, руда, угол внутреннего трения пород.

QALMOQIR KONI SHAROITIDA MUHANDISLIK-GEOLOGIK

O'ZGARISHINI PROGNOZLI BAHOLASH

**Hasanov Abdirashid
Saliyevich**

*“Olmaliq KMK” AJ bosh
muhandisining ilm-fan bo'yicha
o'rinbosari,
Olmaliq, O'zbekiston*

**Karimov Yoqub
Latipovich**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti, Konchilik ishi kafedrasini
dotsenti,
Qarshi, O'zbekiston*

**Latipov Zuhriddin Yoqub
o'g'li**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti, Konchilik ishi kafedrasini
dotsenti t.f.f.d. (PhD),
Qarshi, O'zbekiston*

**Egamberdiyev Baxtiyor
Barat o'g'li**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti magistranti,
Qarshi, O'zbekiston*

Аннотация. Мақоллада tadqiqot obyektlari to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar konlarning qisqacha kon-geologik xususiyatlari, konlarning tasnifi tog' jinslarining geologik komp-

lekslarini barqarorlik holatini hisobga olgan holda shuningdek, tog' jinslarini karyerlarning yon tomonlarida mustahkamligiga ko'ra tasnifi ko'rinishida ko'rib chiqilgan. Ochiq usulda qazib olish chuqurligi va hajmining ortishi, konlarni o'zlashtirishning geologik va kon-texnik sharoitlarining yomonlashuvi karyer yonbag'irlarining barqarorligini ta'minlashga sifat jihatidan yangicha yondashuvni belgilab beradi. Hisob-kitoblar uchun fizik va mexanik xususiyatlarning mavjud ko'rsatkichlari ishlatilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, to'rtlamchi jinslarning fizik-mexanik xususiyatlarining hisoblangan ko'rsatkichlarining ishonchli qiymatlarini faqat teskari hisob-kitoblar yoki dala usullari bilan olish mumkin.

Kalit so'zlar: tog' jinslari, mustahkamlik, karyer, darzdorlik, bort turg'unligi, ruda maydoni, ruda, jinslarning ichki ishqalanish burchagi.

FORECAST ASSESSMENT OF CHANGES IN ENGINEERING GEOLOGICAL CONDITIONS OF THE KALMAKYR MINING DEPOSIT

**Khasanov Abdirashid
Saliyevich**

Alternate of deputy chief engineer
in science of JSC "Almalyk MMC",
Almalyk, Uzbekistan

**Karimov Yoqub
Latipovich**

Associate Professor, Department of
Mining, Karshi Engineering-
Economics institute,
Karshi, Uzbekistan

**Latipov Zuhridin Yoqub
ugli**

Associate Professor, Department of
Mining, Karshi Engineering-
Economics institute,
Karshi, Uzbekistan

**Egamberdiyev Baxtiyor
Barat ugli**

Master's degree student, Karshi
Engineering-Economics institute,
Karshi, Uzbekistan

Abstract. The article discusses basic information about the objects of research in the form of a brief mining and geological characteristics of the deposits, a classification of deposits is made taking into account the geological complexes of rocks according to the condition of stability, as well as a classification of rocks according to their strength in the sides of quarries. The increase in the depth and volume of open-pit mining, and the deterioration of geological and mining-technical conditions of deposit development determine a qualitatively new approach to ensuring the stability of quarry slopes. For calculations, available indicators of physical and mechanical properties were used. It should be recognized that reliable values of the calculated indicators of the physical and mechanical properties of Quaternary rocks could only be obtained by reverse calculations or field methods.

Keywords: rocks, strength, quarry, fracturing, stability of sides, ore field, ore, angle of internal friction of rocks.

Введение. Рудное поле месторождения Кальмакыр сложено интрузивными и вулканогенными породами различного состава и возраста. Осадочные породы сохранились в виде останцев среди интрузивных пород. Прогноз изменения инженерно-геологических условий месторождения Кальмакыр в процессе отработки его флангов производится на

основании анализа геологического строения территории, опыта эксплуатации карьеров Кальмакыр, находящихся в аналогичных природных условиях, а также новых сведений о физико-механических свойствах горных пород горизонтах и флангах месторождения.

Прогнозируемыми элементами являются прочностные характеристики

пород, трещиноватость, устойчивость бортов и возможность проявления физико-геологических процессов при эксплуатации карьера.

Обсуждение и результаты. Прочность горных пород при прочих равных условиях зависит от их монолитности. С нарушением монолитности (появлением трещин) прочность пород неизменно снижается.

Трещиноватость – общее свойство твердых и полутвердых горных пород. Природа трещиноватости горных пород различна.

Трещиноватость горных пород на

месторождении изучалась в по обнажениям, размером 1×1 м². По результатам замеров составлены таблицы и графики, построены круговые диаграммы и розы трещиноватости, подсчитаны количественные показатели трещиноватости пород. Геометрические параметры трещин на площадках изменяются в пределах: ширина – от 2 до 5 мм, длина – от 51 до 100 см. Количество трещины варьирует от 1 до 9. Определение количественных показателей трещиноватости по площадкам коэффициент трещиной пустотности (КТП) – от 0,6 до 1,6% (табл. 1).

Таблица-1

sanoatiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Avvallari birlamchi metallurgiyada rudadan bevosita metall ajratib olingan bo'lsa, hozirga kelib kompleks qayta ishlash hamda mavjud yarim tayyor mahsulot va chiqindilardan qimmatbaho komponentlarni ajratib olishga urg'u berilmoqda [2].

Adabiy tahlili va metodlar. Tabiatda rux asosan sulfid holatida uchraydi, shunindek ruxning oksidlangan birikmalari ham mavjuddir. Ishlab chiqarishda keng miqdorda kompleks rux – qo'rg'oshin sulfidli polimetallik rudalar qo'llaniladi. Bu rudalarda asosiy metallardan tashqari mis, kadmiy, nodir va kamyob metallar mavjud. Hozirgi paytda qayta ishlaga jalb etiladigan rudalarning tarkibida ruxning miqdori 1,5 %, rux-qo'rg'oshin rudalarda 1,0 – 1,5% Zn va 0,4 -0,5% Pb mavjud. Bu rudalar qayta ishlashdan oldin boyitiladi. Asosiy boyitish usuli - selektiv flotasiyadir. Oldin rudadan

kollektiv rux-qo'rg'oshin boyitmasi olinadi, keyin u alohida rux va qo'rg'oshin boyitmalariga ajratiladi.

Boyitish natijasida ruxni boyitmaga o'tish darajasi 70-85% tashkil qiladi.

1000 °C da muvozanat konstantasi quyidagi ko'rsatgichga teng:

$$K_m = P_{Zn} * P_{H_2S} / P_{H_2} = 2,1 * 10^{-4} \quad (2)$$

Keltirilgan ko'rsatgichdan ko'rinib turibdiki, yuqori harorat va bosimda ham

1-jadval

Rux boyitmasini taxminiy tarkibi

T/r	Boyitma tarkibidagi metallar nomi	Tarkibiy miqdori (%)
1	Zn	40-60
2	Pb	0,2-3,5
3	Cu	0,15 - 2,3
4	Fe	2,5-13
5	S	30-35
6	Cd	0,1-0,5
7	As	0,03-0,3
8	Sb	0,01-0,07
9	In	0,001-0,07

Muhokama. Boyitmaning granulo-metrik tarkibi 30-35% (-75 mkm) dan 70-90% (-75mkm) gacha o'zgaradi [3].

Asosiy texnologik hususiyatlari. Rux (Zn) – zangori oq rangli metall, juda mo'rt, 100-150 °C qizdirilganda plastik holatga o'tadi, yengil jo'valanadi va cho'ziladi, zichligi 7,13 g/sm³, erish harorati 419,5 °C. Ochiq havoda tez oksidlanib, yuzasida parda hosil bo'ladi. Suvga bardoshligi yuqori, lekin xlorid, azot va sulfat kislotalarida yengil eriydi [1].

Ajratib olishning asosiy texnologiyalari. Sulfidli rux xom ashyosini bevosita erkin holatigacha tiklash mumkin. Masalan:



Ammo, kuchli hisoblanuvchi H₂ va SO₂ tiklovchi moddalarni qo'llashning samaradorligi ancha pastdir, chunki reaksiya uchun

tiklangan mahsulotlarning chiqishi judayam kam ko'rsatgichga ega. Amaliyotda sulfidlarni oldindan oksidlantirish afzaldir.

Sanoatda ZnS ni ZnO gacha oksidlanishi pirometallurgik usul bilan amalga oshiriladi. ZnO ni tiklanishi esa pirometallurgik yoki gidrometallurgik usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ohirgi usul bo'yicha ZnO sulfat kislotasida tanlab eritiladi va so'ngra eritmadan elektroliz yordamida erkin metall olinadi.

Ruxni sulfid boyitmasidan ajratib olinishi ZnS, ZnO va Zn larning xususiyatlariga bog'liqdir. Ruxni oksid va sulfidi yuqori haroratda eriydi. Masalan, ZnS atmosfera bosimida 1200 °C dan ziyod haroratda bug'lanadi va 2000 °C gacha erimaydi. ZnO esa 1975 °C da suyuq holatiga o'tadi. Shuning uchun ZnS ni ZnO ga oksidlanishini yuqori haroratlarda katta


tezlik bilan amalga oshiriladi. Rux sulfidini oksidlanishi ekzotermik jarayondir va ung qo‘shimcha yoqilg‘i sarflanmaydi.[4]

Ruxni oksiddan tiklash uchun ko‘p energiya sarflanadi. Shuning uchun pirometallurgik tiklanish yuqori harorat va tiklovchi moddaning miqdorligida olib boriladi. Elektrolitik tiklanish ham elektr quvvatini katta hajmda sarflanishi bilan bog‘liqdir. Metallik rux oson suyuq holatga o‘tadi – erish harorati 419 °C, 907 °C esa bug‘ holatiga o‘tadi, shuning uchun pirometallurgik tiklanishda rux bug‘ ko‘rinishida ajralib chiqadi [5].

Pirometallurgik usulda yakunlovchi mahsulot bo‘lib g‘ovak kuydirma (kuyindi) olinadi. Kuydirish davrida modda oltingugurtni yo‘qotib, keyin qotishma shaklga o‘tadi. Qotishma olish uchun harorat 1300-1400 °C gacha ko‘tarilishi kerak. Buni aglomeratsiya jarayonida amalga oshiriladi. Aglomerat keyinchalik qattiq uglerod yordamida tiklanadi.

Gidrometallurgik usul bo‘yicha kuydirishni 900-1000 °C da kuyindi-kukun olishga qaratiladi. Olingan kukun sulfat kislotasida eritiladi. Eritmadan rux elektroliz bilan erkin holatida ajratib olinadi, sulfat kislotasi esa regeneratsiya bo‘lib qaytadan tanlab eritishga yuboriladi.

Rux boyitmasini yuqori haroratda oksidlantirish, hozirgi payitda, asosiy texnologik usuldir. Rux sulfidini eritmadagi kislorod bilan ham oksidlantirsa bo‘lar ekan:



Jarayon avtoklavda 100 °C dan ziyod va umumiy bosim 105 Pa dan yuqori sharoitlarda olib boriladi. Sanoatda bunday texnologiyani qo‘llash qiyindir. Texnologik sxemalarni tahlili shuni ko‘rsatib turibdiki, jarayon bir necha bosqichdan iboratdir. Amaliyotda esa, sxemalar ancha murakkabroqdir. Bunga ikkita sabab bor:

1) xom ashyoda mavjud bo‘lgan bir qator ruxga yo‘ldosh elementlarni ajratib



1-rasm. Rux metallining ko‘rinishi

olish kerakligi;

2) xom ashyoni qayta ishlash uchun tayyorlash jarayonlarini tashkil etish [3].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda birinchi bo‘lib rux metallini eramizdan avvalgi 1000-yillar oldin Hindiston davlatidan topilgan bo‘lib hozirgi kunda uning zahirasi taxminan 210 million/tonnani tashkil qiladi. Hozirgi kunda Dunyo miqyosida taxminan 20% pirometallurgik va 80% rux gidrometallurgik usullar bilan olinadi.

Bundan tashqari Dunyo bo‘yicha rux ishlab chiqarish 2022-yilda 13.5 mln/t tashkil etdi, 2023 yilda esa 3.8 %ga oshdi va 13.863 mln/tonnani tashkil qildi. Bu bilan ruxga bo‘lgan talab yildan-yilga oshayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Respublikamzida yagona rux ishlab chiqarish zavodi bu Olmaliq Kon metallur-

giya kombinatiga qarashli rux ishlab chiqarish korxonasidir. Bu korxonada yiliga 80 ming tonnadan 130 ming tonnagacha rux ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan.

Dunyo bo‘yicha esa ruxning eng katta konlari Avstraliya, Eron, Boliviya va Qozog‘iston hududlarida aniqlangan. Hozirgi kunga kelib Rux ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy birinchi o‘rinni egallab kelmoqda 2023-yilda qariyb 4 million/tonna. Shunga ko‘ra, Xitoy asosiy rux bo‘yicha dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi, ishlab chiqarish ko‘rsatkichining taxminan 28.8% qismi Xitoy ulushiga to‘g‘ri keladi. Undan tashqari, Avstraliya, Peru, Hindiston, AQSH, Meksika, Boliviya, Qozog‘iston, Rossiya va Janubiy afrika davlatlari ham bu borada yetakchilardan hisoblanadi [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Yusupxodjaev S.Xudoyarov, “Metallurgiyada ishlab chiqarish texnologiyasi” Toshkent “Turon iqbol” 2007.
2. Юсупходжаев А.А., Хожиев Ш.Т., Мирзажоннова С.Б. Анализ состояния системы в металлургии. – Т.: LAP LAMBERT Academic Publishing. – 2020. – 189 с.
3. Xoliqulov D.B., Xaydaraliev X.R., Qarshiyev H.K. “Olmaliq kmk” AJ rux ishlab chiqarish zavodi sharoitida rux keklarini gidrometallurgik qayta ishlash imkoniyatlarini tahlil qilish . Journal of Advances in Engineering Technology Vol.2(2) 2020.
4. Abdurahmonov S., Turapova M.S., Abdukurimova N. Rux ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash tadqiqotining tahlili. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.
5. Toshqodirova Rano Erkinjonovna, Rux ishlab chiqarish texnologiyasi chiqindisi - klinkerni qayta ishlash. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences ISSN: 2181-144X.

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI
ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

UO'K: 54.056/547.269.71

 10.5281/zenodo.10683837

TABIY GAZLARNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASHNING
TEKNOLOGIK JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA
REJALASHTIRISH MATRITSASINING XUSUSIYATLARI



Yuldashev Tashmurza Raxmonovich

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” kafedrası professorı, t.f.n., Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy gazni qayta ishlashga tayyorlash, nordon komponentlardan tozalash, uglevodorod gazlarini ajratishdagi yangi texnologiyalar, tabiiy gazni tayyorlashda qo'llaniladigan yangi absorbentlarning kompozitsiyalarini olish va ularning selektivligini tadqiq qilish, gazni har xil aralashmalardan tozalashda qo'llaniladigan texnologiyalar, soha bo'yicha xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: komponentlar, absorbentlar, nordon komponentlar, absorbentlarning kompozitsiyalari, selektivlik, texnologiyalar, aminlar, efirlar, polietilenglikol, dimetil, monometil efirlari.

ХАРАКТЕРИСТИКИ МАТРИЦЫ ДЛЯ МОДЕЛИРОВАНИЯ И
ПЛАНИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ОЧИСТКИ
ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ ОТ ПИТАТЕЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ

Юлдашев Ташмурза Рахманович

Профессор кафедры технологии переработки нефти и газа Каршинского инженерно-экономического института, Карши, Узбекистан

Аннотация. В данной статье изучены сведения о подготовке природного газа к переработке, очистка от сернистых компонентов, новые технологии разделения углеводородных газов, получение составов новых поглотителей, применяемых при подготовке природного газа и исследование их селективности, технологии, применяемые при очистке углеводородных газов от различных примесей, а также реализуемых технологиях в зарубежных странах.

Ключевые слова: компоненты, абсорбенты, кислые компоненты, композиции абсорбентов, селективность, технологии, амины, эфиры, полиэтиленгликоль, диметил, монометилловые эфиры.

CHARACTERISTICS OF THE MATRIX FOR MODELING AND PLANNING TECHNOLOGICAL PROCESSES OF CLEANING NATURAL GASES FROM NOURISH COMPONENTS

Yuldashev Tashmurza

Профессор кафедры технологии переработки нефти и газа Каршинского инженерно-экономического института, Карши, Узбекистан

Abstract. *In this article studied information about the preparation of natural gas for processing, purification from sulfur components, new technologies for the separation of hydrocarbon gases, obtaining the compositions of new absorbers used in the preparation of natural gas and the study of their selectivity, technologies used in the purification of hydrocarbon gases from various impurities, and also implemented technologies in foreign countries.*

Keywords: *components, absorbents, acidic components, absorbent compositions, selectivity, technologies, amines, ethers, polyethylene glycol, dimethyl, monomethyl ethers.*

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda neftgaz sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichlarini amalga oshirish, xomashyolarni chuqur qayta ishlash asosida ilg'or texnologiyalarni qo'llashni, ularni kompleks rivojlantirish, alternativ energiya manbalarini o'zlashtirish hamda ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish va jahon bozori talablari asosida eksport mahsulotlarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Olingan ma'lumotlar aniq masalalardan kelib chiqqan holda yutuvchi eritmaning tarkibidagi MDEA/DEA ning zaruriy nisbatlarni o'rnatish imkoniyatini beradi. Bu bilan bir qatorda H₂S bilan CO₂ ni to'liq olib chiqish talab qilinganda unda, MDEA/DEA larning mol nisbatlari bir-lamchi gazdagi H₂S/CO₂ larning mol nisbatlariga nisbatan taxminan ikki marta kam bo'ladi [1-5].

Tabiiy gaz yengil uglevodorodlarning

va nouglevodorodlarning ya'ni, oltingugurt, merkaptinlar, uglerod oksidlari, azot, geliylarning murakkab aralashmasidan tashkil topadi. Xomashyoda bu komponentlarning nisbati keng chegarada o'zgaradi va gazni qayta ishlash zavodlarining oqimini tanlash sxemalariga hamda olinadigan tovarlarning turiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda aralash absorbent (MDEA+DEA) gazni tozalash qurilmalarining hammasida oltingugurti tozalashda qo'llaniladi. Aralashmada DEAning optimal tarkibi aminning 40% li massa bo'yicha umumiy konsentratsiyasining 30% ga yaqinni tashkil qiladi. Aminlarni eritmadagi umumiy konsentratsiyasi 50% gacha oshirilganda tozalash sifatini yomonlashtirmasdan absorbentni sirkulyatsiyasi karraigini qisqartirish va shu bilan birgalikda jarayonning iqtisodiy ko'rsatgichlarini yaxshilash imkoniyatini beradi [].

Sanoat qurilmalarida gazlarni nordon

gazlardan tozalashda absorbent sifatida asosan monoetanolamin (MEA) hamda dietanolamin (DEA) qo'llanilgan. Dunyo amaliyotida olib borilgan ishlarning tahlilini qaraydigan bo'lsak MDEni undan ham samaraliroq bo'lgan absorbent + metil-dietanolaminga (MDEA) almashtirishni samarali ekanligini ko'rsatadi [6, 7, 8].

MDEA (uchlamchi amin) birlamchi MEA (birlamchi) amin bilan taqqoslanishi bo'yicha kichik korroziya faolligiga ega ya'ni, MDEA ((30-50%)) MEA (12-18%) blan taqqoslanishi bo'yicha ko'proq konsentratsiyalangan eritmalarni qo'llash imkoniyatini beradi. Sanoat sharoitiga yaqin bo'lgan olib borilgan korroziya tadqiqotlari MDEA eritmalarini korroziya faolligini past ekanligini tasdiqlagan [6, 7, 8, 10].

Bizning ilmiy tadqiqotimiz mahalliy xomashyo tabiiy gazlarini sifatini yuqoridagi tovar gazlariga qo'yilgan talablarga yetkazishga qaratilgan. Bunda ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi gaz tarkibidagi

nordon komponentlarni, ya'ni vodorod sulfid va uglerod dioksididan tozalashga qaratilgan bo'lib, buning uchun absorbsiya jarayonida yangi avlod absorbentlarini ishlab chiqish va uni amaliyotgan joriy etish maqsad qilib belgilangan.

Gazlarni tozalashda absorbent kompozitsiyalarini olish uchun aminlar sifatida MEA va DEA, efirlar sifatida esa polietilenglikolning dimetil va monometil efirlari qo'llanildi. Tadqiqotlarimizning ilk bosqichida amin va efirlarning turli konsentratsiyalardagi suvli eritmalari olindi va ushbu olingan absorbent kompozitsiyalarining tarkibi 1-jadvalda keltirilgan [9,10,11] absorbent kompozitsiyalari tabiiy gazlarni nordon komponentlardan absorption tozalashdagi faolligini va selektivligini aniqlashda tabiiy gaz sifatida "Muborak gazni qayta ishlash zavodi"da qayta ishlanayotgan tabiiy gazdan foydalanildi [12-18].

MEA+DEA+PEGDME+PEGMME

asosida olingan absorbent kompozitsiya-

1-jadval

Tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash uchun amin va efirlar asosida olingan absorbent kompozitsiyalarining tarkibi

№	Nomlanishi	Tarkibi, %				
<i>MEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan absorbent kompozitsiyalari tarkibi</i>						
№	Nomlanishi	MEA	PEGDME	PEGMME	Suv	
1	MPP	20	5	5	70	
<i>DEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan absorbent kompozitsiyalari tarkibi</i>						
№	Nomlanishi	DEA	PEGDME	PEGMME	Suv	
1	DPP	20	5	5	70	
<i>MEA+DEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan absorbent kompozitsiyalari tarkibi</i>						
№	Nomlanishi	MEA	DEA	PEGDME	PEGMME	Suv
1	MDPP	15	15	3	3	64

(MEA – monoetanolamin; DEA – dietanolamin; MDEA – metildietanolamin; PEGDME – polietilenglikol dimetil efiri; PEGMME – polietilenglikol monometil efiri.)

larining gazlarni nordon komponentlar CO₂ va H₂S dan tozalash jarayonidagi faolligi va selektivligi bo'yicha tadqiqatlar olib borilgan.

Yana alohida bir ko'rsatkichga e'tibor qilinganki, absorbentning yo'qotilishi, DEA eritmasida 2550,0 kg/yilni tashkil etgan bo'lsa, MDPP-5 absorbent kompozitsiyada ushbu yo'qotilish 1500,0 kg/yilgacha kamaygan bo'lib, buni MDPP-5 absorbent kompozitsiyasining kimyoviy va termik barqarorligi DEAgaga nisbatan yuqoriligi bilan tushuntirish mumkin. Shuning uchun MDPP-5 absorbent kompozitsiyasini ko'rsatkichlarini modellashtirish ishlari olib borilgan.

Eksperimentni rejalashtirish usuli.

Texnologik jarayonlarni modellashtirishda fizik-kimyoviy qonuniyatlarni va model-larning muvofiqligini tekshirish uchun eksperimental ma'lumotlarni bilish kerak.

Bunda empirik modellar eksperimental-statistik usullar yordamida ishlab chiqiladi va obyektga sodir bo'ladigan jarayonlar bilan tizimning kirish parametrlarining o'zgarishiga ta'sirining bog'liqligi o'rganiladi.

Bunday holatda obyektning matematik tavsifi statistik tekshirish natijasida olingan empirik bog'liqliklar tizimi xamda, obyektning kirish va chiqish parametrlari o'rtasidagi korrelyatsiya yoki regressiya munosabatlari ko'rinishiga ega bo'ladi.

Agar modellashtirilayotgan obyekt yetarli darajada o'rganilmagan bo'lsa va determinlashgan modelni tuzish imkoniyati bo'lmasa, unda jarayonning matematik modeli eksperimental statik modellashtirish usuli bilan tuziladi. Bunda statistik material aktiv yoki passiv eksperiment qo'yish usuli bilan to'planadi.

Shunday qilib, tajriba natijalarini qayta

ishlashda regression va korrelyatsion tahlil qilish usullarini qo'llab, jarayonning matematik modelini olish mumkin [19]:

$$y = f(x_1, x_2, x_3, \dots, x_k) \quad (1)$$

bu yerda, $x_1, x_2, x_3, \dots, x_k$ – faktorlar (texnologik parametrlar) tajriba natijasida olingan.

Regressiya tenglamasining umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$y = b_0 + \sum b_i x_i + \sum b_{ij} x_i x_j + \sum b_{ij} x_i^2 + \dots + \dots \quad (2)$$

bu yerda, b_0 – erkin had

b_i – chiziqli effekt koeffitsiyenti

b_{ij} – o'zaro ta'sir koeffitsiyenti.

Identifikatsiya bu o'tkazilayotgan tajriba ma'lumotlaridan foydalanib, jarayonning matematik modelini tuzish tushiniladi.

Boshqarish tizimini modellashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Tajribaviy-statik usul

Analitik usul

Tajribaviy-analitik usul

Modellashtirilayotgan obyekt to'liq o'rganilmagan bo'lsa va determinlashgan modelni tuzish imkoniyati mavjud bo'lmasa, u xolda jarayonning modelini eksperimental statik modellashtirish usuli bilan tuziladi [20].

Tajribaviy – analitik usulni ikki turi bo'lib, aktiv va passiv tajriba usulidir. Passiv tajribada tajriba ma'lumotlari texnologik jarayonlaridan. Laboratoriya analizlaridan, avtomatlashtirish ko'rsatkichi va hakoza-lardan olinadi.


Aktiv eksperiment - oldindan tuzilgan dastur yordamida ishlab turgan qurilmada o'tkaziladi. Qurilmada ishlab chiqarish jarayoni ketayotgani uchun, chiqish qiymati

2-jadval

Rejalashtirishning tavsiflari

Omillarning nomlanishi	O'lchov biriligi	Belgilanishi	Faktorlar darajasi		
			+1	-1	0
Gaz va amining harorati, T	°C	x_1	60	30	45
Bosim, R	MPa	x_2	5	3	4
MDPP-5 ning sarfi, G	m ³ /soat	x_3	220	180	200

Ko'rilayotgan obyekt uchun jarayonning kirish va chiqish parametrlari aniqlandi. Har bir faktorning o'zgarish oralig'ini qiymati, birinchi navbatda,



1-rasm. Faol tajribaga asoslangan statistik modellar

Ko'rilayotgan jarayon uchun rejalashtirish matritsasini tuzamiz. Rejalashtirish matritsasiidagi tajribalar soni $N = 2^3 = 8$ ga teng.

3-jadval

Rejalashtirish matritsasi

№	x_1	x_2	x_3	Y
1	30	3	180	Y_1
2	60	3	180	Y_2
3	30	5	180	Y_3
4	60	5	180	Y_4
5	30	3	220	Y_5
6	60	3	220	Y_6
7	30	5	220	Y_7
8	60	5	220	Y_8

Bu tabiiy masshtabli rejalashtirish matritsasi.

tilgan qiymatdan 25% ortiq bo'lishi mumkin. Shu qiymat kattaligidan kelib chiqib boshqa kirish qiymatlarini o'zgarish chegarasini aniqlaymiz.

Rejalashtirish matritsasi eksperimentni ma'lum bir reja bo'yicha o'tkazish, har bir eksperimentda chiqish parametrining qiymatlarini aniqlash va eksperimental ma'lumotlar asosida statistik modelni qurish uchun tuzilgan [21].

Eksperimentni rejalashtirishda matematik model quyidagi ko'rinishda olinadi:

$$\hat{y} = b_0 + b_1x_1 + b_2x_2 + b_3x_3 + \dots + b_nx_n. \quad (3)$$

O'zgaruvchilarni kodlash

Hisob-kitoblarning qulayligi uchun biz tabiiy koordinatalardan (tabiiy o'lchov birliklari) o'lchamsizlarga o'tamiz. O'tish (yoki kodlash) formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$X_i = \frac{x_i - x_i^0}{\Delta x_i} \quad (4)$$

bu erda x_i – tabiiy o'zgaruvchining qiymatlari (yuqori yoki pastki daraja);

x_i^0 – natural o'zgaruvchining asosiy darajasi;

Δx_i – tabiiy o'zgaruvchanlik oralig'i;

X_i – i -chi omilning kodlangan qiymati (yuqori yoki pastki darajada).

Natural o'zgaruvchilardan kodlangan o'zgaruvchilarga o'tamiz:

Harorat uchun:

$$X_i = \frac{x_i - x_i^0}{\Delta x_i},$$

x_0 – ko'phadning erkin hadini hisoblash uchun zarur bo'lgan o'zgaruvchi (+1).

Rejalashtirish matritsasining xususiyatlari. O'lchovsiz birliklarda rejalashtirish matritsasi quyidagi optimal xususiyatlarga ega:

ortogonallik: matritsaning har qanday

ikkita ustunining skalyar mahsuloti nolga teng:

$$\sum_{i=1}^N x_{ui}x_{ji} = 0; u \neq j; u, i = 1, \dots, n; \quad (5)$$

simmetriya: matritsaning barcha ustunlari elementlarining yig'indisi, birinчисidan tashqari, nolga teng:

$$\sum_{i=1}^N x_{ui}x_{ji} = 0; u = 1, \dots, n; \quad (6)$$

normallashtirish: har bir ustun elementlarining kvadratlari yig'indisi tajribalar soniga teng

$$\sum_{i=1}^N x_{ui}^2 = N; u = 1, \dots, n; \quad (7)$$

Yuqorida sanab o'tilgan barcha xususiyatlar, xususan, ortogonallik va asoslanib, regressiya koeffitsientlarini hisoblash juda soddalashtirilgan.

Eng kichik kvadratlar regressiya tenglamasining koeffitsientlari quyidagicha aniqlanadi:

$$B = \begin{bmatrix} b_0 \\ b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{bmatrix} = (X^T X)^{-1} X^T Y$$

Mos momentlar matritsasi quyidagicha ifodalanadi:

$$(X^T X) = \begin{bmatrix} \sum_{i=1}^8 x_{0i}^2 & \sum_{i=1}^8 x_{0i}x_{1i} & \sum_{i=1}^8 x_{0i}x_{2i} & \sum_{i=1}^8 x_{0i}x_{3i} \\ \sum_{i=1}^8 x_{1i}x_{1i} & \sum_{i=1}^8 x_{1i}^2 & \sum_{i=1}^8 x_{1i}x_{2i} & \sum_{i=1}^8 x_{1i}x_{3i} \\ \sum_{i=1}^8 x_{2i}x_{0i} & \sum_{i=1}^8 x_{2i}x_{1i} & \sum_{i=1}^8 x_{2i}^2 & \sum_{i=1}^8 x_{2i}x_{3i} \\ \sum_{i=1}^8 x_{3i}x_{0i} & \sum_{i=1}^8 x_{3i}x_{1i} & \sum_{i=1}^8 x_{3i}x_{2i} & \sum_{i=1}^8 x_{3i}^2 \end{bmatrix}$$

5-ifodani hisobga olib quyidagini hosil qilamiz:

$$(X^T X) = \begin{pmatrix} 8 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 8 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 8 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 8 \end{pmatrix}$$

$(X^T X)^{-1}$ teskari momentlar matritsasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$(X^T X)^{-1} = \begin{pmatrix} 1/8 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1/8 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1/8 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1/8 \end{pmatrix}$$

$$(X^T X) = \begin{bmatrix} \sum_{i=8}^N x_{0i} y_i \\ \sum_{i=8}^N x_{1i} y_i \\ \sum_{i=8}^N x_{3i} y_i \\ \sum_{i=8}^N x_{3i} y_i \end{bmatrix}$$

Shunday qilib,

$$B = \begin{pmatrix} b_0 \\ b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1/8 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1/8 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1/8 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1/8 \end{pmatrix} \times \begin{bmatrix} \sum_{i=8}^N x_{0i} y_i \\ \sum_{i=8}^N x_{1i} y_i \\ \sum_{i=8}^N x_{3i} y_i \\ \sum_{i=8}^N x_{3i} y_i \end{bmatrix}$$

ga teng bo'ladi.

Shuning uchun b_j regressiya tenglamasining har qanday koeffitsiyenti y ustuni va mos x_j ustunining skalyar mahsuloti bilan aniqlanib, N rejalashtirish matritsasiidagi tajribalar soniga bo'linadi:

$$b_j = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N x_{ji} y_i$$

2-jalvaldagi rejalashtirishdan foydalanib, dastlab chiziqli regressiya tenglamalari koeffitsiyentini hisoblaymiz

$$\hat{y} = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 x_3 \quad (8)$$

x_1 da b_1 koeffitsiyentini hisoblash uchun ko'paytmalarni yig'indisini hisoblash zarur:

$$b_0 = \begin{bmatrix} x_0 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i = 2,351$$

$$b_0 = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = 0,294$$

$$b_1 = \begin{bmatrix} x_1 \\ -1 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} -0,5 \\ 0,38 \\ -0,2 \\ 0,68 \\ -0,001 \\ 0,09 \\ -0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = 0,149$$

$$b_1 = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = 0,019$$

$$b_2 = \begin{bmatrix} x_2 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \\ +1 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} -0,5 \\ -0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ -0,001 \\ -0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = 0,41$$

$$b_2 = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = 0,05;$$

$$b_3 = \begin{bmatrix} x_3 \\ -1 \\ -1 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} -0,5 \\ -0,38 \\ -0,2 \\ -0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = -1,169$$

$$b_3 = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = -0,146$$

$$\hat{y} = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 x_3 + b_{12} x_1 x_2 + b_{13} x_1 x_3 + b_{23} x_2 x_3 + b_{123} x_1 x_2 x_3 \quad (9)$$

Agar o'zaro ta'sir koeffitsientlarini hisobga olgan holda to'liqroq regressiya tenglamasini kiritsak, b_{12}, b_{13}, b_{23} (juftlik o'zaro ta'sir effekti) va b_{123} (uchlik o'zaro ta'sir effekti) koeffitsientlarini aniqlash uchun matritsani kengaytirish kerak va u quyidagicha bayon qilinadi (4-jadval):

O'zaro ta'sirlar chiziqli effektlarga o'xshash tarzda aniqlanadi. Shunday qilib,

b_{12} koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagilar zarur:

$$b_{12} = \begin{bmatrix} x_1 x_2 \\ +1 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \\ +1 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 0,5 \\ -0,38 \\ -0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ -0,09 \\ -0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = 0,211$$

$$b_{12} = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = -0,026$$

$$b_{13} = \begin{bmatrix} x_1 x_3 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 0,5 \\ -0,38 \\ 0,2 \\ -0,68 \\ -0,001 \\ 0,09 \\ -0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = -0,571$$

4-jadval

Tajriba raqami	x_0	x_1	x_2	x_3	$x_1 \cdot x_2$	$x_1 \cdot x_3$	$x_2 \cdot x_3$	$x_1 \cdot x_2 \cdot x_3$	y
1	+1	-1	-1	-1	+1	+1	+1	-1	0,5
2	+1	+1	-1	-1	-1	-1	+1	+1	0,38
3	+1	-1	+1	-1	-1	+1	-1	+1	0,2
4	+1	+1	+1	-1	+1	-1	-1	-1	0,68
5	+1	-1	-1	+1	+1	-1	-1	+1	0,001
6	+1	+1	-1	+1	-1	+1	-1	-1	0,09
7	+1	-1	+1	+1	-1	-1	+1	-1	0,4
8	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	0,1

$$b_{13} = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = -0,071$$

$$b_{23} = \frac{\begin{bmatrix} x_2, x_3 \\ +1 \\ +1 \\ -1 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}}{\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = 0,409} = \begin{bmatrix} 0,5 \\ 0,38 \\ -0,2 \\ -0,68 \\ -0,001 \\ -0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$b_{23} = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = 0,05$$

$$b_{123} = \frac{\begin{bmatrix} x_1, x_2, x_3 \\ -1 \\ +1 \\ +1 \\ -1 \\ +1 \\ -1 \\ -1 \\ +1 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} y \\ 0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ 0,68 \\ 0,001 \\ 0,09 \\ 0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}}{\sum_{i=1}^8 x_{1i} y_i = -0,989} = \begin{bmatrix} -0,5 \\ 0,38 \\ 0,2 \\ -0,68 \\ 0,001 \\ -0,09 \\ -0,4 \\ 0,1 \end{bmatrix}$$

$$b_{123} = \frac{\sum_{i=1}^8 x_{0i} y_i}{8} = -0,124$$

Agar qo‘shimcha ravishda parallel tajribalar qo‘ysak, biz s_{ocn}^2 ni aniqlaymiz, regressiya koeffitsientlarining ahamiyatini va erkinlik darajalari mavjud bo‘lganda, tenglamaning adekvatligini tekshirishimiz mumkin.

Rejalashtirilgan tajriba uchun kovariatsiya matritsasi

$$(X^T X)^{-1} = \begin{bmatrix} 1/N & 0 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & 1/N & 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 1/N \end{bmatrix} \quad (10)$$

diagonal matritsa bo‘lganligi sababli regressiya tenglamasining koeffitsientlari bir-biri bilan korrelyatsiya qilinmaydi. Regressiya tenglamasi koeffitsientlarining ahamiyatini har bir koeffitsient uchun alohida-alohida Student kriteriyasi yordamida tekshirish mumkin [22]. Regressiya tenglamasidan (2) ahamiyatsiz koeffitsiyentni chiqarib tashlash qolgan koeffitsiyentlarga ta’sir qilmaydi. Kovariatsiya matritsasining diagonal elementlari bir-biriga teng, shuning uchun (1) va (2) tenglamalarning barcha koeffitsientlari bir xil aniqlik bilan aniqlanadi:

$$s_{b_j} = s_{\text{BOCH}} / \sqrt{N} \quad (11)$$

rejaning o‘rtasiga uchta qo‘shimcha parallel tajriba qo‘yildi va quyidagi y qiymatlari olindi:

$$y_1^0 = 0,002; \quad y_2^0 = 0,045; \quad y_3^0 = 0,06;$$

$$\bar{y}^0 = \frac{\sum_{u=1}^3 y_u^0}{3} = 0,036;$$

$$s_{\text{BOCH}}^2 = \frac{\sum_{u=1}^3 (y_u^0 - \bar{y}^0)^2}{2} = 0,001;$$

$$s_{\text{BOCH}}^0 = 0,032;$$

$$s_{b_j} = \frac{0,1}{\sqrt{8}} = 0,011;$$

koeffitsientlarning ahamiyatini student mezoniga ko‘ra baholaymiz:

$$t_0 = \frac{|b_0|}{s_{b_0}} = \frac{0,294}{0,011} = 26,72;$$

$$t_1 = \frac{|b_1|}{s_{b_1}} = \frac{0,019}{0,011} = 1,73;$$

$$t_2 = \frac{|b_2|}{s_{b_2}} = \frac{0,05}{0,011} = 4,54;$$

$$t_3 = \frac{|b_3|}{s_{b_3}} = \frac{0,146}{0,011} = 13,27;$$

$$t_{12} = \frac{|b_{12}|}{s_{b_{12}}} = \frac{0,026}{0,011} = 2,36;$$

$$t_{13} = \frac{|b_{13}|}{s_{b_{13}}} = \frac{0,071}{0,011} = 6,45;$$

$$t_{23} = \frac{|b_{23}|}{s_{b_{23}}} = \frac{0,05}{0,011} = 4,54;$$

$$t_{123} = \frac{|b_{123}|}{s_{b_{123}}} = \frac{0,0124}{0,011} = 0,11;$$

Muhimlik darajasi uchun student kriteriyasining jadval qiymati $p = 0,1$ va erkinlik darajasi soni $f=1$, $t_p(f)=6,31$. Shunday qilib, b_1 , b_2 , b_{12} , b_{23} va b_{123} koeffitsientlari ahamiyatsiz va ularni tenglamadan olib tashlaymiz. Tenglamadan chiqarib tashlangan ahamiyatsiz koeffitsientlarni olib tashlagandan so‘ng, regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\hat{y} = 26,72 + 13,27x_3 + 6,45x_1x_3$$

Olingan tenglamaning mosligini Fisher mezoni bo‘yicha tekshiramiz:

$$F = \frac{S_{\text{ост}}^2}{S_{\text{восп}}^2};$$

$$S_{\text{ост}}^2 = \frac{\sum_{i=1}^8 (y_i - \hat{y}_i)^2}{N - l} = \frac{0,2}{5} = 0,04;$$

$$S_{\text{восп}}^2 = 0,01;$$

l - regressiya tenglamasidagi muhim koeffitsientlar soni, 3 ga teng. Unda

$$F = 0,04/0,01 = 4; p = 0,9, f_1 =$$

$$5, f_2 = 2, F_{1-p}(f_1, f_2) = 19,3, F <$$

$F_{1-p}(f_1, f_2)$ uchun Fisher mezonining jadvali qiymati. Bundan ko‘rinib turibdiki hosil bo‘lgan tenglama adekvatdir.

Tadqiq etilayotgan texnologik jarayonni modellashtirish va optimallashtirish uchun eksperimentni rejalashtirish usuli ishlatildi.

Xulosa. 1. Tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbsiya kompozitsiyalari yordamida tozalash jarayonning optimallashtirish masalasi shakllantirildi va optimallik mezoni tanlandi.

2. Tajriba qurilmasida o‘tkazilgan eksperimentlar natijalarini “tajribalarni rejalashtirish” usulida qayta ishlash natijasida tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbsiya kompozitsiyalari yordamida tozalash jarayonning ulushini ifodalovchi regressiya tenglamalari olindi.

3. Tajribaviy tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbsiya kompozitsiyalari yordamida tozalash jarayonini eksperimental-statistik usulda modellashtirish va optimallashtirish masalasi ko‘rildi va jarayonning optimal qiymatlari topildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Молчанов С.А., Шкоряпкин А.И. Новые адсорбенты для осушки и очистки природного газа // Газовая промышленность. - 2002.- №6.
2. Нестеров И.Д., Чуракова С.К., Богатых К.Ф. Увеличение выработки пропан-бутановой фракции на Оренбургском ГПЗ за счет замены клапанных тарелок на перекрестноточную насадку в колоннах 374С02 и 374С03 установки 2У-370 // Баш. хим. ж.- 2009.- Т.16, №3.- С.67-70.
3. Нестеров И.Д., Богатых К.Ф., Завалишин С.А. Анализ работы насадочного абсорбера аминовой очистки газа от сероводорода и углекислого газа // Матер. Междунар. научно-практ. конф. «Нефтегазопереработка-2007».- Уфа: ГУП

- ИНХП РБ, 2007.- С.145-147.
4. Yuldashev, T. R., Samiyev, M. E., & Nurboyev, M. C. Neft gazlaridan suyultirilgan uglevodorodlarni ishlab chiqarishni tadqiqotlash. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash sharoitida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi sh.-2015 y, 116-118.
 5. Maxmudov, N. N., & Yuldashev, T. R. Neft va gaz qazib olish texnologiyasi va texnikasi. Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015, 392.
 6. Yuldashev, T. R., & Makhmudov M, J. (2023). Cleaning of Natural from Sobe Component. Journal of Siberian Federal University. Engineeng & Technologies, 16(3), 296-306.
 7. Makhmudov, M. J., & Yuldashev, T. R. (2023). Cleaning of Industrial Emissions from Gas and Dispersive Particles.
 8. Юлдашев, Т. Р. (2023). ОЧИСТКА ГАЗА ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ И ПУТИ ЕЕ РЕШЕНИЯ. In Научно-технический прогресс. Задачи и их решения (pp. 150-155).
 9. Юлдашев, Т. Р. (2023). ОСНОВА ОБОРУДОВАНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМОГО В ПРОЦЕССЕ ОЧИСТКИ ГАЗОАБСОРБЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ. Universum: технические науки, (5-6 (110)), 20-24.
 10. Юлдашев, Т. Р. (2023). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ АМИННОЙ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ И ПУТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ. Universum: технические науки, (4-6 (109)), 24-27.
 11. Yuldashev, T. R. (2023). TABIIY GAZLARNI VODOROD SULFID VA UGLEROD OKSIDLARIDAN TOZALASHDA QO 'LLANILADIGAN ABSORBENTLAR. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 92-99.
 12. Yuldashev, T. R. (2023). TABIIY GAZNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASHDA SELEKTIVLIGI YUQORI BO 'LGAN AMINLI ERITMALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 86-92.
 13. Makhmudov, M. J., & Yuldashev, T. R. (2023). Cleaning of Natural Gases from Sour Components.
 14. Юлдашев, Т. Р. (2022). АБСОРБЕНТЫ ДЛЯ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ ОТ H₂S И CO₂. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(10), 72-74.
 15. Юлдашев, Т. Р., & Адизов, Б. З. ЭФФЕКТИВНЫЕ АСПЕКТЫ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ООО «МУБАРЕКСКОГО ГАЗОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕГО ЗАВОДА». ҚарДУ ХАБ, 76.
 16. Rakhmanovich, Y. T., Egamberdiyevich, A. P., & Raimovich, K. I. DISPOSAL OF FLARE ASSOCIATED GASES IN OIL AND GAS FIELDS.
 17. Rakhmanovich, Y. T., Egamberdiyevich, A. P., & Raimovich, K. I. CONDUCTING RESEARCH ON PRODUCTION OF LIQUEFIED HYDROCARBONS FROM

PETROLEUM GASES.

18. Rakhmanovich, Y. T., Egamberdiyevich, A. P., & Raimovich, K. I. CONDUCTING RESEARCH ON PRODUCTION OF LIQUEFIED HYDROCARBONS FROM PETROLEUM GASES.
19. Бояринов А.И, Кафаров В.В. Методы оптимизации в химической технологии. Изд. второе, перераб. и доп. - М.: Химия, 1975. - 576 с.
20. Юсуфбеков Н.Р., Мухаммедов Б.Э., Фуломов Ш.М. Технологик жараёнларни бошқариш системалари: техника ОЎЮ учун дарслик. - Тошкент: Ўқитувчи, 1997. - 704 б.
21. Остапчук Н.В. Основы математического моделирования процессов пищевых производств: Учебное пособие. - 2-е изд., перераб. и доп. - К.: Выща школа, 1991. - 367 с.
22. Юсупбеков Н.Р., Мухитдинов Д.П. Технологик жараёнларни моделлаштириш ва оптималлаштириш асослари. - Т.: Фан ва технология, 2015. - 440 б.

UO‘K: 54.056/547.269.71

 10.5281/zenodo.10687038

TABIYIYGAZLARNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASHNING TEKNOLOGIK JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH JARAYONI



Yuldashev Tashmurza Raxmonovich

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” kafedrasi professori, t.f.n., Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash uchun yangi MEA – monoetanolin; DEA – dietanolin; MDEA – metildietanolin; PEGDME – polietilenglikol dimetil efiri; PEGMME – polietilenglikol monometil efirlari asosida tayyorlangan absorbent kompozitsiyalarini tadqiqotlash natijalari keltirilgan va bu absorbent kompozitsiyasining tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalashdagi optimallashtirish masalasi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: komponentlar, absorbentlar, nordon komponentlar, absorbentlarning kompozitsiyalari, optimallashtirish, aniqlash protsedurasi, matematik modellar, optimallik mezonlari, optimal chegaralar, model koeffitsiyentlari.

ПРОЦЕСС ОПТИМИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ

Юлдашев Ташмурза Рахманович

Профессор кафедры технологии переработки нефти и газа Каршинского инженерно-экономического института, Карши, Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлен новый МЭА для очистки природного газа от кислых компонентов - моноэтаноламина; ДЭА – диэтаноллин; МДЭА – метилдиэтаноллин; ПЭГДМЭ – диметилловый эфир полиэтиленгликоля; Приведены результаты исследования абсорбирующих композиций, приготовленных на основе ПЭГММЕ - монометилловых эфиров полиэтиленгликоля, и определен вопрос оптимизации данной абсорбирующей композиции при очистке природного газа от кислых компонентов.

Ключевые слова: компоненты, абсорбенты, кислотные компоненты, составы абсорбентов, оптимизация, процедура определения, математические модели, критерий оптимальности, оптимальные пределы, коэффициенты модели.

PROCESS OF OPTIMIZATION OF TECHNOLOGICAL PROCESSES FOR PURIFYING NATURAL GASES FROM ACIDIC COMPONENTS

Yuldashev Tashmurza

Профессор кафедры технологии переработки нефти и газа Каршинского инженерно-экономического института, Карши, Узбекистан

Abstract. This article presents a new MEA for purifying natural gas from acidic components - monoethanolamine; DEA – diethanolamine; MDEA – methyldiethanolamine; PEGDME – polyethylene glycol dimethyl ether; The results of a study of absorbent compositions prepared on the basis of PEGMME - polyethylene glycol monomethyl ethers are presented, and the issue of optimizing this absorbent composition when purifying natural gas from acidic components is determined.

Keywords: components, absorbents, acidic components, absorbent compositions, selectivity, technologies, amines, ethers, polyethylene glycol, dimethyl, monomethyl ethers.

Kirish. Dunyo amaliyotida gazlarni nordon komponentlardan tozalashda (H_2S va CO_2 , etilenmerkaptan (RSH), uglerod oltinugurt oksidi (COS), uglerod sulfidi (CS_2)) absorbentlar sifatida eng ko'p qo'llaniladigan etanolaminlar quyidagilardir: monoetanolamin (MEA), dietanolamin (DEA) va N-metildietanolamin (MDEA).

Bunda CO_2 neftning tarkibida katta konsentratsiyada bo'lganda tartibga muvofiq MEA faqatgina neftni qayta ishlash zavodlarida (NQIZ) qo'llaniladi. Gazning tarkibida COS va CS_2 larning mavjudligini chegaralanishi hisoblanadi, qaysiki, u MEA bilan qaytmas reaksiyaga kirishadi va eritmani katta yo'qotilishga olib keladi. Gazni CO_2 dan tozalashda MEA amalda korroziyani keltirib chiqarishi mumkin. MEA uchun xos bo'lgan ko'pgina kamchiliklarning hisobiga hozirgi vaqtda yangi obyektlarni loyihalashda amaliyotda bu amin qo'llanilmaydi, ko'pgina harakatdagi qurilmalar MDEA ga o'tkazilmoqda.

Bu yuqorida keltirilgan aminlar qandaydir xossalari muvofiq tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash darajasini qoniqtirmaganligi sababli, yangi turdagi aminlar va efirlar asosidagi absorbent kompozitsiyalarini tadqiqotlash zaruriy

holat hisoblanadi.

Adabiyot tahlili va usullari.

MEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan absorbent kompozitsiyalarining gazlarni nordon komponentlar CO_2 va H_2S dan tozalash jarayonidagi faolligi va selektivligini tadqiq qilish natijasida quyidagilar olindi [1-4].

Ilmiy tadqiqotlarmizning birinchi bosqichida gazlarni nordon komponentlar CO_2 va H_2S dan tozalash jarayonidagi faolligi va selektivligi aniqlandi. Absorbsion tozalash qurilmasining texnologik ko'rsatkichlari quyidagicha: absorberga kiruvchi gaz bosimi – 3-5 MPa; absorberga kiruvchi gaz harorati – 55°C; absorberga kiruvchi regeneratsiyalangan MDEA harorati – 60°C. Gaz tarkibida CO_2 – 3,25% va H_2S – 0,81%. Tadqiqotimizda gazlarni nordon komponentlardan tozalash uchun MEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan MPP-1, MPP-2, MPP-3, MPP-4, MPP-5 va MPP-6 absorbent kompozitsiyalari qo'llanildi.

DEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan absorbent kompozitsiyalarining gazlarni nordon komponentlar CO_2 va H_2S dan tozalash jarayonidagi faolligi va selektivligini tadqiq qilish natijalari quyidagilar [5-9].

Gazlarni nordon komponentlardan tozalash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning keyingi bosqichida DEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan DPP-1, DPP-2, DPP-3, DPP-4, DPP-5 va DPP-6 kabi absorbent kompozitsiyalarining tabiiy gaz tarkibidan nordon komponentlarni tanlab yutishdagi faolligi va selektivligi tadqiq etildi. Ushbu absorbent kompozitsiyalarining gazlarni nordon komponentlardan tozalashdagi absorpsiya jarayoni ish rejimi quyidagicha: Bosim 3-5 MPa; absorberga kiruvchi gaz harorati – 55-30°C; absorberga kiruvchi absorbent harorati – 60-35°C.ni tashkil qilgan. [10 - 12].

MEA+DEA+PEGDME+PEGMME asosida olingan absorbent kompozitsiyalarining gazlarni nordon komponentlar CO₂ va H₂S dan tozalash jarayonidagi faolligi va selektivligini tadqiq qilish natijalari quyidagilar [13].

Tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida gazlarni nordon komponentlardan tozalash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning keyingi bosqichida MEA+DEA + PEGDME+PEGMME asosida olingan MDPP-1, MDPP-2, MDPP-3, MDPP-4 va MDPP-5 kabi absorbent kompozitsiyalarining tabiiy gaz tarkibidan nordon komponentlarni tanlab yutishdagi faolligi va selektivligi tadqiq etildi. Bunday turdagi absorbent kompozitsiyalarida olishda MEA va DEA aminlarning PEGDME va PEGMME efirlari bilan sinergetik effekt ta'sirini o'rganish maqsad qilindi. MDPP-1, MDPP-2, MDPP-3, MDPP-4 va MDPP-5 kabi absorbent kompozitsiyalarining tabiiy gaz tarkibidan nordon komponentlarni tanlab yutishdagi faolligi va selektivligi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan [14, 15].

(MEA – monoetanolamin; DEA – dieta-nolamin; MDEA – metildietanolamin; PEGDME – polietilenglikol dimetil efiri; PEGMME – poli-etilenglikol monometil efiri).

Optimallashtirish masalasining qo'yilishi. Optimallashtirish - bu texnologik jarayonni amalga oshirishning eng maqbul, ya'ni optimal sharoitlarini aniqlash protsedurasidir. Optimallashtirish ko'p o'zgaruvchili funksiyalar ekstremumlarini qidirishning matematik masalasi kabi qaraladi [16, 17, 18].

Optimallashtirilayotgan \bar{u} o'zgaruvchini (optimallashtirish resursini) ruxsat etilgan chegaralarda (sohada) $\bar{u}^{pyx.эм}$ optimallik mezoni R ekstremumini (eng katta yoki eng kichik qiymatini) ta'minlovchi qiymatini topish jarayonida optimallashtirish masalasi quyidagi ko'rinishga keltirilishi mumkin [19].

$$opt R(\bar{y})$$

$$\bar{u} \in \bar{u}^{pyx}$$

Ushbu holatda modellashtirilayotgan obyekt holatini aniqlovchi kirish o'zgaruvchisi \bar{x} ikki guruhdagi o'zgaruvchilarga ajratiladi: \bar{u} - nazorat qilinishi va rostlanishi mumkin bo'lgan, ya'ni optimallashtiriladigan o'zgaruvchi va \bar{x} - nazorat qilinadigan, ammo rostlanmaydigan (optimallashtirish resurslari kabi) o'zgaruvchi.

Amaliyotda optimallashtirish masalalarini yechishda chiqish o'zgaruvchilari tajriba ma'lumotlari (masalan, optimallashtirishning tajribaviy-statistika usulida) yoki jarayonlarning matematik modellari (optimallashtirishning sonli usulida) yordamida aniqlanadi.

Bu paytda matematik modellar quyidagi funksional operator ko'rinishida ifoda-

lanishi mumkin [20]:

$$\bar{y} = F(\bar{u}, \bar{x}). \quad (1)$$

Optimallik mezoni - texnologik jarayon yoki uni amalga oshiruvchi qurilmaning optimallashtirilayotgan sifatini miqdoriy jihatdan baholovchi ko'rsatkich (tavsif) hisoblanadi. Optimallik mezoni yagona bo'lishi va optimallashtirilayotgan o'zgaruvchilarga bog'liq holda monoton o'zgarishi ham kerak.

Optimallik mezoni qiymati jarayonning matematik modelini (optimallashtirishning taqribiy usuli) tadqiq etish asosida aniqlanadi. Agar jarayonning monand matematik modelini qurishning iloji bo'lmasa, u holda chiqish o'zgaruvchisining tenglamadagi qiymati tajribalardan aniqlanadi (optimallashtirishning tajribaviy-statistik usuli). Bunday holatda faol tajriba o'tkazishning optimal strategiyasi amalga oshiriladi.

Optimallik mezonini tanlash. Tabiiy

gazlarni nordon gazlardan tozalash jarayonini optimallashtirish masalasini yechishda texnologik parametrlarning ratsional chegaralarini yoki qurilmaning berilgan ish unumdorligini ta'minlovchi minimal issiqlik uzatish yuzasini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Optimallashtirish masalasini qo'yilishi. Optimallashtiriladigan o'zgaruvchilar jarayonning kirish o'zgaruvchilari qatoridan olinadi. Optimal loyihalash masalasini hal etishda optimallashtirilayotgan o'zgaruvchilar qatoriga jarayonning konstruktiv parametrlari (konstruksiya tipi, o'lchamlari va h.) kiritilgan bo'ladi, aksincha holatlarda, optimal boshqaruv masalasi hal etiladi. Optimallashtiriladigan (boshqariluvchi) o'zgaruvchilarning U optimal qiymatlarini qidirishdan ko'zlangan asosiy maqsad jarayonni amalga oshirishning eng yaxshi rejim parametrlarini aniqlashdir.

1- jadval

Eksperimentlar jadvali

Model: $\hat{y} = 26,72 + 13,27x_3 + 6,45x_1x_3$								
Nomlanishi		Faktorlar			Natijalar			
		Gaz va aminning harorati, °C	Bosim, MPa	MDPP-5 ning sarfi, m ³ /soat	Chiqish parametri			
Boshlang'ich nuqta		45	4	200				
Ishchi qadam		1	0,05	0,5				
Qadam nomeri	Eksperiment turi				Model bo'yicha	Eksperimentlar		O'rtacha -si
					\bar{y}	y_2	y_1	y
1	M	45	4	200	0,25			
2	M	44,00	3,95	199,50	0,65			
3	M	43,00	3,90	199,00	0,82			
4	P	42,00	3,85	198,50		0,540	0,780	0,66
5	M	41,00	3,80	198,00				

6	P	40,00	3,75	197,50		0,77	0,81	0,79
7	M	39,00	3,70	197,00				
8	P	38,00	3,65	196,50		0,6	0,6	0,6
9	M	37,00	3,60	196,00				
10	P	36,00	3,55	195,50		0,5	0,5	0,5
11	P	35,00	3,50	195,00		0,26	0,54	0,38
12	P	34,00	3,45	194,50		0,3	0,1	0,2
13	P	33,00	3,40	194,00		0,42	0,94	0,68
14	P	32,00	3,35	193,50		0,001	0,001	0,001
15	P	31,00	3,30	193,00		0,07	0,11	0,09
16	P	30,00	3,25	192,50		0,6	0,2	0,4
17	P	29,00	3,20	192,00		0,15	0,05	0,1
18	P	28,00	3,15	191,50		0,4	0,2	0,3

Izoh: M - modeldagi eksperimentlar; P - hisoblash eksperimenti.

Tabiiy gazlarni nordon gazlardan tozalash jarayonini optimal chegaralarini Boks-Uilson usulidan foydalanib aniqlash. Boks-Uilson usuli asosan ekstremumni (optimumni) qidirishning gradiyent usuliga asoslangan. Shuning uchun, dastlabki modelning chiziqli qismi koeffitsiyentlarini baholash asosida gradiyentning tarkibiy qismlari va yoʻnalishini baholash kerak. Oʻrganilayotgan obyektidagi real sharoitda tadqiqotchi fizik kattaliklarda oʻlchanadigan kirish oʻzgaruvchilari bilan shugʻullanganligi sababli, gradiyentning tar-

kibiy qismlarini baholashda har bir omil uchun oʻzgarish oraligʻining qiymatini hisobga olish kerak (1- jadval).

Mazkur usul optimumni ikki bosqichda qidirish imkonini beradi:

– optimum sohasida qadamma-qadam tik koʻtarilish. Bu paytda optimumga funksiya gradiyenti boʻyicha yaqinlashib borish maqsadida chiqish parametrini tezkor koʻtarilish (yoki kamayish) yoʻnalishida bir yoki bir necha seriyada eksperimentlar qoʻyiladi;

2- jadval

Model koeffitsiyentlarini baholash jadvali

Baholash koeffitsiyenti	Baholash qiymati	<i>t</i> -statistika qiymati	t_{kr}	Farazni tekshirish natijasi
\bar{b}_0	0,0011	6,334502127	2,31	1
\bar{b}_1	0,0211	0,451510274	2,31	0
\bar{b}_2	0,0486	1,039275128	2,31	0
\bar{b}_3	-0,1486	3,176601868	2,31	1
\bar{b}_{12}	0,0239	0,510286759	2,31	0
\bar{b}_{13}	-0,0739	1,57895013	2,31	0
\bar{b}_{23}	0,0536	1,146141465	2,31	0

– bevosita optimum soxasida izlanishlar olib borish. Bunda eksperimentlar o'tkazishning 2 - tartibli rejasi qo'yiladi.

Optimallik mezonining faktorlardan bog'liqligi 1-darajali ko'phad

$$y = b_0 + b_1x_1 + b_2x_2 + \dots + b_nx_n \quad (2)$$

orqali ifodalanadi.

Eksperimentning maqsadi - Boks-Uilson usulida amalga oshiriladigan protsedura uchun gradiyentning yangi yo'nalishini aniqlash. Bu protseduraning ikkinchi siklik mazmunini tashkil qiladi.

Yuqoridagilarga o'xshab, faktorlarning har biri uchun o'zgarishlar oraliqlarini tahlilimiz va eksperiment davomida faktorlar qiymatlari jadvalini to'ldiramiz. So'ngra, eksperiment rejasini tuzamiz, uni amalga oshiramiz va olingan natijalarni tajribani amalga oshirish jadvaliga (2-jadval) joylashedir.

Xulosa. 1. Regressiya koeffitsiyentlarining o'rtacha kvadratik chetlashuvi 0,0467 ga, qolgan koeffitsiyentlar soni esa 3 ga teng. Farazni tekshirish natijasiga ko'ra

$y=0,0011$.

2. Tajriba natijalari tadqiqot markazi sohasida hususiy ekstremum-ning mos koordinatalari faqat b_0 koeffitsiyenti ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi, uning baholash qiymati $b_0 = 0,0011$.

3. Bundan shunday xulosa qilish mumkin, tabiiy gazni absorbsiya kompozitsiyalari yordamida tozalangan massaning qiymati 0,0011 ga teng bo'lishi aniqlandi.

4. Tajribaviy tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbsiya kompozitsiyalari yordamida tozalash jarayonini eksperimental-statistik usulda modellashtirish va optimallashtirish masalasi ko'rildi va jarayonning optimal qiymatlari topildi. Regressiya tenglamalari bo'yicha MatLAB dasturida jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillar - quritish harorati, amplituda, chastota o'rtasidagi bog'liqlik grafigi qurildi.

5. Tadqiqot natijalariga asosan tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbsiya kompozitsiyalari yordamida tozalash jarayonning optimal qiymati aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev, T. R., Samiyev, M. E., & Nurboyev, M. C. Neft gazlaridan suyultirilgan uglevodorodlarni ishlab chiqarishni tadqiqotlash. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash sharoitida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi sh.-2015 y, 116-118.
2. Maxmudov, N. N., & Yuldashev, T. R. Neft va gaz qazib olish texnologiyasi va texnikasi. Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015, 392.
3. Yuldashev, T. R., & Makhmudov M, J. (2023). Cleaning of Natural from Sobe Component. Journal of Siberian Federal University. Engineeng & Technologies, 16(3), 296-306.
4. Makhmudov, M. J., & Yuldashev, T. R. (2023). Cleaning of Industrial Emissions from Gas and Dispersive Particles.
5. Юлдашев, Т. Р. (2023). ОЧИСТКА ГАЗА ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ И ПУТИ ЕЕ РЕШЕНИЯ. In Научно-технический прогресс. Задачи и их решения (pp. 150-155).

6. Юлдашев, Т. Р. (2023). ОСНОВА ОБОРУДОВАНИЯ, ИСПОЛЪЗУЕМОГО В ПРОЦЕССЕ ОЧИСТКИ ГАЗОАБСОРБЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Universum: технические науки*, (5-6 (110)), 20-24.
7. Юлдашев, Т. Р. (2023). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ АМИННОЙ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ И ПУТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ. *Universum: технические науки*, (4-6 (109)), 24-27.
8. Yuldashev, T. R. (2023). TABIIY GAZLARNI VODOROD SULFID VA UGLEROD OKSIDLARIDAN TOZALASHDA QO 'LLANILADIGAN ABSORBENTLAR. *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Cифровые технологии в промышленности*, 1(1), 92-99.
9. Yuldashev, T. R. (2023). TABIIY GAZNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASHDA SELEKTIVLIGI YUQORI BO 'LGAN AMINLI ERITMALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Cифровые технологии в промышленности*, 1(1), 86-92.
10. Makhmudov, M. J., & Yuldashev, T. R. (2023). Cleaning of Natural Gases from Sour Components.
11. Юлдашев, Т. Р. (2022). АБСОРБЕНТЫ ДЛЯ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ ОТ H₂S И CO₂. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(10), 72-74.
12. Юлдашев, Т. Р. (2022). ОПТИМИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИИ ГЛУБОКОЙ ОЧИСТКИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(18), 62-64.
Tajriba sinovlari gravimetrik usulda pH 2 dan 11 gacha bo'lgan muhitda, 40°C haroratda olib borildi. Metallar korrozias



3.9-rasm *N,N'*-geksameten bis-[(2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina]
a) 3D fazoviy strukturasi; b) elektron bulutlarning taqsimlanishi; c) molekulalarda elektron zichligi taqsimoti

3-jadval

Metallar korroziya darajasi ingibitor konsentratsiyasini taqqoslash jadvali

№	Ingibitor nomi va mass. ulushi %	pH muhit							
		2		5		9		11	
		KT g/m ² s	HD %	KT g/m ² s	HD %	KT g/m ² s	HD %	KT g/m ² s	HD %
1	Namuna metall (ingibitorsiz)	1.8	-	1.8	-	1.89	-	1.09	-
2	XJK-2 (0,02%)	0.84	56.2	0.48	62.6	0.72	47.5	0.77	44.6
3	XJK-2 (0,05%)	0.56	77.4	0.36	79.3	0.43	79.8	0.45	76.3
4	XJK-2 (0,1%)	0.42	83.5	0.38	86.4	0.35	87.6	0.44	84.9
6	“Kvatramin-1001”	0.62	82.8	0.55	85.2	0.51	87.4	0.52	86.7

tezligini kamaytiruvchi ingibitor sifatida o‘rganilib, tadqiqot tajribalari o‘tkazildi.

St.3 markali po‘latga sintez qilingan ingibitorlarning ta’siri turli pH muhitlarida, preparatning har xil kontentratsiyalarida 24 soat vaqt mobaynida amalga oshirildi. Sinovlar natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan N,N¹-geksametilen bis-[2,2¹-amino-azotoluolil)-mochevina] preparatlari ishtirokidagi pH muhitni 2 dan 11 gacha ortishi bilan, kislotali va ishqoriy muhitda metallar korroziya darajasi ingibitor konsentratsiyasining ortishi korroziya tezligini kamaytirdi va himoya darajasini oshirdi.

Ushbu sinov tajriba ishlari “Sho‘rtan neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi” markaziy laboratoriyasi sharoitida amalga

oshirildi. Sinov natijalari asosida o‘rganilgan preparatlardan XJK-2 (N,N¹-geksametilen bis-[2,2¹-amino-azotoluolil)-mochevina]) nisbatan effektiv ingibitor ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalari orasidan metallarning korroziyalanishiga qarshi samarali ingibitorlik xossalari o‘rganildi (I moddaning 0,1% eritmasi pH 2 muhitida KT-0,33 g/m²s gacha kamaytirdi, HD-85,7% gacha oshirdi, muhit pH=11 bo‘lganda turli konsentratsiyalarda korroziya tezliklari 0,74-0,41 g/m²s ga kamaytirdi, himoyalani darajalarini oshirdi) va import qilinib olinayotgan ingibitor o‘rnini bosa olishi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Махсумов Абдулхамид Гафурович, Хайитов Жонибек Курбанович СИНТЕЗЫ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ БИС-АРОМАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВОДНЫХ МОЧЕВИНЫ // Universum: технические науки. 2022. №1-3

- (94). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sintezy-biologicheskaya-aktivnost-bis-aromaticeskikh-proizvodnyh-mocheviny> (дата обращения: 28.02.2024).
2. A.G.Mahsumov, J.Q.Xaitov, & X.I.Неъматов. (2022). YANGI N2N3-GEKSAMETILIN BIS-[(4-AMINO-AZO-BENZOL)-MOCHEVINANI SINTEZ QILIB OLIH VA XOSSALARINI O'RGANISH. Journal of Integrated Education and Research, 1(5), 376–383. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/515>
 3. Хаитов Жонибек Курбанович, Махсумов Абдухамид Гафурович, Абсалямова Гулноза Маматкуловна, Исмаилов Бобурбек Махмуджанович СИНТЕЗ N,N1-ГЕКСАМЕТИЛЕН-БИС-[(1,11-АМИНОНАФТАЛИН)-МОЧЕВИНА] И ЕГО СВОЙСТВА // Universum: химия и биология. 2023. №5-3 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sintez-n-n1-geksametilen-bis-1-11-aminonaftalin-mochevina-i-ego-svoystva> (дата обращения: 28.02.2024).
 4. Egamnazarova, F. D. (2023). METALLARNI KORROZIYADAN HIMOYA QILISH: ZAMONAVIY QOPLAMA TEXNOLOGIYALARI. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 430-434.
 5. Rizayev, S. A. (2022). POLIMER SORBENTLAR YORDAMIDA ERITMALARDAN ORGANIK REAGENTLARNI AJRATIB OLIH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 978-983.
 6. Raxmatov, E.A., Abdullayev, A. A., & Rizayev, S. A. (2022). AGRESSIV MUHITGA CHIDAMLI POLIFUNKSIONAL ORGANOMINERAL QOPLAMALAR XOSSALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 239-245.

UO‘K: 553.411(575.1)

 10.5281/zenodo.10816453

CHAKILKALYAN TOG‘LARIDAGI AKATA MAYDONIDA APOKARBONAT OLTIN MA‘DANLASHUVINING JOYLASHISH SHAROITLARI



Ochilov Iles Saidovich

Dotsent v.b.(PhD), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: ilyos_ochilov@mail.ru



Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Dotsent v.b., Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi,
O‘zbekiston
E-mail: quvonch_uz2@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-7477-6440

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida foydali qazilmalarning kompleks konlarini topishga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, terrigen-karbonat formatsiyalardagi oltin ma‘danli konlarni aniqlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tadqiqot va yuqori aniqlikka ega tahliliy usullardan foydalanib olib borilgan geologik-mineralogik tadqiqotlar mazkur karbonat formatsiyalardagi oltin ma‘danlarini aniqlash usullarini va bashoratlash-izlash kompleksini ilmiy asoslashga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: oltin, ma‘dan, karbonat, polixron, granitoid, intruziya, lamprofir, dayka, argillizit, jasperoid.

УСЛОВИЯ РАЗМЕЩЕНИЯ АПОКАРБОНАТНОГО ЗОЛОТОГО ОРУДЕНЕНИЯ НА РАЙОНЕ АКАТА В ГОРАХ ЧАКИЛКАЛЯН

Очиллов Илес Саидович

и.о. доцент, (PhD), Каршинский инженерно-экономический
институт, Кариши, Узбекистан

Усмонов Кувончбек Маннонович

и.о. доцент, Каршинский инженерно-экономический
институт, Кариши, Узбекистан

Аннотация. Настоящей время в развитых странах мира проводится множество научных исследований, направленных на выявление комплексных месторождений полезных ископаемых, в частности, большое внимание уделяется выявлению золоторудных месторождений в терригенно-карбонатных формациях. Геолого-минералогические исследования, проводимые с использованием современных исследовательских и аналитических методов с высокой точностью, позволяют научно обосновать методы выявления и прогнозно-поискового комплекса золотого оруденения в этих карбонатных формациях.

Ключевые слова: золото, руда, карбонат, полихрон, гранитоид, интрузия, лампрофир, дайка, аргиллит, жаспероид.

CONDITIONS OF LOCATION OF APOCARBONATE GOLD MINERALIZATION OF THE AKATA AREA IN THE CHAKILKALYAN MOUNTAINS

Ochilov Iles Saidovich

*a.a. professor, (PhD), Karshi Engineering-Economics Institute,
Karshi, Uzbekiston*

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

*a.a. professor, Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi,
Uzbekiston*

Abstract. Today, in the developed countries of the world, many scientific researches aimed at finding complex mineral deposits are being carried out, including, great attention is paid to the identification of gold ore deposits in terrigenous-carbonate formations. Geological and mineralogical studies carried out using modern research and high-precision analytical methods make it possible to scientifically substantiate the methods of determining gold deposits in these carbonate formations and the prediction-search complex.

Keywords: gold, ore, carbonate, polychron, granitoid, intrusion, lamprophyre, dyke, argillite, jasperoid.

Kirish. Jahon amaliyotida so‘ngi yillarda yangi oltin konlarini bashoratlash, izlash va geologik-qidiruv ishlarini amalga oshirish maqsadida alohida maydonlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda keyingi yillarda geologiya sohasidagi ishlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, sohani isloh qilish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Chakilkalyan tog‘lari hududida karbonat komplekslarda yangi konlarni aniqlashga erishildi.

Adabiyot tahlili va metodlar. Qoratepa-Chakilkalyan tog‘lari hududida yetakchi geolog-olimlar O.G.Terletskiy, A.R.Zaxidov, N.I.Djantuganov, A.A.Gafurbekov, M.A.Mirusmanov, A.A.Abduraxmanov, T.Z.Zakirov, G.N.Korobeynikov, K.A.Axunova, Z.A.Yudalevich, F.K.Divayev, B.Skorobogatov, M. Guzanov, N. Kochetkov, Y.V. Finkelshteyn, A.A.Abduraxmanov, A.Dautov, M.N.Jo‘rayev, B.A.Axmadjanov va boshqalar tomonidan geologik qidiruv


tadqiqot ishlari olib borilgan, oltin va volfram ma‘danlashuvi shakllanishining litologik-srukturaviy sharoitlari, ma‘danlashuvning magmatik hosilalar bilan aloqasi, ma‘dan hosil qiluvchi manbalar, qamrab olgan muhit va metasomatik o‘zgarishlar bilan bog‘liq muammolarning turli aspektlari o‘rganilgan.

Akata maydonida oltin ma‘dan minerallashuvining yuzaga kelishi va apokarbonat oltin ma‘danlashuvining umumiy xarakteristikalarini quyidagilar bilan belgilanadi. 1) ma‘danlar kesimning karbonat sekiyalariga bog‘liqligi; 2) polixron magmatizmning maydoniga nisbatan chekkada joylashish vaziyati hamda kichik granitoid intruziyalar va lamprofirlar va nordon bazaltoidlarning daykalari to‘plami bilan fazoviy ajralganligi; 3) ma‘danlashishni uzilmali tuzilmalar bilan nazorat qilinishi; 4) ma‘danlashishning argillizitlar va jasperoidlar zonalariga bog‘liqligi yaqqol ifodalangan, ma‘dandan oldingi metasomatizning past haroratli xarakteri; 5) kinovar, endogen gematit va antimonitning chega-

ralangan miqdori saqlangan holda, margimushli pirit va sulfosollarning o'zgaruvchan miqdorini o'z ichiga olgan, ma'danlarning bir turli moddiy tarkibi; 6) oltin ma'dan minerallashuvining kremnezemning amorf turlari va turlicha generatsiyalangan kalsit bilan chambarchas bog'liqligi;

- Hg, As, Sb, Ag va Pb, kam miqdorda Cu, Zn, P va Mn larni o'z ichiga olgan, ma'danlashishning element-indikatorlarini tipomorf to'plami.

Chakilkalyan tog'larining apokarbonat oltin ma'danlashuvi uning turli qismlarida 4 ta asosiy turga ajratish imkonini beradigan ma'lum bir xususiyatlari bilan xarakter-



Shartli belgilar:

1. To'rtlamchi davr yotqiziq-lari.
2. Ohaktoshlar.
3. Ma'dan tanalari.
4. Gilli slanetslar, alevrolitlar.
5. Qumtoshlar.
6. Tektonik buzilishlar:
 - a) aniqlangan,
 - b) taxmin qilingan.

1-rasm. Akata maydonining geologik kesimi sxemasi.

lanadi: akata (Au-sulfid-argillizit kvarssiz) – akba (Au-sulfid-jasperoidli) – kavsagar (Au-sulfosol-jasperoidli) – karasu (Au-sulfid-argillizit embrional-jasperoidli).

Natijalar. O‘zbekiston hududida apokarbonat oltin ma‘danlashuvining sanoat ahamiyatidagi konlarini aniqlashda uzoq janubiy-sharqiy qismi Chakilkalyan tog‘lari hisoblanadigan Avg‘on-Tojik kontinentining karbonat shelfi zonasi yuqori istiqbolli aniqlangan.

Chakilkalyan tog‘lari uchun karbonat jinslarda yangi konlarni aniqlashga uning janubiy-sharqiy va shimoliy-g‘arbiy qismlaridagi maydonlar nisbatan istiqbolli hisoblanishi, kinovar minerallashish tarqalgan maydonlarning margumushli pirit mikroelementlari bilan boyigan kam oltinli zonalar va tipomorf elementlar kompleksining geokimyoviy doirasiga fazoviy yaqinligi bilan xarakterlanishi, potensialistiqbolli maydonlar ma‘danli maydonlar darajasiga mos kelishi aniqlangan.

Uchastkada asosiy dizyunktiv tuzilma ohaktoshlarni kesib o‘tadigan, qalinligi 200-220 m shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishdagi tik yotgan yorilish zonasi hisoblanadi. Zona subparallel uzilmali buzilishlar seriyasini o‘zida namoyon qiladi, ular yer yorig‘ining ham ichki qismida, ham tashqi qismida turli yo‘nalishdagi darzliklarga ega (1-rasm). Yer yorig‘ining yotishi shimoliy-sharqiy 75-85° burchak ostida. Yer yorig‘ining kuzatilgan uzunligi 2 km.

Asosiy yorilish zonasida uni tashkil etuvchi uzilmali buzilishlar qo‘ng‘ir rangli temirlashgan kataklazit bilan to‘lgan. Kataklazit ishqalanib kukun holiga kelgan ohaktoshni o‘zida namoyon qiladi atrofidagi ohaktosh bo‘laklari, gohida – kremniyli jinslar, tomirli kalsit va oltinli karbonat brekchiyalar bilan. Djindidaryo daryosi

havzasida oltin ma‘danlashuvini o‘z ichiga olgan yotqiziqlar, maydonda yuzaga kelgan uzilmali buzilishlarning diogonal va ortogonal zonalar bilan kesib o‘tilgan, yirik sharyajli-usturilma qoldiqlarining kengcho‘zilgan yo‘lini hosil qiladi. Tektonik qoplamaning qoldiqlarini tashkil etgan karbonat (va qisman kremniyini rivojlanishi) jinslar simmetrik va assimetrik anti- va sinshaklli burmalarga egilgan, ularning o‘qi asosan kenglik yo‘nalishida cho‘zilgan. Sinshaklli tektonik plastinlarda o‘rta-yuqori paleozoy karbonat kesimining maksimal qalinligi saqlanadi. Shunday sinshaklli tektonik plastinlarning biriga apokarbonatli oltin ma‘danlashuvi joylashgan.

Ohaktoshlarning ma‘dan joylashgan qalinligini asosan oltin ma‘dan minerallashish bilan bog‘liq bo‘lgan, kvarssiz karbonatli kataklazitlar va milonitlarning katta qalinlikdagi shimoliy-g‘arbiy tik tushgan zonasi kesib o‘tadi. Oltin kalsitli tomirlar va tomirchalar hamda brekchiyalarning kalsitli sementida ham uchraydi.

Akata konida oltin ma‘dan minerallashishi kalsit-getit-gematit-gidrosludali minerallashish zonasini yuzaga keltiradigan, asosan qalin plitali va massiv pelitomorf va stromatolitli ohaktoshlar bilan namoyon bo‘lgan karbonat jinslar orasida joylashgan.

Akata uchastkasining butun maydonida oltin ma‘danlashuv joylashgan ohaktoshlar endogen jarayonlarning (gidrotermokarst brekchiyalar zonalarining va ularga yo‘ldosh metasomatik qayta kristallanish zonalarining shakllanishi) ta‘siri bilan bog‘liq ahamiyatli o‘zgarishga duchor bo‘lgan (1-rasm).

Muhokama. Ohaktoshlardagi o‘zgarishning maksimal jadalligiga gidrotermokarst brekchiyalarda erishiladi, bu eh-

timol shimoliy-g'arbiy yo'nalishdagi, davomida karbonat jinslarning qatlamlanishini kesib o'tadigan o'ta darzlangan zonalarning hosil bo'lishi bilan bog'liq. Bu zonalarda ohaktoshlar uzoq vaqt mobaynida zonaga pastdan yuqoriga kiradigan termal eritmalarining ta'siri ostida erishga duchor bo'lgan. Bunda ehtimol, ohaktoshlarning erish tezligi zonalarning turli qismlarida bir xil emas – yuqori darzli uchastkalarda tuzilishining yaqqol ifodalangan geterogenligi, massiv pelitomorf turlaridan tashkil topgan uchastkalariga nisbatan erish tezligi ahamiyatli yuqori bo'lgan. Notekis erish hisobiga zonada ko'p sonli bo'shliqlar bilan to'yingan karbonat karkas hosil bo'lgan, keyinchalik endogen gidrotermal faoliyatning mahsulotlari bilan to'lgan (kalsit, gidroslyudlar, kaolinit, gematit).

Nisbatan yirik bo'shliqlarda devorlarini va tepasini o'pirilishi hisobiga atrofdagi zona jinslarini ko'p sonli bo'laklari hosil bo'lgan.

Gidrotermokarst brekchiyalar zonalarini chegaralari notekis, egri-bugri va ahamiyatli darajada shartli, chunki brekchiyalar yangi hosil bo'lgan kalsitning asta-sekin kamayib boradigan miqdori bilan tobora qayta kristallangan ohaktoshlarga o'tadi.

Ma'danli zonalar shakllanishining kechki bosqichlarida tektonik choklarning yangilanishi gidrotermokarst brekchiyalar bo'ylab yuzaga kelgan oltinli kataklazitlarni hosil bo'lishiga olib keladi. Kataklazitlar turli generatsiyalar kalsitining katta miqdorda bo'laklari bo'lgan gidroslyuda-getit tarkibli yumshoq massa bilan namoyon bo'lgan va atrofdagi ohaktoshlarning tektonik bo'laklari oltin tarkibli karbonat brekchiyalarga ega.

Akata ma'dan namoyon bo'lishining asosiy ma'dan tanasi parametrlari nisbatan

teng o'lchamli (qalinligi 3,4-5,3 m; alohida kesimlari bo'yicha oltinning miqdori 4,2-4,7 g/t) qatlamsimon shaklga ega.

Akata ma'dan namoyon bo'lishida oltin ma'danlashuvi oddiy moddiy tarkibi bilan xarakterlanadi. Asosiy ma'dan minerallariga tabiiy oltin va gematit kiradi, ikkinchi darajalilariga – pirit, kinovar va tabiiy latun. Sanoqli aralashmalar ko'rinishida antimonit kuzatiladi.

Oksidlanish zonasida ikki guruh Fe girooksidlari yuzaga kelgan: getit-gidrogetit va lepidokrokkit-gidrogematit hamda marganetsning oksidlari (mayda donali agregatlarning tomirchalarsimon to'plamlari kuzatiladi).

Tabiiy oltin yuqori probali, submikron (ajralmalarning o'lchami 1 mkm va kichikroq, ba'zan 1-20 mkm gacha). Ko'proq dispers oltin argillizatsiyalangan uchastkalarda joylashgan, u yerda u gidroslyudalarning o'zida ham, ularning yonida rivojlangan gematizatsiyalanish chegaralarida ham tarqalgan.

Endogen gematit gidroslyudali agregatda va kalsitning donalarichi sohasida bir tekis tarqalgan.

Pirit ikkita generatsiya bilan namoyon bo'lgan: zarralarning noto'g'ri yoki sharsimon shakldagi yupqa tarqoqligi va ba'zan idiomorf kristallarning yakka nuqtasimon mikroaralashmalar bilan hamda boshqa ma'dan minerallardan izololyatsiyalangan holda kalsitda joylashgan noto'g'ri shakldagi zarralar (1 mkm va kichikroq o'lchamda) va 5-50 mkm o'lchamli kub shaklidagi nisbatan yirik zarralar bilan. Umuman olganda pirit kamdan-kam uchraydigan tarqoqlikni hosil qiladi va minerallashgan uchastkalarning hajmidan 0,1% ni tashkil etadi.

Akata ma'dan namoyon bo'lishining

ikkita ma'dan namunasining kimyoviy tahlili quyidagi petrogen va ma'dan elementlarining miqdorini aniqlash imkoniyatini berdi: CaO – 50,4 - 52,08%; SiO₂ – 1,7 – 4,9%; Al₂O₃ – 1,5 -1,7%; MnO – 0,04 – 0,05%; TiO₂ – 0,01-0,04%; P₂O₅ – 0,06%; Fe₂O₃ – 0,5 – 0,65%; FeO – 0,1%; S_{umum} – 0,03- 0,24%; Au – 2,0 – 3,3 г/т; Ag – 1,0 г/т; As – 0,018 – 0,1%; Sb – 0,001 – 0,015%; Cu – 0,007% gacha; Pb – 0,02% gacha; Zn – 0,04 – 0,05%; Co – 0,005% gacha.

Xulosa. Shunday qilib, oltin ma'danlashuvining akata kichik turi uchun quyidagilar xarakterli: a) kesimning stromatolitli ohaktoshlari ko'p bo'lgan karbonat seksiyalarida joylashganligi; b) ma'danli hosilalarning (kalsit, gidroslyudalar) past haroratda hosil bo'lishi; v) oltinli birikmalarning (tabiiy oltin, gematit, apatit, kinovar) o'ziga xos paragenezisi; g) ma'danli zonaning o'ziga xos geokimyosi, ma'dan atrofi sohasida fosfor, simob, mis va ruxning to'planishida yaqqol ifodalangan; d) ma'

danli eritmalarda oltingugurtning ahamiyatli yetishmasligi, bu tabiiy latunning yuzaga kelishiga va misning sulfid ko'rinishida emas, balki tabiiy holatda (aralashma holatida) ishtirok etishiga olib keladi; ye) piritning gematit bilan aniq assotsiatsiyasi, shuningdek piritlarda Fe/S nisbat nazariyga nisbatan ancha yuqori.

Akata uchastkasining turli litotiplarini namoyon qiladigan (kam o'zgargan pelitomorfohaktoshlardan gidrotermokarst brekchialargacha), tanlangan namunalar bo'yicha o'tkazilgan simobmetrik tahlil oltin va simob orasidagi kuchsiz ifodalangan korrelatsion bog'liqlikni qayd qilish imkonini beradi. Umuman olganda barcha tanlab olinganlar (190 namuna) uchun korrelatsiya koeffitsiyenti 0,27, alohida ma'danli hosilalar uchun (40 namuna) korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,18. Ma'danlarning geokimyoviy spetsifikasi – As, Sb, Hg, Zn, Pb, kam darajada Cu, Co.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ochilov I.S. Chakilkalyan tog'lari apokarbonat oltin ma'danlashuvining geologik tuzilishi va joylashish sharoitlari. Geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent-2023.
2. Ochilov I.S., Usmonov K.M. Chakilkalyan tog'lari apokarbonat oltin ma'danlashuvining istiqbollari. Academic Research in Educational Sciences. 2023 yil Oktyabr. VOLUME 4. ISSUE 10. <https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/chakilkalyan-toglari-apokarbonat-oltin-madanlashuvining-istiqbollari>
3. Ochilov I.S., Usmonov K.M. Chakilkalyan tog'lari Akba maydoni apokarbonat oltin ma'danlarining mineral tarkibi. Educational Research in Universal Sciences. 2023 yil Oktyabr. VOLUME 2. ISSUE 10. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4194>
4. Ochilov I.S., Usmonov K.M. Chakilkalyan tog'lari Akata maydoni apokarbonat oltin ma'danlarining mineral tarkibi. GOLDEN BRAIN. 2023 yil Noyabr. VOLUME 1. ISSUE 30. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10073272>
5. Очиллов И.С. Чакилкалон мегаблокини геологик тузилиши ва карбонат жинсларидаги гидротермал оltин маъданлашуви (Жанубий Ўзбекистон) // “Ўзбекистондаги илмий амалий тадқиқотлар” мавзусида республика 18 кўп

- тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари 24 қисм Тошкент 2020- 17-20 б.
6. Очилов И.С. Аката конидаги карбонат жинсларидаги телетермал олтин маъданлашувининг минералогик хусусиятлари (Жанубий Ўзбекистон) // Science and education in the modern world: Challenges of the XXI century Nur-Sultan, Kazakhstan 2020 - 4-9 б.
 7. Ярбобоев Т.Н., Очилов И.С., Султонов Ш.А. Чакилкалян мегаблокиннинг апокарбонат олтин минераллашуви ва истиқболлари // “Замонавий шароитларда Ўзбекистон республикаси иқтисодиёти тармоқларини ривожлантиришнинг долзарб масалалари ва ечимлари”, мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллар тўплами. Ўзбекистон Жиззах 2021 - 489-500 б.
 8. Ochilov I.S., Sulstonov Sh.A. Chakilkalyan megablokidagi karasu maydonining karlin tipidagi apokarbonatli oltin minerallashuvi // O‘zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari. O‘zbekiston Qarshi 2021 - 131-134 в.
 9. Очилов И.С., Эшмуродов О.Р., Султонов Ш.А. Чакилкалян мегаблокидаги Акба майдонининг Карлин типидagi апокарбонатли олтин минераллашуви // Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари республика илмий - амалий конференцияси материаллари. Ўзбекистон Қарши 2021 - 183-185 б.
 10. Очилов И.С. Чакилкалян мегаблокиннинг Карлин типидagi апокарбонатли олтин минераллашуви // “Рақамли технологиялар, инновацион ғоялар ва уларни ишлаб чиқариш соҳасида қўллаш истиқболлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция. Ўзбекистон Андижон - 31-34 б.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH
ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО
CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

UO'K: 629.122

 10.5281/zenodo.10596819

SUG'ORISH KANALLARIDA OLIV BORILADIGAN GEODEZIK ISHLARNI
GEOAXBOROT DASTURIY TA'MINOTI YORDAMIDA BAJARISHNI
TAKOMILLASHTRISH



Fayziyev Shohrux Shamsi o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Geodeziya va yerdan foydalanish" kafedrası, t.f.f.d (PhD) dotsenti
E-mail: shohruxfayziyev1@gmail.com



Avilova Nilufar Fayzulla qizi

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti Geodeziya va geoinformatika kafedrası assistenti

Annotatsiya. Maqolada geoaxborot tizimlari asosida kartalashtirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda geodezik, topografik qidiruv ishlarini olib borish orqali joy ko'rsatkichlarining hozirgi holati, dinamikasi va o'zgarishini ta'minlovchi tizimini yaratish, optimallashtirish va oqilona foydalanishda hamda geodezik, topografik qidiruv ishlarining ish hajmi va unumdorligi muammolarini olishda xizmat qilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: gidrotexnik inshoot, geoaxborot tizimlari, asfalt yo'l, lotok, ariq, toposyomka, rekonstruksiyalash, zovurlar, sug'orish kanallari, zax qochirish kollektorlari, o'ng va chap qirg'oq, GAT (geoaxborot tizimlari).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ РАБОТ, ПРОВОДИМЫХ НА
ОРОСИТЕЛЬНЫХ КАНАЛАХ С ПОМОЩЬЮ

ГЕОИНФОРМАЦИОННОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Файзиев Шохрух Шамси угли

Кафедра «Геодезия и землепользование» Каршинского инженерно-экономического института, доцент, к.т.н.

Авилова Нилуфар Файзулла кизи

Ассистент кафедры геодезии и геоинформатики Института Карши ирригации и агротехнологий Национального исследовательского университета «ТИОХММИ»

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы создания, оптимизации и рационального использования системы, обеспечивающей текущее состояние, дина-

мику и изменение показателей местоположения путем проведения геодезии чesких и топографо-поисковых работ с использованием современных картографических технологий на базе геоинформационных систем, а также объем и производительность геодезические и топографо-поисковые работы, освещены вопросы оказания услуги при их получении.

Ключевые слова: гидротехническое сооружение, геоинформационные системы, асфальтированная дорога, канал, канава, топосёмка, реконструкция, каналы, оросительные каналы, дренажные коллекторы, правый и левый берег, ГАТ (геоинформационные системы).

IMPROVEMENT OF GEODETIC WORK CARRIED OUT IN IRRIGATION CANALS WITH THE HELP OF GEOINFORMATION SOFTWARE

Fayziev Shokhruh

*Department of Geodesy and Land Use, Karshi Engineering-
Economic Institute, Associate Professor, Ph.D.*

Avilova Nilufar

*Assistant at the Department of Geodesy and Geoinformatics,
Karshi Institute of Irrigation and Agricultural Technologies,
National Research University "TIQXMMI"*

Abstract. The article discusses the problems of creating, optimizing and rationally using a system that provides the current state, dynamics and changes of location indicators by conducting geodetic and topographic research using modern mapping technologies based on geoinformation systems, as well as the volume and productivity of geodetic and topographic research. issues of service in obtaining are covered.

Keywords: hydrotechnical structure, geoinformation systems, asphalt road, channel, ditch, toponymal, reconstruction, ditches, irrigation canals, drainage collectors, right and left bank, GAT (geoinformation systems).

Kirish. Hidrotexnik inshootlarni rekonstruksiyalash jarayonida geodezik ma'lumotlarni hosil qilishdagi muammolar ko'p yillar davomida geodeziya fanining diqqat markazida bo'lib, hozirgi kunda esa eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Gidrotexnik inshootlarni tadqiq qilish va geodezik topografik masalalari bir qator zamonaviy geodezik asboblari orqali mutaxassislar va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida o'chraydi. Jumladan, xorijiy olimlardan G.A. Fedotov, J. Bouma, Levchuk G.P va boshqalar tadqiq etishgan

MDH olimlaridan V.N. Sukachev, S.V. Viktorov, va boshqalar geodezik topografik tadqiqot ishlarini olib borish va Gat dastur-

larini o'rganishga muhim hissa qo'shgan. "GAT" (geoaxborot tizimlari) dasturlarini qo'llash va kartalashtirish masalalari bilan Y.F.Knijnikov, I.K.Lure, V.S.Stolbova, va boshqalar shug'ullangan.

Jumladan, respublikamizning ko'plab olimlari geodezik va topografik ma'lumotlarining olish va ishlab chiqarishda qo'llash jarayonlari o'rganilgan (Toshpo'latov S., Suyunov.A.S, H.Muborakov, Sh.K. Avchiyev, T.Mirzaliyev, E.Y.Safarov, R. Oymatov, A.Inomov) va boshqalar ilmiy taddqiqot ishlarida va ishlab chiqarish sohalarida "GAT" dasturlarining qo'llanilishi, qolaversa ilmiy asoslanish tushunchalarini yoritib berganlar.

Adabiyot tahlili va usullari. Tadqiqot


ishlari dala sharoitlaridagi va GAT dasturlari uchun qabul qilingan usullar orqali geodezik va topografik dala qidruv ishlarining ishchi kuchi va vaqt sarfini qisqartirish hamda zamonaviy geoaxborot dasturlari imkoniyatlarini yoritib berish, ishlab chiqarishda qo'llashni kuzatish ishlari hamda an'anaviy geodezik usullardan va "GAT" dasturlaridan foydalangan holda meliorativ suv inshootlaridagi geodezik ishlardan foydalanildi. Geodezik va topografik tadqiqotlar geoaxborotlar dasturlari va dasturiy ta'minotlarga asoslangan holda dala sharoitida sug'orish va zax qochirish kanallarida o'tkazildi.


Tadqiqot natijalari. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'orish kanallari va zavurlar profillaridagi geodezik va topografik ma'lumotlarni "GAT" dasturiy ta'minotlari asosida algoritmlari va rejalashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Geodezik o'lchashlar yordamida zax qochirish kollektorlarining geodezik rekonstruksiyalash ishlaridagi balandlik ko'r-

satkichlarini o'ng va chap qirg'oqdagi (N o'ng, N chap) balandlik ma'lumotlari aniqlanib, zamonaviy "GAT" dasturiy ta'minotlari asosida tenglashtirish ishlarini olib borish va natijada tadqiqotning umumiyligi va asosligini ifodalash ishlari belgilab olingan.

Gidrotexnik inshootlarni loyihalashda, ya'ni sug'orish kanallari va zax qochirish tizimi kollektorlarida olib boriladigan geodezik ishlarning bir qismidagi ta'mirlashtirish loyihasi asosida 20 km li ochiq kollektorlardan har 100 m oraliqda olinadigan ko'ndalang kesimlar profillarini hosil qilish va kesishgan hudud (asfalt yo'l, lotok, ariq, tosh yo'l) larda toposyomka ma'lumotlarini olish, qolaversa 2,5-3 km oraliqda bitta doimiy reperlarni o'rnatish va 1:10000 masshtabda har bir zovurning uzunligini aniq qilib burilish burchaklarini aniqlab, inshootlarning joylashgan o'rni peketlar ko'rsatkichlarining ma'lumotlarini olish talab qilinsa, yuqoridagi ishlar bo'yicha ma'lum bir geodezik ishlarning bevosita






1-rasm. Loyihalanayotgan sug'orish kanali trassasining 3D modeli.

ma'lumotlarini olish zamonaviy geodezik asboblardan (elektron taxometr) yordamida dala tadqiqotlari olib borilgan bo'lsa, dala tadqiqot natijalarini tenglashtirish va tekshirish "GAT" dasturiy ta'minoti "global mapper" yordamida tekshirish ishlari bajarilish jarayoni keltirib o'tilgan.

Tadqiqotning asosiy ko'rsatkichlaridan

biri bo'lib, yuqoridagi fikr-mulohazalarni asoslash va kanal, zovurlarning o'ng va chap tomon qirg'og'idagi (N o'ng, N chap) balandlik ma'lumotlarini tenglashtirish ishlarini olib borish va natijada tadqiqotning umumiyliigi va asosligini ifodalash ishlari belgilab olingan.

Kollektorlar va sug'orish kanallarida



2-rasm. Abdulla Nabiyev hududidagi CK-3.4 kallektorining chap va o'ng qirg'oq H balandlik otmetkalarining nisbati.

ikkala (chap va ung qirg‘oq) balandliklarini tenglashtirish jarayoni asosiy vazifasi ikkala tomon qirg‘og‘idagi balandliklar H ma‘lumotlar olingan bo‘lib, kollektor va sug‘orish kanallarida deyarli 68% holatda chap va o‘ng tomon yer sathi ko‘rsatkichlari teng bo‘lishi 3- rasmdagi CK-3.4 kallektorining chap va o‘ng qirg‘oq H balandlik otmetkalari misolida keltirib o‘tilgan. Kollektorlar va sug‘orish kanallaridagi chap va o‘ng tomon suv sathining H balandliklari 83% hollarda tengligi va bir biriga nisbatdan eng yuqori qiymatlar bilan 50 sm gacha farq qilmaydigan hududlarda, ya‘ni H balandlik 50 sm gacha bo‘lgan ko‘rsatkichlardagi kollektorlar qiymatlarni loyihalash mumkinligini inobatga olib va yon-atrof relyef strukturasi o‘zgarib turishini hisobga

torlarninig bir tomoni bo‘ylab geodezik o‘lchash ishlarini olib borish lozim. Ma‘lum bir kollektorlar va sug‘orish kanallari geodezik topografik qidiruv ishlarining yakunlanganlik hulosaning mukammalligini, tekshirish jarayonidagi ishlar hajmini ham bevosita kameral sharoitda aniqlash mumkin. Ularning bir qismini dala ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash natijasida to‘g‘rili-gini asoslash ishlari, agar natijalar qanoatlantirilmasa, bevosita dala sharoitida bir tomonlama qirg‘oq bo‘ylab geodezik o‘lchash ishlarini olib borish, ya‘ni hududning relyef ko‘rsatkichlari katta bo‘lgan tomon bo‘yicha N balandlik ma‘lumotlarini olish va loyihaviy natijalar bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq. Ushbu o‘lchash natijalari quyidagi 1-jadval misolida ko‘rsatilgan.

1-jadval

Elektron taxeometr va yo‘ldoshli navigatsiya tizimlari orqali olingan ma‘lumotlar

№	<i>Elektron taxeometr ma‘lumotlari</i>				<i>Yo‘ldoshli navigatsiya tizimlari ma‘lumotlari</i>			
	O‘ng tomon yer sathi	Chap qirg‘oq	100 m oraliqlar	Suv sathi	Suv sathi	100 m oraliq piketlari	O‘ng qirg‘oq	Chap tomon yer sathi
PK1	324.26	321.50	321.05	317.61	317.61	321.09	321.93	324.52
PK2	324.52	321.68	321.12	317.67	317.67	321.04	321.81	324.92
PK3	324.98	321.81	321.31	317.75	317.75	321.44	321.67	324.89
PK4	324.73	321.68	321.25	317.81	317.81	321.33	321.76	324.84
PK5	324.44	321.57	321.32	317.87	317.87	321.51	321.62	324.57

olgan holda tenglashtirish va taqqoslash ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

Muhokama. Yuqorida taklif etilgan tadqiqotlar natijasida dala tadqiqot ishlari bir qismining ish unumdorligini oshirishga erishiladi. Masalan, kollektorlarda ishchi kuchini qisqartirish va ish vaqtini kamaytirish maqsadida ikkala qirg‘oq natijalarining tengligi kuzatilganda, kollektorlarni


Natijalarni tenglashtirish jarayonida o‘ng tomon qirg‘oq bo‘ylab “Stonex” elektron taxeometr yordamida 1-7, 12-19, 23-39-PK lar bo‘yicha olingan ma‘lumotlar, ya‘ni (o‘ng tomon yer satxi, chap qirg‘oq, 100 m oraliqlar, suv sathi, 100 m oraliq piketlari, o‘ng qirg‘oq, chap tomon yer satxi) larning N balandliklari ifodalangan bo‘lib, natijalar 2022-yil sentabr oyining 15-18

kunlarida Qashqadaryo viloyati, Koson tumanining Abdulla Nabiyev hududidagi CK-4.3 kollektoridagi ko'rsatkichlar keltirilgan. Yuqoridagi qiymatlarning asosligi va zah qochirish kollektorlaridagi geodezik ishlarning bir qismidagi ish unumdorligini oshirishga erishish maqsadida, qolaversa ishchi kuchini kamaytirish va ish vaqtini qisqartirishda, sug'orish kanallari va kollektorlar chap tomon qirg'oqlarining N balandlik ma'lumotlari 2022 yil sentabr oyining 21 kuni GAT dasturiy ta'minoti "Global mapper" yordamida Abdulla Nabiyev hududidagi CK-4.3 kollektor chap tomonining 1-7, 12-19, 23-39-PK lar bo'yicha N balandlik ma'lumotlari olindi.

Natijalarni taqqoslash va tenglashtirish

ishlari 3-rasmda keltirilgan bo'lib, bunda kollektor o'ng va chap tomoninig PK lar bo'yicha N balandliklarini chap qirg'oq bo'ylab geodezik usulda zamonaviy elektron taxeometrda olish ishlari olib borilgan bo'lsa, o'ng qirg'oq bo'ylab so'niy yuldosh navigatsiya tizimlari orqli olingan ma'lumotlarni GAT dasturiy ta'minoti "Global mapper" asosida hosil qilish ishlari aks ettirilgan. Bu yerda 100 m PK lar oralig'dagi balandliklarda asosan (chap va o'ng qirg'oq, kollektorning yer sathi, uning pastki suv tubi qismi va kollektorning o'ng va chap tomon suv sathlari) dagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Koson tumani Abdulla Nabiyev nomli massiv hudududagi (CK-4.3) 7,5 km



3-rasm. Kollektorlar o'ng va chap tomonining PK lar bo'yicha N balandlik ma'lumotlarini olish usullari

uzunlikdagi kollektorining o'lchash natijalari asosan "sug'orish kanallari va zax qochirish kollektorlarining qayta ta'mirlash va tiklash" ishlarini tashkil qilish va loyihalashtirish ishlarining tahlili asosida olib borilgan. Ushbu yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarning asosiy ko'rsatkich qiymatlarini tadqiqotning ilovalarida to'liqligicha yoritib berilganligi, va hamkorlik shartnoma doirasida dala sharoitida va kameral sharoitda geodezik va topografik ishlar olib borilganligi, qolaversa Abdulla Nabiyev nomli massiv hududidagi (CK-4,3) 3,5 km uzunlikdagi kollektorining qayta ta'mirlash va tiklash ishlarini GAT dasturiy ta'minotlari yordamida yoritib berilganligi asoslanilgan.

Xulosa. Hidrotexnika inshootlarini loyihalashda va qurish jarayonida geodezik va topografik dala qidiruv ishlarini bajarishni GAT texnologiyalari yordamida takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslash natijalari tahlil qilindi.

Geodezik va topografik tadqiqot natijalari ham bevosita gidrotexnika inshootlarini loyihalashda ya'ni, sug'orish va zax qochirish kanallarida topografik qidiruv jarayonidagi bir qancha otmekka, balandlik va planli ma'lumotlarni olish, ishlab chiqarishga qo'llash, qolaversa ma'lum darajada ish

hajmini yangilab borishga xizmat qiladi.

Sug'orish kanallari va zax qochirish tizimlarini loyihalash va qurishda geodezik va topografik dala qidiruv ishlarini bajarishni GAT texnologiyalari yordamida takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Yuqorida keltirilgan ilmiy va amaliy asoslash natijalari tahlillaridan ko'rinib turibdiki, loyiha otmekalarini joy sharoitida bajarish ishlari anchagina murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi.

Ko'rsatkichlar shuni ifodalaydiki, yuqoridagi 3-rasmda keltirib o'tilgan ma'lumotlar kollektorlarning o'ng tomoni va chap tomon qirg'oqlarining bir xil balandlik qiymatida ifodalanishini inobatga olgan holda geodezik dala qidiruv ishlarini rivojlantirish, o'lchash aniqliklarini oshirish hamda ishchi kuchi, ish vaqti sarfini kamaytirish maqsadida ham ma'lum bir hududlarda GAT dasturlari yordamida geodezik ishlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki GAT texnologiyalari sinfiga kiruvchi "Global mapper" dasturini qo'llash geodezik va topografik ma'lumotlarni olishda ish unimini oshiribgina qolmay, balki vaqtni tejash va mablag'ni iqtisod qilish imkonini ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. A. Chrzanowski, A. Szostak, R. Steyeves, In Proceedings of the CDA 2011 Annual Conference, 45-49 (Fredericton, Canada, 2011). Меликулов А. Д. и др. Факторы обеспечения длительной устойчивости и безопасности подземных горных выработок шахт и рудников в условиях проявления тектонических процессов // Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 19 (66). – С. 7-17.
2. R. Oymatov, S. Safayev, YE3S Web of Conferences, 258, 03020 (2021).
3. N. Sabitova, O. Ruzikulova, I. Aslanov, YE3S Web of Conferences, 227, 03003 (2021).
F.A. Gapporov, D.N. Valijonov, S.R. Mansurov, Utilization of Water Reservoirs, 299 (TIAME Publications, Tashkent, 2019).

4. M. Bakiyev, N. Rahmatov, A. Ibraymov, Utilization of hydro-technical constructions in irrigation canals, 279 (TIAME Publications, Tashkent, 2018).
5. F.A. Fitzpatrick, In Developmens in Yearth Surface Processes, 18 (2014)
6. M. Scaioni, M. Marsella, M. Crosetto, V. Tornatore, J. Wang, Sensors, 18, 11 (2018).

UO‘K: 547-32.54-057:543.33

 10.5281/zenodo.10649404

KARBAMID, FORMALIN VA QAHRABO KISLOTA ASOSIDA XELAT HOSIL QILUVCHI SORBENTNING SINTEZI VA TADQIQOTI



**Muqumova Gulvar
Jumayevna**

Termiz davlat universiteti
doktaranti



**To'rayev Hayit
Xudoynazarovich**

k.f.d.,prof, Termiz davlat
universiteti



**Kasimov Sherzod
Abduzoirovich**

k.f.d.,prof.v.b., Termiz davlat
universiteti,
E-mail: qosimovsh@tersu.uz



**Karimova Naima
Javliboy qizi**

Termiz davlat universiteti tayanch
doktaranti,
E-mail:
naimakarimova364@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada polikondensatsiya reaksiyasi orqali karbamid, formalin va qahrabo kislotasi (KFQ) asosida kompleks hosil qiluvchi sorbent sintez qilingan. Sorbentning statik almashinuv sig'imini, polikondensatsiya jarayonida haroratining ion almashinuvchi xossalari ta'siri, sintez qilingan KFQ sorbentlarining statik almashinish sig'imini haroratga bog'liqligi o'rganilgan. Sorbentning namligini, sochma og'irligini aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlari qilingan.

Kalit so'zlar: sorbent, karbamid, formalin, qahrabo kislotasi, statik almashinish sig'imi, bo'kish darajasi, polikondensatsiya reaksiyasi, KFQ

СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ ХЕЛАТОГЕНЕРИРУЮЩЕГО СОРБЕНТА НА ОСНОВЕ МОЧЕВИНЫ, ФОРМАЛИНА И ЯНТАРНОЙ КИСЛОТЫ

**Мукумова Гулвар
Жумаевна**

Докторант Термезского
государственного университета

**Тураев Хайит
Худойназарович**

Термезского государственного
университета

**Касимов Шерзод
Абдузоирович**

Термезского государственного
университета

**Каримова Наима
Жавлибой кизи**

Докторант Термезского
государственного университета

Аннотация. В данной статье методом реакции поликонденсации синтезирован комплексообразующий сорбент на основе мочевины, формалина и янтарной кислоты (КФК). Изучены статическая обменная емкость сорбента, влияние его температуры на ионообменные свойства в процессе поликонденсации, температурная зависимость статической обменной емкости синтезированных сорбентов KFQ.

Ключевые слова: сорбент, мочевины, формалин, янтарная кислота, статическая обменная емкость, степень набухания, реакция поликонденсации, KFQ

SYNTHESIS AND STUDY OF CHELATE-GENERATING SORBENT BASED ON UREA, FORMALIN AND SUCCINIC ACID

**Muqumova Gulvar
Jumayevna**

Doctoral student at Termez State
University

**Turayev Xayit
Xudoynazarovich**

Prof, Termez State University

**Kasimov Sherzod
Abduzoirovich**

Prof, Termez State University

**Karimova Naima
Javliboy qizi**

Scientific researcher of Termez
State University

Abstract. In this article, a complexing sorbent based on urea, formalin and succinic acid (SSA) was synthesized using the polycondensation reaction method. The static exchange capacity of the sorbent, the influence of its temperature on the ion exchange properties during the polycondensation process, and the temperature dependence of the static exchange capacity of the synthesized KFQ sorbents were studied.

Keywords: sorbent, urea, formalin, succinic acid, static exchange capacity, degree of swelling, polycondensation reaction, KFQ.

Kirish. Bugungi kunda Respublikamizda kimyo sanoati uchun samarador mahsulotlarini ishlab chiqarishga, xususan, rangli va nodir metallarni eritmalar tarkibidan tanlab ajratib olishda hamda oqava suvlarni og'ir metallardan tozalash uchun qo'llaniladigan sorbentlarni olish bo'yicha ma'lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan dacturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga erishilgan, ayniqsa, yangicha yondashuvlarga asoslangan, metall ionlariga nisbatan tanlovchan sorbentlar olingan. Shu bois ichki bozorni import o'rnini bosuvchi mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bois ushbu ilmiy tadqiqot ishi muhim dolzarblik kasb etadi.

Adabiyot tahlili va usullari. Nikiforova T. YE va boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, suvli eritmalaridan mis, rux, kadmiy va qo'rg'oshin ionlarini montmorillonit saqlovchi tabiiy gelga sorbsiyalash jarayoni va geldagi sorbsiyasining kinetik va termodinamik funksiyalarining qiymatlari hisoblab chiqilgan. 288-313 K harorat oralig'ida olingan kinetik sorbsiya egri chiziqlaridan Cu^{2+} , Zn^{2+} , Cd^{2+} va Pb^{2+} ionlarining sorbsiyalash jarayoni ion

almashish mexanizmi orqali borishi, endotermik bo'lishi va Langmur izotermasi tenglamasi bilan tavsiflagan[1,2,3]

[4,5; 122-b.] ishda polietilentereftalat va tiosemikarbazid asosida xelat hosil qiluvchi tolasimon sorbent sintezi keltirilgan. Sorbentda Hg^{2+} , Cu^{2+} , Co^{2+} ionlarining adsorbsiya jarayoni suvli eritmalaridan o'rganilgan va psevdolikkinchi tartibli hamda Lengmyur modellari bo'yicha tavsiflangan. Keltirilgan ionlarga nisbatan sorbentning maksimal adsorbsion sig'imi tegishli 120,02; 96,81 va 78,08 mg/g ekanligi aniqlangan.

KFQ sorbentining sintezi. Tarkibida azot va kislorod saqlagan kompleks hosil qiluvchi ionit sintezi uchun qaytar sovutgich va avtomatik aralashtirgich o'rnatilgan uch og'izli kolbaga 1,2 g (0,02 mol) karbamid 4 ml (0,05 mol) formalinda eritildi va pH=8-9 bo'lgunga qadar ammoniy gidroksid eritmasi qo'shildi. Harorat 70-80 °C da qovushqoq massa hosil bo'lgungacha qizdirildi. Hosil bo'lgan qovushqoq aralashmaga 1,18 g (0,01 mol) qahrabo kislotani 5 ml ammoniy gidroksiddagi eritmasidan tomchilatib qo'shildi va aralashtirildi. Harorat 110-130 °C ga ko'tarilganda qattiq yoki saqichsimon massa hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan smolasimon massa chinni kosa-

chaga solindi va 100°C haroratda quritish shkafida 20 soat davomida quritildi. Quritilgan polimer maydalangach, past molekulyar og'irlikdagi moddalardan dastlab 5 % li natriy ishqor eritmasi bilan, so'ngra bir necha marotaba distillangan suv bilan neytral holga kelguncha yuvildi. Natijada kichik g'ovaklardan iborat oq rangli donador massa hosil bo'ldi. Mahsulot unumi 90 % ni tashkil etdi.

Namlikni aniqlash. Bo'sh tigel quritish shkafida bir yarim soat vaqt davomida 100°C haroratda quritib olinib, toblangan kalsiy xlorid solib qo'yilgan eksikatora 40 minut sovutildi va keyin o'lchovdan o'tkazildi. Oldindan o'lchab qo'yilgan tigelga sintez qilingan sorbent KFQ (3,5 ± 0,5) g analitik tarozida o'lchandi, hamda 5 soat davomida quritish shkafida 60°C±2 haroratda quritildi. Shundan so'ng tigel sovutish uchun eksikatorga joylandi 40 minutdan keyin o'lchov qayta o'tkazildi. Shundan so'ng o'lchovlar har bir soatdan keyin haroratni yuqori ko'tarib o'lchov o'tkazilib turildi, qachonki ikkala o'lchov o'rtasidagi farq 0,0005 g dan kam bo'lganda quritish jarayoni to'xtatildi. Namlikning massa ulushi (W) quyida keltirilgan formula orqali aniqlandi:

$$W = \frac{m - m_1}{m_2} \cdot 100,$$

O'rtacha arifmetik qiymatni topish uchun jarayon besh marotaba parallel analiz o'tkazildi, natijalar o'lchab ko'rildi, yo'qotilgan namlik foizi yuqorida keltirilgan formula orqali aniqlandi.

Sochma og'irlik. 30 g KFQ o'lchab olinib, 100 ml li silindrga solindi. Bir necha marotaba yog'och tayoqcha bilan silindr devoriga sekinlik bilan urilib sorbentni yaxshilab joylashtirildi shundan so'ng hajmi (V) o'lchandi. Sorbentni o'lchab olish jarayoni 22±5°C haroratda olib borildi. Sochma og'irlik (X₁) quyida keltirilgan formula yordamida hisoblandi.

$$X_1 = \frac{m}{V}$$

Muhukama. Sorbentning statik almashinuv sig'imini aniqlash GOST 20255.1-89 bo'yicha aniqlandi. Karbamid, formalin polikondensatsiya reaksiyasi asosida olingan mahsulotga qahrabo kislotasi bilan reaksiyasining muqobil harorat ta'sirini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borildi. Polikondensatsiya reaksiya jarayoni: 110, 120, 130 va 140°C haroratlarda o'rganildi. Izlanishlar davomida reaksiya-

1-jadval


Polikondensatsiya jarayonida haroratining ion almashinuvchi xossalari ta'siri

№	Reaksiya harorati T, °C	Reaksiya vaqti τ, soat	Maxsus hajm suvda bo'kkan sorbent H shakli, ml/g	SAS, 0,1 n NaOH eritmasi mg-ekv/g bo'yicha
1.	110	5-6,5	1,5	2,9
2.	120	4,5-5	1,3	3,2
3.	130	2,5-3	1,0	5,0
4.	140	1,5-2	0,9	3,9

ning vaqtga bog‘liqligi, sorbentning suvdagi solishtirma hajmi va 0,1 n NaOH eritmasi uchun statik almashinish sig‘imi (SAS) qiymati aniqlandi.

1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra,

polikondensatsiya reaksiyasi uchun muqobil harorat sifatida 130°C olingan, reaksiya vaqti 1,5-2 soat, reaksiya bir xil bo‘lib, 0,1 n NaOH eritmasi uchun almashinuv sig‘imi 5 mg-ekv /g ga to‘g‘ri keladi.




1-rasm. Sintez qilingan KFQ sorbentlarining statik almashinish sig‘imini haroratga bog‘liqlik grafiqi.

2.-jadval.

Ionitning sorbsion xossalarini moddalar almashinuvi nisbatiga bog‘liqligi

Karbamid, formalin va qahrabo kislota	Reaksiya unumi, %	0,1n eritmalarning statik almashinish sig‘imi,mg-ekv/g		
		Cu ²⁺	Zn ²⁺	Ni ²⁺
2:5:0,5	89	4,3	4,1	3,9
2:5:1,0	90	5,6	5,2	4,8
2:5:1,5	88	3,6	3,3	4,1



2-rasm. Mol nisbatdagi kabamid, formalin va qahrabo kislolaning SASga bog‘liqlik diagrammasi.

1-jadval va 1-rasmda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, 110°C haroratda polikondensatsiya reaksiyasining davomiyligi 5-6,5 soat, sorbentning statik almashinish sig'imi KFQ uchun 2,9 mg-ekv/g ekanligi aniqlandi. Bu ma'lum bir haroratda reaksiya uchun olingan reaktivlarning past faolligi bilan bog'liq. Reaksiya haroratining 140°C gacha ko'tarilganda polikondensatsiyalanish reaksiyasi tezligi ortdi shu bilan birgalikda reaksiyaga sarflangan vaqt 1,5-2 soatgacha kamayadi, shu bilan bir qatorda statik almashinish sig'imining qiymati hamda ion almashinuvchining bo'kkanlik darajasi ham kamayadi. Bundan shunday xulosa qilindiki, ma'lum bir haroratda hosil bo'lgan ion almashinuvchining strukturasi zichroq bo'lib, buning natijasida ionogen guruhlarning harakatchanligi qiyinlashadi. Olib borilgan izlanishlar natijasida polikondensatlanish reaksiyasi uchun muqobil harorat 130°C olindi, reaksiya vaqti 2,5-3 soat va 0,1 n NaOH eritmasi uchun almashinish sig'imi 5,0 mg-ekv/g qiymatiga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu reaksiyaga kirishuvchi moddalar: karbamid, formalin va qahrabo kislotaning mos ravishda 2:5:0,5 mol

nisbatdan 2:5:1,5 mol nisbatgacha bo'lgan bo'lgan oraliqda polikondensatlanish reaksiyasi yordamida amalga oshirildi (jadval 2).

2-jadval va 2-rasmda keltirilgan natijalarga ko'ra mos ravishda kabamid, formalin va qahrabo kislotasining 2:5:1,0 nisbatida eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ion almashirgichlar olindi. Metall ionlarining 0,1n eritmadagi statik almashinish sig'imi Cu (II) 5,6 mg-ekv/g, Zn (II) 5,2 mg-ekv/g va Ni (II) 4,8 mg-ekv/g ni tashkil etdi.

Xulosa. Ushbu maqolada polikondensatsiya reaksiyasi orqali karbamid, formalin va qahrabo kislotasi (KFQ) asosida kompleks hosil qiluvchi sorbent sintez qilingan. Sorbentning statik almashinuv sig'imini, polikondensatsiya jarayonida haroratining ion almashinuvchi xossalari ta'siri, sintez qilingan KFQ sorbentlarining sitatik almashinish sig'imini haroratga bog'liqligi o'rganilgan. Sorbentning namligini, sochma og'irligini aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Mol nisbatdagi kabamid, formalin va qahrabo kislotaning SASga bog'liqligi diagramma asosida keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Никифорова Т. Е. и др. Сорбционные свойства и природа взаимодействия целлюлозосодержащих полимеров с ионами металлов //Химия растительного сырья. – 2009. – №. 1. – С. 5-14.
2. Есмаил Г. К., Рамазанов А. Ш., Свешникова Д. А. Кинетика и термодинамика сорбции ионов тяжелых металлов на монтмориллонит содержащей глине // Сорбционные и хроматографические процессы. – 2015. – Т. 15. – №. 5. – С. 672-682.
3. Натарева С. В. и др. ИОНООБМЕННАЯ СОРБЦИЯ КАТИОНОВ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ КАТИОНИТОМ LEWATIT S-100 // Известия высших учебных заведений. Серия: Химия и химическая технология. – 2010. – Т. 53. – №. 8. – С. 30-33.

4. Monier M., Abdel-Latif D. A. Modification and characterization of PET fibers for fast removal of Hg(II), Cu(II) and Co(II) metal ions from aqueous solutions // J. Hazardous Mater. -2013, -V. 250-251, -№ 12, -p. 122-133.
5. Kasimov Sh.A. Ba'zi d-metallarning tarkibida N,P,S bo'lgan immobillangan ligandlar bilan metallokomplekslari: sintezi, tuzilishi va xossalari. // Doktorlik dissertatsiyasi – T.: 2021. 28-46 b.

UO‘K: 547-32.54-057:543.33

 10.5281/zenodo.10700440

**MFQ SORBENTI VA UNING Cu(II), Zn(II), Ni(II) IONLARI BILAN HOSIL
QILGAN METALLOKOMPLEKSLARINING SPEKTROSKOPIK
TAHLILLAR**



Mo'minova Shaxnoza

Termiz davlat universiteti katta
o'qituvchisi



**Muqumova Gulvar
Jumayevna**

Termiz davlat universiteti
doktaranti



**Kasimov Sherzod
Abduzoirovich**

k.f.d., prof.v.b., Termiz davlat
universiteti,
E-mail: qosimovsh@tersu.uz



Xo'shboqova Farangiz

Termiz davlat universiteti
magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada polikondensatsiya reaksiyasi orqali melamin, formalin va qahrabo (MFQ) kislotasi asosida sintez qilingan sorbent bo'yicha tadqiqot olib borildi. Olingan MFQ sorbenti bilan Cu(II), Zn(II), Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan metallokompleksing Raman spektrlari o'rganilgan va tahlil qilindi. Ushbu maqolada polisaxarid biosorbent bilan Cd^{2+} , Cu^{2+} , Fe^{2+} , Ni^{2+} , Zn^{2+} ionlarining sorbsiyasi o'rganilgan. Metall sulfatning suvli eritmasi va tarkibida sellyuloza bo'lgan sorbentning geterofaza tizimida metall kationlarini taqsimlash jarayoniga pH ning ta'siri aniqlangan. Sintez qilingan polimer sorbentning tarkibi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida o'rganilgan. Raman spektroskopiyasi sochma yorug'likni o'rganishga asoslangan, IQ spektroskopiyasi esa yorug'likning yutilishiga asoslangan. Raman spektroskopiyasi ham IQ spektroskopiyasidek namunalarni 4000 sm^{-1} dan 400 sm^{-1} gacha bo'lgan sohada joylashgan IQ-spektrini tahlil qilish orqali qanday bog' mavjudligini va namunalarning qaysi sinfga oidligi haqida fikr yuritildi. Olingan yangi sorbentning va u asosida olingan metallokomplekslarning yutilish chiziqlarining spektr chiziqlar aniqlandi.

Kalit so'zlar: sorbent, melamin, formalin, qahrabo kislotasi, Polikondensatsiyareaksiyasi, metallokompleks, bo'kish darajasi, Raman-spektri

dotsenti, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: karimov_6613@mail.ru



**Latipov Zuhridin Yoqub
o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti, Konchilik ishi kafedrasi
dotsenti t.f.f.d. (PhD),
Qarshi O‘zbekiston
E-mail: zuhridin.latipov7@gmail.com



**Turobov Shaxriddin
Nasritdinovich**

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti
Metallurgiya kafedrasi dotsenti
t.f.f.d. (PhD), Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: www.abc91@bk.ru



**Haydarova Mashxura
Shonazar qizi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti magistranti,
Qarshi O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada Tepaqo ‘ton kaliy koni qurilishi vaqtida kon lahimlarini o‘tish ishlari davomida qazib olingan tosh tuzni saqlash ag‘darmasi, chiqindi ag‘darmasida (boyitish fabrikasining tuz chiqindisi) tarkibida silvinit rudasini qayta ishlash va boyitish natijasida olingan galit chiqindilarini saqlashning oqilona usulini tanlash va atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish tahlil qilingan. Texnik tuz ag‘darmasidan asosiy farqi texnogen ifloslanishning mavjudligidir, buning natijasida tuz chiqindilaridan foydalanish uchun nafaqat mexanik, balki zaharli ikkilamchi chiqindilar paydo bo‘lishi bilan kimyoviy tozalash ham zarur. Shu sabablarga ko‘ra, texnik tuz ag‘darmasi va chiqindi ag‘darmasini ikkita mustaqil alohida hududiy ob‘ekt sifatida joylashtirishni talab etishi izohlangan.

Kalit so‘zlar: chiqindi ag‘darmasi, galit, silvinit, kon lahimlari, boyitish fabrikasi, ruda, tuz chiqindisi.

РАЦИОНАЛЬНОГО МЕТОДА ХРАНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ
ОТХОДОВ И СНИЖЕНИЕ НЕГАТИВНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НА
ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

**Каримов Ёқуб
Латипович**

**Латипов Зухриддин
Ёқуб угли**

**Туробов Шахриддин
Насритдинович**

**Хайдарова Маишура
Шоназар кизи**

*Доц. кафедры “Горное дело”,
Каршинский инженерно-
экономический институт,
Карши, Узбекистан*

*Доц. кафедры “Горное дело”,
Каршинский инженерно-
экономический институт,
Карши, Узбекистан*

*Доц. кафедры “Металлургия”
Навоийский государственный
горно-технологический
университет,
Навои, Узбекистан*

*Магистрант Каршинский
инженерно-экономический
институт, Карши, Узбекистан*

Аннотация. В статье при строительстве калийного рудника «Тюбегатан» выбран рациональный способ хранения галитовых отходов, полученных в результате переработки и обогащения сильвинитовой руды, на отвале (соляных отходах обогатительной фабрики) при анализируются работы по транспортировке горных шлаков и снижение негативного воздействия на окружающую среду. Основным отличием от технического переворачивания соли является наличие техногенных загрязнений, в результате чего использование солевых отходов требует не только механической, но и химической обработки с появлением токсичных вторичных отходов. По этим причинам поясняется, что техническую соляную отвалу и отвал отходов необходимо разместить как два самостоятельных отдельных территориальных объекта.

Ключевые слова: хвосты, галит, сильвинит, горное выработки, обогатительная фабрика, руда, соляные отходы.

CHOOSING A RATIONAL METHOD FOR STORING TECHNOLOGICAL WASTE AND REDUCING NEGATIVE IMPACT ON THE ENVIRONMENT

**Karimov Yoqub
Latipovich**

*Associate Professor, Department of
Mining, Karshi Engineering-
Economics institute,
Karshi, Uzbekistan*

**Latipov Zuhridin Yoqub
ugli**

*Associate Professor, Department of
Mining, Karshi Engineering-
Economics institute,
Karshi, Uzbekistan*

**Turobov Shaxriddin
Nasritdinovich**

*Associate Professor, Department of
Metallurgy, Navoi State Mining and
Technology University,
Navoi, Uzbekistan*

**Haydarova Mashxura
Shonazar qizi**

*Master's degree student, Karshi
Engineering-Economics institute,
Karshi, Uzbekistan*

Abstract. In the article, during the construction of the Tepaqoton potash mine, the selection of a reasonable method of storage of halite waste obtained because of the processing and enrichment of sylvinit ore in the waste dump (salt waste of the concentrator) during the mining slag transfer works, and reduction of the negative impact on the environment analyzed. The main difference from technical salt overturning is the presence of fabricated pollution, because of which the use of salt waste requires not only mechanical but also chemical treatment with the appearance of toxic secondary waste. For these reasons, it explained that the technical salt dump and waste dump are required to be placed as two independent separate territorial objects.

Keywords: tailings, halite, sylvinit, excavation mining, processing plant, ore, and salt waste.

Kirish. Tepaqoton kaliy koni ag'darmasi 2 ta obyektini o'z ichiga oladi:

1) Kon qurilishi vaqtida kon lahimlarini o'tish ishlari davomida qazib olingan tosh tuzni saqlash ag'darmasi;

2) Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodining rudani boyitish fabrikasidan chiqadigan qattiq galit tuz chiqindilarini joylashtirish ag'darmasi.

Kon qurilishi paytida kon lahimlarini

qazish ishlaridan tosh tuzining loyihaviy miqdori 250 ming m³ ni tashkil etadi, shundan 78 ming m³ – stvolni o'tish natijasida hosil bo'lgan tuz. Kon lahimlarini o'tishda qazish ishlari uchun kombayn komplekslari ishlatilgan. Stvollar qurilishi taxminan 8 oy davomida ish unumdorligi 30 t/soat bo'lgan bitta kombayn majmuasi tomonidan amalga oshirildi, shu jumladan konveyerlarni o'rnatish va qolgan kon lahimlarini o'tish uchun umumiy ish unumdorligi taxminan 56 t/soat bo'lgan ikkita kombayn bilan taxminan 10 oy davomida amalga oshirildi.

Adabiyot tahlili va usullari. Tarkibida zarrachalar 10 mm fraksiyalik bo'lgan qo'shimcha ishlov berilmagan namlik miqdori 0,2-0,3% bo'lgan deyarli quruq kon lahimlarini kombayn bilan o'tish natijasida chiqqan tosh tuzlar mavjud [1-24]. Har qanday holatda ham texnik tuz ag'darmasini ikkinchi darajali tabiiy resurslarning foydali qazilmasi sifatida qaralishi lozim.

Chiqindi ag'darmasida (boyitish fabrikasining tuz chiqindisi) tarkibida silvinit rudasini qayta ishlash va boyitish natijasida olingan galit chiqindilari mavjud. Ularning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- o'rtacha yaxlitligi taxminan 0,3-0,5 mm;
- texnologik namlik (fabrikadan chiqishda) - 8% gacha;
- NO tarkibi taxminan 1%, agar loy tuz chiqindilari bilan aralashmasa;
- rudani boyitishning flotatsiya texnologiyasida ishlatiladigan turli xil reagentlarning mavjudligi.

Texnik tuz ag'darmasidan asosiy farqi texnogen ifloslanishning mavjudligidir, buning natijasida tuz chiqindilaridan foydalanish uchun nafaqat mexanik, balki zaharli ikkilamchi chiqindilar paydo bo'lishi bilan

kimyoviy tozalash ham zarur.

Shu sabablarga ko'ra, texnik tuz ag'darmasi va chiqindi ag'darmasini ikkita mustaqil alohida hududiy obyekt sifatida joylashtirishni talab etadi.

Qurilish davrida kombayn majmualarining ishlash rejimi konning loyihalashtirilgan ish rejimiga muvofiq qabul qilingan: yiliga 330 ish kuni, kuniga 3 smena, smena davomiyligi 8 soatni tashkil qiladi.

Massivdagi tosh tuzining zichligi 2,15 t/m³, kombayn yordamida qazish davomida yumshatish koeffitsienti 1,6 ga teng.

Silvinit rudasini ishlab chiqarish uchun konning loyihaviy ish unumdorligi (birinchi bosqich, kon konining markaziy qismi) yiliga 700 ming tonnani tashkil etadi.

Ruda aralashuvini hisobga olgan holda shaxta maydonining markaziy qismida qazib olinadigan rudadagi o'rtacha KCl miqdori taxminan 30% ni tashkil qiladi. Shaxta maydonining markaziy qismida Quyi II qatlamidagi erimaydigan qoldiqning o'rtacha tarkibi taxminan 2,5% ni tashkil qiladi.

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, rudani taxminiy material balansi quyidagi 1-jadvalda hisoblab chiqilgan, shu asosda o'rtacha qattiq tuz chiqindilarining yillik miqdori 426,2 ming tonnani tashkil etadi.

Natijalar. Kon lahimlarini o'tish ishlari natijasida rudani qoplovchi tog' jinslarini texnik tuz ag'darmasiga va rudani boyitish fabrikasidan chiqadigan chiqindilarni alohida ag'darmaga joylashtirish zarurati sabablari [10-16]:

1. Texnik tuz ag'darmasi

Tuz chiqindilaridagi erimaydigan qoldiqlarning taxminiy tarkibi yiliga 4-7 ming tonnagacha bo'ladi. Boyitish fabrikasidan chiqayotgan tuz chiqindilarining boshlang'ich namligi 8%, ag'darmaga tashish

paytida namlikning qisman bug‘lanishi tufayli 7%. Tuz chiqindilari zarrachalarining o‘rtacha kattaligi [2, 5] ga ko‘ra, rudalarni maydalash hajmi bo‘yicha 0,3 mm bo‘ladi.

ag‘darmadagi tuz chiqindilarining taxminiy o‘rtacha zichligi.

Hududning umumiy maydoni 43,2 gektarni tashkil etadi. Ag‘darma o‘z may-

1 - jadval

Boyitish mahsulotlarining material balansi

Nomlanishi	Birligi	Miqdori
Ruda	ming t/yil	700
Tayyor mahsulot	ming t/yil	200
Qattiq fazadagi shlamlar	ming t/yil	20
Suyuq fazadagi shlamlar	ming t/yil	40
Tuz chiqindilari	ming t/yil	440
Tuz chiqindilarining texnologik tavsifi		
Tuz chiqindilarining namligi	%	7
Namli tuz chiqindilarining massasi	ming t/yil	473,1
Qattiq fazadagi tuz chiqindilari	ming t/yil	425,8

Tuz chiqindilarni ag‘darmaga joylashtirish uchun tuz chiqindilarini yetkazib berish tartibi boyitish majmuasining loyihalashtirish rejimiga muvofiq quyidagicha qabul qilingan: yiliga 330 ish kuni, kuniga 3 smena, smena davomiyligi 8 soatni tashkil qiladi.

Dastlabki ma’lumotlarga muvofiq, konning markaziy qismini o‘zlashtirish davri $15,829/0,7=22,6$ yilni tashkil etadi, ushbu davr uchun chiqindi (qattiq) ag‘darmasining umumiy miqdori $0,4262 \cdot 22,6=9,64$ mln. t, hajmi $9,64/1,51=6,4$ mln. m³.

– 15,829 mln. t – loyihalangan zaxira bo‘yicha chiqishi;

– 0,7 mln. t/yil – silvinit rudasining o‘rtacha yillik qazib chiqarilishi;

– 0,4262 mln. t/yil – chiqindi ag‘darmasida tuz chiqindilarining o‘rtacha yillik joylashuvi (qattiq moddalar uchun);

– 1,51 t/m³ – g‘ovakliligi 30% bo‘lgan

donining sharqiy baland qismini egallaydi; uning maydoni bo‘yicha asosini quyidagilar tashkil etadi:

a) markaziy uchastkada ishlash davrida tuz chiqindilarini joylashtirish uchun (9,6 mln. t, 6,4 mln. m³) - 16 ga;

b) ag‘darmada filtrlashga qarshi ekran mavjud bo‘lganda chiqindi to‘kilgan maydonning mumkin bo‘lgan chegarasi - 24,5 ga

Chiqindi ag‘darmasining g‘arbiy past relief qismida 948.0 m balandlik nuqtasida yuza maydoni 8,4 ga bo‘lgan va 951,6 m balandlik nuqtasigacha ko‘tarilganda 2-sonli sho‘r suv ombori (bug‘latuvchi hovuz) hosil bo‘ladi, shaxta markaziy uchastkasini qazib olish davrining yakunigacha ag‘darma 14,6 gektargacha ko‘payadi. Chiqindi ag‘darmasining balans maydonlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

Muhokama. Rudnikda qazib olish bo‘yicha doimiy ish unumdorligi yiliga 700

2- jadval

Chiqindi ag'darmasining balans maydonlari

No	Qismlarning nomlanishi	Maydon, ga
A.	Shaxta maydoni markaziy qismini qazish uchastkasining tugash holati bo'yicha	
1.	2-sonli sho'r suv ombori to'g'oni bilan drenaj kanaliga tutashgan qism	8,30
2.	Tashqi tomondan yuqori kanal va ichki tomondan sho'r suv kanal bilan chegaralangan damba (shu jumladan texnik tuz ag'darmasi va chiqindi ag'darmasi o'rtasida ajratish dambasi)	2,20
3.	2-sonli sho'r suv ombori joyi	14,20
4.	Doimiy drenaj prizmasini o'z ichiga olgan texnik tuz ag'darmasi	16,00
5.	Bo'sh maydon	2,50
JAMI		43,20
B.	Chegaragacha kengaytirilgan chiqindi ag'darmasi maydoni	
1.	2-sonli sho'r suv ombori to'g'oni bilan drenaj kanali quyibefi	8,30
2.	Tashqi tomondan yuqori kanal va ichki tomondan sho'r suv kanal bilan chegaralangan damba (shu jumladan texnik tuz ag'darmasi va chiqindi ag'darmasi o'rtasida ajratish dambasi)	2,20
3.	2-sonli sho'r suv ombori	8,20
4.	Chegaragacha kengaytirilgan chiqindi ag'darmasi maydoni	24,50
5.	Bo'sh maydon	0,00
JAMI		43,20

ming t va shundan qattiq tuz chiqindilarni chiqindi ag'darmasiga o'rtacha yillik joylashtirish 425,81 ming t/yil deb qabul qilingan.

Chiqindi ag'darmasini ikki bosqichda to'ldirish rejalashtirilgan:

1. Shaxta maydonining markaziy qismini o'zlashtirish davrida hosil bo'ladi (rudani qazib olish va qayta ishlash hajmi 15,83 mln. t).

2. Chiqindi ag'darmasini rejada ko'rsa-

tilgan chegaraga qadar kengaytirish bilan samaradorligini oshirish.

Joylashtirilgan tuz chiqindilarining yillik geometrik hajmini hisoblash to'ldirishning hisobiy g'ovakliligiga qarab amalga oshiriladi:

$$V_g = M_{gt} / [\rho_s \cdot (1-n)], m^3, \quad (1)$$

bu yerda, V_g – yillik to'kish hajmi, ming m^3 ;

M_{gt} – bir yilda joylashtirilgan (qattiq fazadagi) tuz chiqindilarining massasi, ming

t;

ρ_s – tuz chiqindilari zarralarining zichligi ($\rho_s = 2,16 \text{ g/sm}^3$);

n – to'ldirishning hisoblangan g'ovakliligi.

Xulosa. Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra shaxta maydonining markaziy qismini o'zlashtirish paytida barcha tuz chiqindilarini joylashtirish uchun (22,6 yil ichida 15,83 mln. t ruda, 9,64 mln. t tuz chiqin-

dilari) ag'darma maydoni 16,0 gektarni tashkil etadi. Birinchi yarusning maksimal balandligi 40 metrga, ikkinchi yarusning markazidagi umumiy balandlik 70 metrga etadi. Birinchi navbatdagi chiqindilar ag'darmasidagi chiqindilar massivining geometrik hajmi 6,4 mln. m^3 , o'rtacha balandlik (geometrik hajm bazaviy maydonga bo'lingan holda) - 40 metrni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Latipov, Z. Y. O. G. L., & Xasanov, S. R. O. G. L. (2022). ТЕРАҚО 'TON KONI SHAROITIDA TUZ CHIQUINDILARINI ELEKTROSILIKATLASH USULI ORQALI QOTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 586-594.
2. Latipov, Z., Uzoqov, Z., & Bobomurodov, A. (2023). DEVELOPMENT OF RECOMMENDATIONS FOR CHEMICAL FIXATION OF SALT WASTE. Universum: технические науки, (10-7 (115)), 9-11.
3. Norov, Y., Karimov, Y., Latipov, Z., Khujakulov, A., & Boymurodov, N. (2021). Research of the parameters of contour blasting in the construction of underground mining works in fast rocks. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 1030, No. 1, p. 012136). IOP Publishing.
4. Заиров, Ш. Ш., Каримов, Ё. Л., & Латипов, З. Ё. У. (2021). Исследование химического процесса закрепления солевых отходов в горнодобывающем комплексе дехканабадского завода калийных удобрений. Проблемы недропользования, (3 (30)), 40-53.
5. ЗАИРОВ, Ш. Ш., КАРИМОВ, Ё. Л., & ЛАТИПОВ, З. Ё. У. ПРОБЛЕМЫ НЕДРОПОЛЬЗОВАНИЯ. ПРОБЛЕМЫ НЕДРОПОЛЬЗОВАНИЯ Учредители: Институт горного дела УрО РАН, (3), 40-53.
6. Заиров, Ш. Ш., Уринов, Ш. Р., Каримов, Ё. Л., Жумаев, И. К., Латипов, З. Ё. У., & Эшкулов, О. Г. У. (2021). Повышение технологии проходки калийных пластов в условиях тубегатанского месторождения калийных солей. Universum: технические науки, (10-2 (91)), 59-63.
7. Заиров, Ш. Ш., Уринов, Ш. Р., Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё. У., & Авезова, Ф. А. (2021). Изучение экологических проблем и анализ способов снижения негативного воздействия отходов калийных руд на окружающую среду. Universum: технические науки, (4-2 (85)), 46-50.
8. Каримов, Ё. Л., Жумаев, И. К., Латипов, З. Ё. У., Шукуров, А. Ю., & Нарзуллаев, Ж. У. У. (2020). Рекомендации по применению технологии противодиффузионной защиты солеотвала и рассолосборника № 1. Universum: технические науки, (12-2 (81)), 34-37.

9. Каримов, Ё. Л., Жумаев, И. К., Латипов, З. Ё., & Хужакулов, А. М. (2020). Повышение эффективности использования хвостохранилища для размещения солеотходов обогатительной фабрики Дехканабадского завода калийных удобрений. Горный вестник Узбекистана.–Навои, 4, 45-48.
10. Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё. У., & Турдиев, Ж. Н. У. (2022). РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ КОМБАЙНОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВЫЕМКИ СИЛЬВИНИТОВЫХ ПЛАСТОВ ТЮБЕГАТАНСКОГО КАЛИЙНОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ. Universum: технические науки, (11-3 (104)), 54-57.
11. Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё. У., Боймуродов, Н. А., & Абдиназаров, У. Б. У. (2022). АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ПРОЦЕССА РАЗРУШЕНИЯ ГОРНОГО МАССИВА ЗАРЯДАМИ ВЗРЫВЧАТЫХ ВЕЩЕСТВ С ИНЕРТНЫМИ СЕРДЕЧНИКАМИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 207-212.
12. Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё. У., Каюмов, О. А. У., & Боймуродов, Н. А. (2020). Разработка технологии закрепления солевых отходов рудника Тюбегатанского горно-добывающего комплекса. Universum: технические науки, (12-3 (81)), 59-62.
13. Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё., & Хужакулов, А. М. (2019). Технология проходки выработок на Тюбегатанском месторождении калийных солей.
14. Каримов, Ё. Л., Хужакулов, А. М., & Латипов, З. Ё. У. (2020). Гидравлическая закладка выработанного пространства при подземной добыче калийных руд. Journal of Advances in Engineering Technology, (1), 25-28.
15. Каримов, Ё. Л., Якубов, С. И., Аликулов, Г. Н., & Латипов, З. Ё. (2018). Геодинамические активные зоны Тюбегатанского месторождения калийных солей. Горный вестник Узбекистана.–Навои, (2), 41-44.
16. Каримов, Ё. Л., Якубов, С. И., Муродов, Ш. О., Нурхонов, Х., & Латипов, З. Ё. (2018). Экологические аспекты Дехканабадского рудного комплекса по добыче калийных руд. Горный вестник Узбекистана.–Навои, (3), 23-27.
17. Латипов, З. Ё. (2020). Мировое производство и проблемы освоения калийных руд. In Марказий Осиё минтақасида замонавий илм-фан ва инновацияларнинг долзарб муаммолари халқаро конференция материаллари.–Жиззах (pp. 173-174).
18. Латипов, З. Ё. У., Бобомуродов, А. Й. У., & Хасанов, Ш. Р. У. (2022). ВЫБОР ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМЫ РАЗРАБОТКИ ПРИ ОТРАБОТКИ ПАНЕЛИ № 5 НА ГОРНОДОБЫВАЮЩЕМ КОМПЛЕКСЕ ДЕХКАНАБАДСКОГО ЗАВОДА КАЛИЙНЫХ УДОБРЕНИЙ. Universum: технические науки, (10-3 (103)), 11-13.
19. Латипов, З. Ё. У., Бобомуродов, А. Й. У., Хасанов, Ш. Р. У., & Абдиназаров, У. Б. У. (2022). Расчет производительности комбайновых комплексов в условиях рудника Тюбегатанского месторождения калийных солей. Universum: технические науки, (1-2 (94)), 5-9.
20. Латипов, З. Ё. У., Каримов, Ё. Л., Шукуров, А. Ю., Худойбердиев, О. Д., & Норкулов, Н. М. У. (2021). Моделирование и установление координат центра

21. Латипов, З. Ё. У., Мухаммадов, А. А. У., & Исмоилов, М. И. У. (2022). К ВОПРОСУ ОТХОДОВ ДОБЫЧИ И ПЕРЕРАБОТКИ КАЛИЙНЫХ СОЛЕЙ ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ. *Universum: технические науки*, (4-6 (97)), 5-8.
22. Латипов, З. Ё., Каримов, Ё. Л., & Жумаев, И. Қ. (2021). Тепакутон калий конининг ташқи майдонидан оқилона фойдаланишни математик моделлаштириш. *Инновацион технологиялар*, (3 (43)), 7-11.
23. Латипов, З. Ё., Каримов, Ё. Л., Хўжақулов, А. М., Авлақулов, А. М., & Шуқуров, А. Ю. (2020). Калий рудаларини ўзлаштириш ва чиқиндиларнинг атроф-муҳитга салбий таъсирини пасайтириш муаммолари. *Инновацион технологиялар*, (4 (40)), 18-22.

УЎК: 504.433

 10.5281/zenodo.10821631

ЕР ОСТИ СУВЛАРИНИ ҚАЗИБ ЧИҚАРИШДА СУВ ҚУДУҚЛАРИНИ БУРҒИЛАШ ВА ИШЛАТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ



Ярбобоев Тулқин Нурбобоевич

Қариши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Фойдали
қазилмалар геологияси ва разведкаси” кафедраси профессори,
Қариши Ўзбекистон
E-mail: tulkin-69@mail.ru



Қосимова Қарима Ёдгор қизи

Қариши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва
атроф-муҳит муҳофазаси” таълим йўналиши талабаси,
Қариши Ўзбекистон
E-mail: qosimovakarima77@gmail.com

Аннотация. Мақолада ер ости сувларининг захиралари ҳамда уларга саноат, қишлоқ хўжалигининг салбий таъсири сув қудуқларидан самарали фойдаланиш ҳақида маълумотлар муҳокама қилинган. Табiiй ер ости сувларининг қазиб чиқариш ҳажмини кўпайиши ичимлик сув захираларини камайишига ва ер ости сувларининг ичимлик хусусиятлари сифатининг ёмонлаиши олиб келади. Табiiй сувларни муҳофаза қилиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш кириб чиқилган, сув қудуқларини бурғилаш ва ишлатиш тизимини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар келтирилган.

Калит сўзлар: ер ости сувлари, сув ресурслари, қудуқ бурғилаш, антропоген таъсир, деградация, сувтежамкор технологиялар.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУРЕНИЯ И СИСТЕМЫ ЭКСПЛУАТАЦИИ ВОДОДОБЫВАЮЩИХ СКВАЖИН ПРИ ДОБЫЧЕ ПОДЗЕМНЫХ ВОД

Ярбобоев Тулқин Нурбобоевич

Профессор кафедры «Геология и разведка полезных
ископаемых» Каршинского инженерно-экономического
института, Қариши, Ўзбекистан

Қосимова Қарима Ёдгор қизи

Студентка кафедры «Экология и охрана окружающей среды»
Каршинского инженерно-экономического института, Қариши,
Ўзбекистан

Аннотация. В статье обсуждаются информация о запасах подземных вод и негативном воздействии на них промышленности, сельского хозяйства, эффективном использовании водных скважин. Увеличение объемов добычи природных подземных вод приводит к уменьшению запасов питьевой воды и ухудшению качества питьевых свойств подземных вод. Рассматриваются мероприятия по реализации мероприятий по охране природных вод, представлены мероприятия по совершенствованию бурения и системы эксплуатации вододобывающих скважин.

Ключевые слова: подземные воды, водные ресурсы, бурение скважин, антропогенное воздействие, деградация, водосберегающие технологии.

IMPROVEMENT OF DRILLING AND OPERATION SYSTEM OF WATER EXTRACTION WELLS FOR GROUNDWATER EXTRACTION

Yarboboev Tulkin Nurboboevich

Professor of the department "Geology and prospecting of mineral resources" of the Karshi Engineering Economics Institute, Karshi Uzbekistan

Kasimova Karima Yodgorovna

Student of "Ecology and Environmental Protection" department of the Karshi Engineering Economics Institute, Karshi Uzbekistan

Abstract. *The article discusses information on groundwater reserves and negative impact on them of industry, agriculture, effective use of water wells. Increasing extraction of natural groundwater leads to a decrease in drinking water reserves and deterioration of the quality of drinking properties of groundwater. Measures to implement measures to protect natural waters are considered, and measures to improve the system of drilling and operation of water production wells are presented.*

Keywords: *groundwater, water resources, well drilling, anthropogenic impact, degradation, water-saving technologies.*

Кириш. Табиий ресурсларнинг, шу жумладан, сув ресурсларининг тугаб бориши мумкинлиги муаммоси инсониятни доимо ташвишга солиб келган. У ҳар доим энг йирик олимлар, табиатшунослар, файласуфлар, фантаст ёзувчилар ва башоратчиларнинг башоратларида муҳим ўрин тутган. Муаммо алоҳида долзарблик билан кўтарилди ва қайта тикланмайдиган ресурслар – ер қобиғида тўпланган минерал хом ашёнинг кенг ассортименти билан боғлиқ ҳолда муҳокама қилинмоқда. Ва бу тасодифий эмас. Инсониятнинг генетик даражада белгиланган бутун тажрибаси жамиятни ва ҳар бир шахсни иссиқлик ва ёруғликсиз ҳаёт йўқлигига, металллар ва бошқа минерал ресурсларсиз ижтимоий-иқтисодий соҳанинг таркибий қисмлари йўқ бўлиб кетишига ишонтирди. Уларнинг манбалари айнан ер қобиғидан олинадиган минерал ресурслардир; атрофимиздаги ҳаётнинг деярли барча бошқа атрибутлари: машиналар, уйлар, маиший техника, ўз ҳаётини ҳимоя қилиш воситалари ва бошқалар - улардан олинган маҳсулотлар ҳисобланади.

Сув ресурслари – бу барча турдаги табиий сувларнинг барча агрегат ҳолатларидаги йиғиндиси. Жамиятнинг иқтисодий салоҳиятини ривожланиши кўп жиҳатдан сув таъминоти даражасига боғлиқ. Ўз навбатида, сув таъминоти даражаси инсоннинг маълум бир географик ҳудуддаги сув ресурслари билан белгиланади. Тарихий ривожланиш жараёнида жамият фақат иқтисодий ривожланиш даражасига мувофиқ мавжуд бўлган табиий сув турларидан фойдаланган. Сув ресурсларининг ўзига хос хусусияти уларнинг янгиланишидир. Шу тарзда, улар бошқа табиий ресурслардан тубдан фарқ қилади [1]. Сув ресурслари орасида ер ости сувлари алоҳида аҳамиятга эга.

Ер ости сувлари фойдали қазилма ҳисобланади, уни қазиб олиш ичимлик ва саноат сув таъминоти (чучук сув), санаторияни тозалаш (минерал сувлар), қимматбаҳо компонентларни (саноат сувлари) қазиб олиш ва иссиқлик энергияси хом ашёси (термал сувлар) сифатида фойдаланишни таъминлайди. Чучук ер ости сувлари фойдали қазилмаларнинг

стратегик турларига киради, чунки у аҳолини маиший ичимлик суви билан таъминлашнинг устувор ва фавқулудда вазиятлар даврида ичимлик суви билан таъминлашнинг ягона манбаи ҳисобланади.

Ер ости сувлари чуқурликда содир бўладиган кўплаб жараёнларнинг индикатори ҳисобланади. В.И.Вернадский сувнинг ўзига хос нарса эканлигини, у ердаги барча шаклланишлардан ажралиб туришини кўрсатиб ўтган: “Сайёрамиз тарихида сув ажралиб туради. Асосий, энг улуғвор, геологик жараёнларнинг боришига таъсири жиҳатидан у билан солиштирадиган табиий тана йўқ” [2]. Буюк олимнинг бу ғояси Ернинг турли минтақаларига нисбатан ривожланмоқда [3, 4]:

1) нафақат ер юзаси, балки сайёрамизнинг чуқур қисмларида ҳам энг муҳим ўзгаришлар сувнинг мавжудлиги ва хусусиятлари белгиланади;

2) сув ер қобиғининг асосий механизмларини яратади, ҳеч бўлмаганда магматик қобиқгача;

3) сайёра ва унинг атмосферасининг электр майдонини келтириб чиқаради ва қисман яратади;

4) сувнинг хусусиятлари иқлимни яратади ва атмосферанинг термодинамикасини белгилайди;

5) сув ер қобиғининг бутун кимёсини ва ҳаёт муҳитини белгилайди, барча кимёвий реакциялар сувли эритмаларда содир бўлади;

6) табиий сув инсоннинг бутун ҳаётини қамраб олади ва яратади, чунки унинг ижтимоий турмуш тарзини, мавжудлигини шу даражада белгилайдиган бошқа табиий тана деярли йўқ;

7) сув бутун биосферани белгилайди

ва яратади.

Юқорида келтирилганларнинг барчаси атмосфера, биосфера, гидросфера ва литосферанинг табиий тараққиётида сувнинг ўта муҳим аҳамиятга эга эканлигини белгилаб беради.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ўзбекистоннинг ер усти ва ер ости сувларини ўрганиш бўйича турли йилларда Г.А.Мавлянов, Н.Н.Ходжибаев, К.П.Пулатов, Э.В.Мавлянов, Ф.Б.Абуталиев, У.У.Умаров, Б.Я.Нейман, М.А.Панков, К.М.Арипов, В.Г.Самойленко, Ю.И.Иргашев, Л.З.Шерфединов, Я.С.Садыков, А.И.Голованов, В.А.Гейнц, М.М.Крылов, У.У.Усмонов, М.Р.Рахимов, А.А.Мавлонов, И.Х.Хабибуллаев, М.С.Алимов, В.У.Магдиев, Н.Н.Камилов, Ж.Х.Джуманов, С.Х.Хушвақтов, А.Б.Алимбаев, П.П.Нагевич, О.В.Чеботарев, И.Н.Грачева ва бошқалар томонидан тадқиқотлар олиб борилган, тадқиқотлар натижасида Ўзбекистон республикаси ҳудуди учун гидрогеологик шароитларни моделлаштириш технологияси ишлаб чиқилган, турли геологик ва муҳандислик-геологик шароитларда регионал ва локал мониторингни ўтказиш мезонлари белгиланган.

Ер ости сувларининг эксплуатацион захираларини баҳолаш учун куйидаги усуллар қўлланилади: гидродинамик усул, гидравлик усул, мувозанат усули, гидрогеологик аналогиялар ва рақамли моделлаштириш усули, шунингдек уларнинг комбинацияси. Сув сифатини аниқлаш методологияси вазиятнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда танланади. Олимлар кўрсаткичларни таҳлил қилиш ва аниқлаш имконини берувчи бир қатор усулларни

яратдилар. Ҳозирги кунда сув сифатини назорат қилишнинг қуйидаги усулларидан фойдаланиш мумкин: кимёвий, радионуклид, микробиологик ва физик-кимёвий.

Гидрогеологик шароитларни ўрганиш усуллари, гидрогеологик ва бошқа турдаги махсус тадқиқотларнинг таркиби, ҳажми ва методологияси ҳал қилинаётган вазифаларнинг хусусиятига, табиий шароитларни ўрганишнинг мураккаблиги ва даражасига ва бошқа омилларга боғлиқ. Бироқ, барча ҳолатларда, тақдим этилган гидрогеологик ва бошқа турдаги тадқиқотлар мажмуаси қўйилган вазифаларни тўғри, илмий асосланган, тез ва самарали ҳал қилиш учун зарур бўлган ишончли гидрогеологик маълумотларнинг олинишини таъминлаши керак.

Муҳокама ва натижалар. Дунёда ер ости сувларининг ресурслари (5 км гача бўлган чуқурликда) 60 млн. км³, шундан 4 млн. км³ фаол сув алмашинуви зонасида жойлашган. Юза қатламларида 85 минг км³ тупроқ намлиги мавжуд. Чучук ер ости сувлари турли геологик-гидрогеологик тузилмаларда кенг тарқалганига қарамай, уларнинг миқдори (бошқа сув ресурслари билан солиштирилганда) ердаги чучук сув захираларининг (атмосфера, кўл, дарё, абадий музлик ва бош.) 5% дан ошмайди. Ер ости гидросферасида тоза сувнинг улуши 3-4% дан ошмайди. Қуруқликдаги гидросферада чучук сув миқдори тахминан 2% ни ташкил қилади (бу миқдорга атмосфера, тупроқ ва ер усти сувлари, шу жумладан музликлар қиради). Шу билан бирга, чучук сув зонасининг қалинлиги 400 м дан ошмайди ва баъзи геологик тузилмаларда ундан ҳам камроқ. Сув

доимий ҳаракатда – унинг миқдори ва сифати вақт ва маконда ўзгаради. Сув ресурслари қадимги захиралар ва қайта тикланадиган ресурслар эканлиги билан ажралиб туради [5, 6].

Мамлакатимизда ҳозирги кунда 97 та ер ости сув конлари аниқланган бўлиб, уларнинг умумий сув ресурслари 63,9 млн. м³/кун. (умумий сув ресурсларининг 25%) ни ташкил қилади, шундан шўрлиги 1 г/л гача бўлган сувлар 25,8 млн. м³/кун. (40%) ни ташкил қилади. Бугунги кунда ичимлик суви таъминотининг 67 фоизи ер ости сувлари ҳисобидан амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда сув ресурслари уч хил мақсадга, жумладан, аҳоли учун тоза ичимлик суви ва ишлаб чиқариш корхоналари таъминоти, қишлоқ хўжалиги ерларини суғоришга йўналтирилади. Қайд этиш жоиз, мазкур соҳаларнинг ҳаммаси бир-биридан муҳим ва зарур. Ичимлик суви таъминоти тизимини ривожлантириш ва модернизациялаш бўйича комплекс чора-тадбирлар ва мақсадли дастурларни амалга ошириш асосида аҳолини сифатли ичимлик суви билан таъминлаш Ўзбекистон ижтимоий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда атроф-муҳит муҳофазаси, табиий ресурслар, жумладан, сувдан оқилона фойдаланиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилиб, бу борада кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Сув ресурсларидан унумли фойдаланиш, уларни муҳофаза қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни қабул қилинган. Ушбу ҳужжат қишлоқ ва сув хўжалиги соҳасидаги ислохотларни янада кенгай-

тириш, сув ресурсларидан унумли фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилишни такомиллаштиришга хизмат қилмоқда. 30.11.2021 йилдаги ЎРҚ-сон Қонун билан “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонунга ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди.

Республикада ер ости сувларидан фойдаланиш ва қудуқ бурғилаш тизими янада такомиллаштириш, ер ости сув ресурсларини муҳофаза қилиш бўйича давлат ва жамоатчилик назоратини кучайтириш, аҳоли орасида сувдан оқилона фойдаланиш маданиятини кенг тарғиб қилиш, уларнинг миқдор жиҳатдан камайиб кетиши ва ифлосланишининг олдини олиш ҳамда пировард натижада аҳолини узоқ муддатли истиқболда сифатли ичимлик сув билан таъминлаш мақсадида 7-декабрь 2022 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ер ости сув ресурсларини муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланишни тартибга солиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-439-сон қарори қабул қилинди.

Мазкур қарорга кўра, ер ости сувларидан фойдаланувчиларга 2024 йил 1 январга қадар ер ости сувларидан фойдаланишнинг аниқ ҳисобини юритиш мақсадида ўз тасарруфидаги ер ости сув олиш иншоотларини сув ҳисоблаш воситалари билан белгиланган тартибда жиҳозлаш мажбурияти юклатилган.

Шунингдек, 2024 йил 1 январдан бошлаб сувни ҳисобга олиш воситалари билан жиҳозланмаган ер ости сув олиш иншоотларидан фойдаланиш тақиқланади. Бунда жисмоний шахсларга шахсий ва хўжалик эҳтиёжлари учун якка тартибда суткасига 5 метр кубгача

(суткасига 5000 литргача) бўлган миқдорда ер ости сувларини олиш мустасно. Яъни, бундай қудуқларни сув ҳисоблаш воситалари билан жиҳозлаш мажбурий эмас.

2023 йил 1 апрелдан бошлаб ер ости сувларига қудуқларни бурғилаш учун рухсатнома беришнинг амалдаги тартиби бекор қилинди ҳамда вазирлик томонидан бурғиловчи субъектларга ер ости сувларига қудуқларни бурғилаш фаолиятига рухсатнома бериш тартиби жорий этилиб, ўз тасарруфидаги бурғилаш ускуналарини GPS-трекерлар билан жиҳозлаш ва уларни доимо ишчи ҳолатда сақлаш мажбурияти юклатилди.

Ер ости чучук сувлари захиралари республикада бўйича бир хил тарқалмаган, асосан Тошкент вилоятида 28%, Самарқанд 14%, Сурхондарё ва Наманган 13% дан, Андижон – 12% ва Фарғонага – 8% келади ва республика ичимлик сув таъминотининг 67 фоизини ташкил этади. Шундан, Фарғона (29,1%), Наманган (13,2%), Қашқадарё (10,8%), Самарқанд (11,5%), Тошкент (10,3%) вилоятларида ер ости сувларидан кенг фойдаланилмоқда.

Республикада ер ости сувлари мониторинги тизими 1465 кузатув қудуқларидан олинган сув намуналарининг минераллашув даражасига асосан таҳлил қилинмоқда.

Атроф-муҳит объектларининг ифлосланиши мониторингига кўра, ер ости сувларининг асосий ифлослантирувчи моддалари саноат, қишлоқ хўжалиги ва коммунал корхоналар ҳисобланади. Республикада айрим худудларида ер усти сув чиқариш тармоқлари ва дренаж тизимларининг қониқарсиз ҳолати, айрим шаҳарлар ва

бошқа аҳоли пунктларида ер ости сувлари сатҳининг жадал кўтарилишига олиб келган [7].

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ва саноатни жадал ривожлантириш ер ости сувларига эҳтиёж кескин ортишига олиб келиб, бу сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш тизимини янада такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Соҳа мутахассисларининг ер ости сувлари мониторинги натижаларига асосан сўнгги йилларда Навоий, Самарқанд, Жиззах, Қашқадарё, Наманган, Фарғона ва Андижон вилоятларининг айрим ҳудудларида ер ости сув сатҳи 5 метргача ва ундан ортиқ пасайиб, уларнинг ресурслари камайиб кетиши кузатилмоқда. Мазкур ҳудудларда сувга қудуқ бурғилаш ва улардан фойдаланиш бўйича мораторий жорий этилди. Ер ости сувлари сатҳининг ўртача кўп йиллик сатҳига нисбатан 5 метрдан ортиқ пасайиб кетган ҳудудларда ер ости сувларидан фақат ичимлик мақсадларида фойдаланиш мумкин [8].

Дунё ресурслари институти тадқиқотига кўра, 2025 йилга келиб дунё аҳолисининг ярми сув танқислигига учраган ҳудудларда яшаши кутилмоқда. Келажакда, ҳатто, етарли сув ресурсларига эга мамлакатларда ҳам сув танқислиги сезила бошлайди. Бу бир қатор омиллар - инфратузилма ва сув тақсимлашдаги хатоликлар, ифлосланиш, можаролар ёки сув ресурсларини нотўғри бошқариш билан боғлиқ. Иқлим ўзгариши эса сув танқислиги муаммосини тезлаштириб юборади [9].

Ҳозирги кунда аҳоли ва қишлоқ хўжалиги истеъмолчилари томонидан ер ости сувларидан тўғри ва оқилона фойдаланиш, уларни муҳофаза қилиш

масаласи тобора муаммога айланиб бормоқда. Жаҳонда юз бераётган иқлим ўзгаришининг натижасида минтақамизда ҳам сув ҳавзаларининг сувсизланиши, сув сарфининг камайиши, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш мақсадида ер ости сув манбаларидан ортиқча ва аҳоли томонидан ер ости сувларидан нотўғри фойдаланиш (1-расм) билан боғлиқ антропоген таъсирлар кузатилмоқда.

Ер усти сувларининг ифлосланиши туфайли марказлаштирилган сув таъминоти ер ости сувларига тобора кўпроқ эътибор қаратмоқда. Бироқ, атрофмуҳитга антропоген таъсирнинг ортиб бориш шароитида ер ости сувлари ҳам ифлосланмоқда. Техноген компонентлар нафақат юқори, яхши ҳимояланмаган сув қатламларида, балки чуқур артезиан сув омборларида ҳам кузатилмоқда. Ер ости сувларининг ифлосланиши бир қатор



1-расм. Сувдан нотўғри фойдаланиш ҳолати.

экологик ва ижтимоий оқибатларга олиб келади. Ер ости сувларини ҳаддан ташқари қазиб олиш ёки ифлосланиш таҳдидларидан ҳимоя қилиш, шунингдек келажакда барқарор бошқарувни таъминлаш учун ер ости сувларининг қаердан келиб чиқишини, унинг сифати ва қанчалик тез тўлдирилишини тушуниш

муҳимдир.

Антропоген омиллар, хусусан тоза ер ости сувларининг қазиб чиқариш ҳажмини кўпайиши уларнинг захира-ларини камайишига олиб келади. Табиий муҳитнинг узок муддатли урбанизацияси ер ости гидросферасининг барқарорлиги ва мувозанатини бузади. Ер ости сувлари сифатининг динамик ёмонлашиши ер ости гидросферасини ҳимояланганлигининг заифлашишини ва унинг релаксацион хусусиятларини пасайишини кўрсатади. Техногенез туфайли ер ости сувлари сифатининг ёмонлашиши ер ости гидросферасидаги мураккаб табиий жараёнларнинг йўналиши ва тезлигининг ўзгаришига имкон яратади, экологик, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий муаммоларни келтириб чиқаради.

Инсоннинг узок муддатли иқтисодий фаолиятининг таъсири табиий муҳитдаги экологик вазиятнинг ёмонлашувида намоён бўлди. Деградация белгилари Ернинг турли табиий қобикларида (атмо-, био-, гидро- ва литосфера) кузатилади. Ер ости гидросферасида гипергенез зонасида чучук сув ҳажмининг камайиши ҳисобига сув ресурслари, ер ости сувлари мувозанати ва режимида сезиларли ўзгаришлар юз беради [10, 11, 12].

Худудларнинг иқтисодий ривожланиши жараёнида табиий муҳитга кўплаб маҳаллий таъсир манбалари таъсир қилади. Улардан энг кенг тарқалганига энергетика иншоотлари, тоғ-кон мажмуалари, карьерлар, шахталар, маиший чиқиндиларни сақлаш, ер ости сувларини қазиб чиқариш, заҳарли чиқиндиларни утилизация қилиш ва бошқалар киради. Уларнинг аксарияти ер ости сувларига комплекс таъсир кўр-

сатади.

Ер ости сувлари турли хил геологик ва гидрогеологик шароитларда маиший ва ичимлик мақсадларида кенг қўлланилади. Кейинги ўн йилликларда сувга бўлган эҳтиёж ортиб бораётганлиги туфайли ер ости сувларни қазиб чиқариш ҳажми ҳам тобора кўпайиб бормоқда. Хавфсизликни таъминлаш мақсадида сув қатламларини ер юзасидан ифлосланишидан маълум даражада изоляция қилишни таъминлаш учун санитария муҳофазаси зоналари яратилмоқда. Ер ости сувларининг ичимлик хусусиятлари сифатининг ёмонлашиши уларнинг сув олиш кудуқлари орқали жадал қазиб чиқарилиши билан боғлиқ. Сув олиш иншоотларининг хилма-хиллиги худудларнинг геологик-гидрогеологик шароитлари билан белгиланади. Сув олиш кудуқлари чучук ер ости сувларини ўз ичига олган турли хил сувли қатламларда жойлашган (тўртламчи ёшдаги бўш кумли-лой ётқизиқлари, карбонат тоғ жинслари, тоғлараро ботикликларнинг дарзли жинслари, тектоник бузилишлар зоналари ва бошқалар.).

Узок муддатли ва жадал сув қазиб чиқарилганда сувга тўйинган қатламларнинг қуриши ва очик тизимларнинг шаклланиши қайд этилади. Жадал сув олиш туфайли ер ости гидросферасига токсикантларнинг кенг ассортиментини кириб бориши турли хил тарқалган ва маҳаллий ифлосланиш манбалари билан анча кўпаяди.

Атроф-муҳит техноген ифлосланган тақдирда, фаолияти ер усти сувлари билан чамбарчас боғлиқ бўлган инфилтрация турида сув олиш иншоотлари алоҳида аҳамиятга эга. Айнан шу турдаги сув олиш иншоотлари учун ер ости

сувлари сифатининг энг динамик ёмонлашиши қайд этилади. Ичимлик сувининг қониқарсиз сифати турли касалликларга олиб келади, организмдаги сув-туз ва оксил мувозанатининг бузилиши ва бошқа кўплаб салбий оқибатлар билан бирга келади. Ичимлик сувининг кимёвий ва биологик хусусиятлари ёмонлашганда, алоҳида кимёвий элементлар билан бойиган (F, Se, As, Li, B, Sr, Fe, Mn ва бошқалар) ер ости сувларини истеъмол қилиш билан боғлиқ бир қатор касалликлар пайдо бўлади.

Сувли қатламлардан ер ости сувларини жадал олиш пайтида гидрогеологик шароитда қайтарилмас ўзгаришлар (пиезаметрик сатхларнинг пасайиши, таъминот жойларининг шаклланиши, сизилиш тезлигининг ошиши, гидрогеокимёвий ва геотемпература аномалияларининг шаклланиши ва бошқалар) кузатилади. Атмосфера ёғинлари-сувли горизонт тизимида сув алмашинувининг жадаллиги сезиларли даражада ошади. Ер ости коммуникациялари ва турли хил муҳандислик иншоотларидан оқиш туйфайли инфильтрацион озиклантириш кўпаяди ва ишлатилаётган сув қатламларига кирадиган сифатсиз сувнинг ҳажми ортади. Йирик саноат марказлари шароитида ер ости гидросферасида сув балансининг шаклланиши инфильтрацион тўйиниш миқдори ёғингарчилик миқдоридан ошиб кетганда содир бўлади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудуди бўйлаб тахминан 100 мингдан ортиқ сув қудуқлари мавжуд. Қудуқ сувларидан турли мақсадларда фойдаланилади. Табиий шароитга мос равишда, йилнинг маълум даврларида қудуқлар қуриб қолиши ҳам мумкин. Ҳамма қудуқлардан ҳам чиқадиган ер ости сувлари ичишга

яроқли эмас. Сув қудуқларидан асосан ичимлик, ерларни суғориш ва турли хил хўжалик эҳтиёжлари учун фойдаланилади.

Юқорида қайд этилганидек, сув қудуқларидан тасдиқланган миқдордан ортиқча сув олиш сув сатҳининг пасайиб кетишига ва бу захираларнинг бир неча йил ичида тугашига олиб келиши мумкин. Натижада ичимлик сув манбаси бўлган қудуқлар қуриydi ва катта маблағлар ҳисобига қурилган ичимлик сув иншоотлари сув бермай қўяди.

Ер ости сувларидан фойдаланиш ва қудуқ бурғилаш тизимини такомиллаштириш, ер ости сув ресурсларини муҳофаза қилиш бўйича назоратни кучайтириш, аҳоли орасида сувдан оқилона фойдаланиш маданиятини кенг тарғиб қилиш, ер ости сувларнинг камайиши ҳамда ифлосланишининг олдини олиш мақсадида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Сув қудуқларини бурғилаш ва ишлатиш тизимини янада такомиллаштириш ва ер ости сувларидан оқилона фойдаланиш мақсадида қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

- ер ости сув қудуқларини олдиндан тузилган лойиҳа асосида стандарт талабларга мувофиқ бурғилаш – бу қудуқларни ҳалокатларсиз бурғилаб ўтиш ва узок муддат таъмир талаб қилмасдан ишлатиши таъминлайди;

- қудуқларнинг конструкциясини ҳудуднинг геологик тузилиши ва гидрогеологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда танлаш – бу қудуқнинг мустаҳкамлиги ва герметиклигини таъминлайди;

- бурғилаш эритмасининг таркибини

тўғри танлай – бу ер ости сувларининг сифатсизланишини олдини олади;

- сувли горизонт очилгандан сунг маҳсулдорликка синаб кўриш – бу сув қатламнинг кунлик сув бера олиш миқдорини аниқлаш имкониятини беради;

- кудукни бурғилаш жараёнида ҳар бир сувли горизонтдан сув намуналари олиш ва лаборатория таҳлилларини ўтказиш – бу кудук кесимида очилган ҳар бир сувли горизонтдаги сувнинг қандай мақсадларда (ичимлик, суғориш, техник ва бошқалар) фойдаланилиши мумкинлигини аниқлаш имкониятини беради;

- сув қазиб чиқариладиган горизонтларда махсус филтёр ўрнатиш – бу сув олинадиган горизонт оралиғида тоғ жинсларининг емирилиши, кудук тубини кум зарралари билан тўлиб қолиши ва кудук маҳсулдорлигининг камайишини олдини олади;

- қувир орти соҳасини герметиклаш, яъни қатламлараро сув сизилишини олдини олиш – бу кудук кесимидаги турли геологик ва гидрогеологик шароитларга эга бўлган сувли қатламларнинг ўзаро гидродинамик алоқасини бартараф қилади ва истемолга яроқли сувли қатламларга яроқсиз сувларнинг кириб келишини, ер ости сувларининг антропоген зарарланишини олдини олади;

- кудук устини белгиланган талабларга мувофиқ жиҳозлаш ва электрон сув ҳисоблаш воситаларини ўрнатиш – кудук усти стандарт талаблардаги, босимга бардошли, сув сизиб чиқишига йўл қўймайдиган герметик ускуналар билан жиҳозланган бўлиши лозим, сув сарфини ҳисоблаш воситалари қазиб чиқариш миқдорини назорат қилиш имконини

беради;

- қатламдан олинадиган сув дебитини аниқлаган ҳолда сув қазиб чиқаришнинг технологик режимини аниқлаш ва мақбул режимни ўрнатиш – қазиб чиқаришнинг технологик режимини белгилаш қатламнинг сув бера олиш имкониятидан келиб чиқиб, кудукдан бир меъёрда сув олишни таъминлайди, тоғ жинсларининг емирилишини, кудук тубини кум зарралари билан тўлиб қолишини ва қатламдаги сув сатҳининг пасайишини олдини олади;

- сув қазиб чиқариладиган қатламлардаги сув сатҳини назорат қилиб бориш – ер ости сувлари сатҳининг пасайиши ва ресурсларининг камайишини олдини олади;

- экинларни суғориш ва кўкаламзорлаштириш ишларида, техник ва технологик тизимларда сувтежамкор технологияларни жорий этиш – сув тежовчи технологияларни жорий этиш ер ости сув ресурсларини тежаш, ундан мақсадли ва самарали фойдаланиш имкониятини яратади;

- сув қазиб чиқарилаётган кудук жойлашган ҳудудда ер юзаси рельефининг ўзгаришини назорат қилиш мақсадида белгиланган муддатларда геодезик-картографик тадқиқотлар ўтказиш.

Хулоса. Ер ости сувлари республикамизнинг барқарор ривожланишини таъминлайдиган муҳим стратегик захира ҳисобланади. Ушбу сув захираларини чиқиндилардан ҳимоя қилиш, ифлосланган ҳудудларни ихоталаш асосида чучук ер ости сувларининг аниқланган манбалари, захираларини сақлаб қолишга интилиш ХХI асрнинг бош стратегик вазифаси ҳисобланади.

Шу боис барча турдаги корхоналар сув ресурсларидан фойдаланишни бошқаришнинг илмий-услубий асослари ва иқтисодий механизмларини такомиллаштириш ҳал қилувчи муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади.

Бундан ташқари, сув манбалари Ўзбекистондаги кўплаб экотизимлар, жумладан, дарёлар, кўллар ва сув омборлари учун муҳим аҳамиятга эга. Сув ресурсларига эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш ва уларни бошқариш биологик хилма-хилликни сақлашга, сув сифатини яхшилашга олиб келади ва экотуризмни сақлаш ва ривожлантириш имконини беради. Умуман олганда, сувни тежаш мамлакатга иқлим ўзгаришига мослашиш ва ичимлик сувининг камайиши, ёнғин ва қурғоқчилик хавфининг ошиши каби салбий таъсирни юмшатишда муҳим омил бўлади.

Сув ресурсларини тежаш – сув истеъмоли ва ифлосланиши билан боғлиқ муаммоларни камайтиришга ёрдам беради. Бунга сувдан фойдаланиш унумдорлигини ошириш ва сув йўқотилишини камайтириш, самарали технологияларни қўллаш орқали эришилади. Сув сарфини камайтириш, ирригация тизимларини ислоҳ қилиш, технологик инновацияларни жорий этиш, оқилона режалаштириш ва бошқаришга қаратилган чоратадбирлар – иқтисодий самараларга эришиш ва тармоқларнинг рақобатбардошлигини оширишга олиб келади. Бир сўз билан айтганда, бугун атрофимизда рўй бераётган сув билан боғлиқ экологик муаммолардан ҳар биримиз тегишли хулоса чиқариб, сувни тежаш ва исроф қилмаслик тамойилини кундалик мезонимизга айлантиришимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Калинин В.М. Экологическая гидрология. Учебное пособие. Тюмень: Издательство Тюменского государственного университета, 2008. 148 с.
2. Вернадский В.И. История природных вод. – М.: Наука, 2003. – 751 с.
3. Шварцев С.Л. Гидрогеохимия зоны гипергенеза. – М.: Недра, 1998. – 366 с.
4. Надеждина Ю.Ю. Учение В.И. Вернадского о природных водах. Электронный источник: URL: <https://nauchkor.ru/uploads/documents/583ea0d95f1be7700d51367b.pdf>
5. Шевцов М. Н. Водно-экологические проблемы и использование водных ресурсов. Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2015. - 197 с.
6. Злобина В.Л, Медовар Ю.А., Юшманов И.О. Трансформация состава и свойств подземных вод при изменении окружающей среды. Монография – М.: Мир науки, 2017.
7. Ярбобоев Т.Н. Комилов Б., Қосимова К. Геологик-қидирув ишлари билан боғлиқ экологик муаммолар // Eurasian journal of academic research. ООО «Innovative Academy RSC». Volume 2 Issue 5, May 2022. P. 353-357.
8. Ярбобоев Т.Н., Қосимова К.Ё. Тоғ-кончилик саноатининг экологик муаммолари. ТА’ЛИМ ФИДОЙИЛАРИ Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. Iyul 2022 1-qism. 57-64 b.

9. Yarboboyev T. N., Xaitov O.G'. Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari. Qarshi 2018. – 462 b.
10. Электрон ресурс: URL: <https://www.uznature.uz/ru/site/news?id=3019>.
11. Электрон ресурс: URL: <https://kun.uz/news/2022/08/02/yetti-hududda-yerosti-suv-sathi-5-metrgacha-pasayib-ketgani-malum-boldi>
12. Электрон ресурс: URL: <https://www.xabar.uz/jamiyat/suv-boyicha-xavotirli-prognoz-204nima-kutadi>